O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 94(575.146)+614.2(093)“1991/2023”

Abduraxmon ABDUXALIMOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, PhD
E-mail: Abduraxmon777@umail.uz,

Andijon davlat universiteti professori, t.f.d O.Komilov taqrizi asosida

DEMAND FOR DRUGS AND PRODUCTION OF PHARMACEUTICAL PRODUCTS IN THE VALLEY PROVINCE

Annotation

The article analyzes the demand for medicines in the valley regions, the development of the pharmaceutical industry and the activities of the enterprises producing medicines.

Key words: Pharmaceutical, pharmacy, enterprise, company.

СПРОС НА ЛЕКАРСТВА И ПРОИЗВОДСТВО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОДУКЦИИ В ДОЛИННОЙ ПРОВИНЦИИ

Аннотация

В стате анализируется спрос на лекарства в долинных регионах, развитие фармацевтической промышленности и деятелност предприятий, производящих лекарства.

Ключевые слова: Фармацевтика, аптека, предприятие, компания.

VODIY VILOYATLARIDA DORI VOSITALARIGA BO‘LGAN TALAB VA FARMASEVTIKA MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARILISHI

Annotatsiya

Maqolada vodiy viloyatlarida dori vositalariga bo‘lgan talab, farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish va dori-darmon ishlab chiqaradigan korxonalar faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Farmatsevtika, dorixona, korxona, kompaniya.

Kirish. Istiqlol arafasida respublika aholisini va sog‘liqni saqlash muassasalarini dori-darmonlar hamda tibbiyot texnikasi bilan ta’minlash juda ham yomon ahvolga tushib qolgan edi. Binobarin, Respublikaga MDH va boshqa Respublikalardan dori-darmonlar va tibbiyot texnikasini yetkazib berish 2 barobardan ko‘proqqa kamaygan.

Respublikada tibbiyot texnikasi va dori-darmonlar yetishmasligining asosiy sabablaridan biri, xususiy farm sanoatining sustlik bilan rivojlanayotgani va mamlakatda tibbiyot texnikasi ishlab chiqarilmaganligida edi.

Bu davrda tibbiyot muassasalarini dori-darmon bilan ta’minlashda ham o‘ta og‘ir vaziyat yuzaga keldi. Shu bilan birga, respublikani dori vositalari bilan ta’minlash kamayib bordi. 1992 - yil natijalariga ko‘ra respublikaning dori vositalariga bo‘lgan ehtiyoji 20 foizi qondirildi. Dori vositalarining yetishmasligi ulgurji narxlarning chakana narxlardan oshib ketishiga sabab bo‘ldi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aholini dori-darmonlar bilan ta’minlashda qiyinchiliklarni ijobiy hal etish uchun Farg‘ona viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limi va «Farmatsiya» ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan viloyat hokimiyatining bevosita yordamida 5 ta kichik korxona tashkil etildi. Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, 30 ga yer maydonida dorivor o‘simliklar yetishtirilib,10 dan ziyod dori-darmon ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Biroq kasalxonalarning dori-darmonlar bilan ta’minlanishi 55 foizni tashkil etgan, xolos [5]. Dori ta’minotini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 martdagi 132-qarori asosida Farg‘ona viloyatida rejalashtirilgan 234 dorixonadan 219 tasi xususiylashtirilgan [5].

Andijon viloyatida yuqoridagi qaror ijrosini ta’minlash bo‘yicha 1994 - yilda 195 ta dorixona muassasalari davlat tasarrufidan chiqarildi. Ulardan 25 ta muassasa hissadorlik jamiyatiga, 164 tasi xususiy mulkka, 6 tasi - jamoa mulkiga aylantirildi, 1 ta dorixona «Sog‘lom avlod uchun» viloyat bo‘limiga o‘tkazildi [6].

O‘z navbatida viloyat hokimligi tomonidan ichki bozorda aholining dori-darmonlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rildi. Lekin, milliy farmasevtika sanoatini rivojlantirmay, xorijlik ishonchli hamkorlar bilan mahalliy xomashyo hisobiga dori-darmon ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymasdan bu muammoni hal etish mumkin emasligini hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib qo‘ydi.

1996 - yil oxiriga kelib O‘zbekistonda dorixonalarning soni 3 ming 980 tadan oshib ketdi. Oliy va o‘rta ma’lumotli farmasevtlar va provizorlar soni ham ancha ko‘paydi [7]. Undan tashqari yana bir ijobiy tomoni aholini davlat tomonidan farmasevtika mahsulotlari bilan bepul ta’minlash yo‘lga qo‘yildi. Shunga qaramay ba’zi birkamchiliklar mavjud edi. Masalan, tibbiyot sohasida bitta shpris bilan o‘nlab insonlarga xizmat ko‘rsatilardi. Bu esa yuqumli kasalliklarni avj olishiga olib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning soha rivojlanishi uchun navbatdagi Farmoni «O‘zfarmsanoat» davlat aksionerlik konserni tashkil etilishi bo‘ldi. Bu konsernning vazifasi aholini o‘zimizda ishlab chiqarilgan dorilar bilan ta’minlash bo‘ldi. «1994-2002-yillarda farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish uchun 50 million AQSh dollari jalb qilindi. Shvesiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar sarmoyadorlari ishtirokida qo‘shma korxonalar barpo etildi. 2002-yilda respublikada dori-darmon ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 61 taga yetdi» [8].

Sekin asta vaqt o‘tishi bilan respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar boshqa sohalarda bo‘lgani singari farmasevtika yo‘nalishida ham xalqaro tashkilotlar e’tiborini tortdi. JSST tomonidan mamlakatda turli tadqiqotlar amalga oshirila boshladi. Jumladan, O‘zbekistondagi farmasevtika

sohasini baholash yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotga ob’ekt sifatida Farg‘ona viloyati tanlab olindi.

«Zdravplus» loyihasi doirasida o‘tkazilgan tadqiqot 1) farmasevtika bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash siyosatini baholash; 2) dori vositalarining narxi va mavjudligini baholash; 3) qishloq birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish shifokorlarining retseptlash amaliyotini ko‘rib chiqish kabi uchta yo‘nalishni qamrab oldi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqdan 90 yoshgacha bo‘lgan 1 ming 350 nafar bemorlardan ma’lumotlar olingan. Ularning 60 foizini ayollar tashkil etgan. Qishloq ambulatoriyalari va poliklinikalarda bemorlarga tavsiya etilgan dori vositalari soni 1 dan 9 tagacha yetgan. Erkaklar va ayollar, yoki turli yosh guruhlari o‘rtasida tavsiya etilgan dorilarning o‘rtacha sonida sezilarli farq yo‘q ammo tumanlar o‘rtasida juda sezilarli farqlar ko‘zga tashlangan. Masalan, Yozyovon har bir retsept bo‘yicha 3,5 dona dori bilan eng yuqori o‘rinda bo‘lsa, uchta yoki undan ortiq dori-darmonlar yozish Beshariqda 55 foizga, Quvada 40 foizga buyurilgan [9].

Respublika hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida respublika davolash profilaktika muassasalari dari-darmon va tibbiy mahsulotlar bilan formulyar tizimi asosida ta’minlashga o‘tkazildi. Hayotiy zarur dori-darmonlar ro‘yxati har yili qayta ko‘rib chiqilib takomillashtirilishi yo‘lga qo‘yildi. Sog‘liqni saqlash vazirligining 2001 - yilda 234-sonli buyrug‘i chiqarilib, unda davolash profilaktika muassasalari dori-darmonlarni hayotiy zarur dori-darmonlar ro‘yxatidan kelib chiqqan holda xarid qilish lozimligi ko‘rsatib o‘tildi Bu paytga kelib «Dori-Darmon» davlat unitar korxonasi respublikaga bunday vositalarni yetkazib beradigan asosiy tashkilotga aylandi.

Namangan viloyati tibbiyot tizimi uchun 2008 - yilda dori-darmon vositalari va bog‘lovchi materiallar uchun 1753,8 million so‘m yoki umumiy budjetdan ajratilgan mablag‘ning 2,9 foizi yo‘naltirildi. Viloyat bo‘yicha 1 - o‘rin-kunga dori-darmon uchun 537 so‘mni tashkil etgani holda Namangan shahar tibbiyot bo‘limida 132 so‘mni, Pop tumani tibbiyot bo‘limida 136 so‘mni va Kosonsoy tumani tibbiyot bo‘limida 139 so‘mni tashkil qilgan. Respublikada bu ko‘rsatkich 1 ming 249 so‘mga to‘g‘ri kelgan [10].

Shu yillarda aholining yuqumli kasalliklar, jumladan, sil, gepatit kabi og‘ir turdagi va boshqa xastaliklarga chalinishining umumiy darajasi ancha pasaydi. Bunday natijalarga erishishda shifokorlar va tibbiyot xodimlarining mehnatini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish, ularning kasb tayyorgarligi darajasini oshirish, mamlakatimiz farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim omil bo‘lmoqda. Birgina 2010 - yilning o‘zida 32 nomdagi yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi va bu o‘tgan yilga qaraganda 23 foizga ko‘pdir [3].

2013 - yil holatiga ehtiyojga nisbatan respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg‘ona filiali tarkibidagi tez tibbiy yordami brigadalarining dori-darmon bilan ta’minoti 11 foizni tashkil etdi. Tez tibbiy yordam brigadalari bir martalik shpris va skarifikatorlar, narkotik, psixotrop dori vositalari hamda spirt va paxta bilan to‘liq ta’minlangan. Farg‘ona shahpi bo‘yicha 1 ta chaqiruvga sarflangan mablag‘ 187 so‘m 15 tiyinni tashkil qilgan [11].

Vodiy viloyatlarida keyingi yillarda farmasevtika sohasidagi islohotlar ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatida tashkil etilgan saylovchilar vakillari bilan uchrashuvda sog‘liqni saqlash tizimidagi muammolarga alohida to‘xtaldi. Xususan, Farmasevtika sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab berdi. Misol uchun, 2016-2018 yillarda Namangan viloyatida «Merrimed Farm» qo‘shma korxonasida qiymati 10 million dollar bo‘lgan loyiha amalga oshirilib, yiliga 20 million flakon antibiotiklar va infuziya eritmalari ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilishi rejalashtirildi. Shuningdek, «Namangan Farm planet» korxonasi tomonidan 6,3 million ampula dori vositadari ishlab chiqarilishi belgilandi [1]. Bu ishlar amalga oshirilsa, viloyat dorixonalari kelajakda arzon va sifatli dorilar bilan ta’minlanadi. Import dori vositalari o‘rnini mahalliy milliy mahsulotlar egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 - yil 22 - dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasida farmasevtika sohasidagi islohotlar haqida to‘xtalib, «Hech kimga sir emas, aholini dori-darmon bilan ta’minlash odamlarni qiynayotgan dolzarb muammolardan biridir. Bu masalani hal etish maqsadida yaqin vaqt ichida aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlaydigan 2 mingta ijtimoiy dorixona qurilib, ishga tushiriladi» [2] deya ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 7 - noyabrdagi «Farmasevtika tarmog‘ini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonidan so‘ng Sog‘liqni saqlash vazirligi hududida farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamda uning hududiy boshqarmalari tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifalari etib, aholi va davlat sog‘liqni saqlash muassasalarini dori vositalari, tibbiyot buyumlari va texnikalari, shu jumladan, respublikada ishlab chiqarilgan preparatlar bilan ta’minlash, ichki bozorni yanada to‘ldirish belgilandi. Farmonga asosan Andijon viloyati komissiyasidan chakana savdo qiluvchi 730 ta dorixona ro‘yxatdan o‘tib, faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 30 dan ortiq ulgurji savdo dorixonalari ish boshladi.

Viloyatdagi tibbiyot muassasalari qoshida jami 187 ta ijtimoiy dorixona tashkil etildi. «Andijon dori-darmon» aksiyadorlik jamiyatiga qarashli 12 ta dorixona ijtimoiy dorixonaga aylantirildi. Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlash maqsadida 11 ta maxsus jihozlangan ijtimoiy ahamiyatga ega va eng zarur dori vositalarini sotishni ta’minlaydigan «Damas» avtomashinasida ko‘chma dorixona faoliyati yo‘lga qo‘yildi [12].

Davlat rahbarining «Dori vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va ularning aylanishini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘isida»gi qaroriga ko‘ra, dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijalari O‘zbekistonda tan olinadigan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar ro‘yxati tasdiqlandi. Bu ham aholini sifatli dori vositalari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. E’tiborlisi, davlat tibbiyot tashkilotlariga dori vositalari va tibbiy buyumlar sotib olish uchun 2018 - yilda 914,6 milliard so‘m, ya’ni o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 2,5 barobar ko‘p mablag‘ yo‘naltirildi [13].

Namangan viloyatida olib borilgan ishlar natijasida farmasevtika tarmog‘ida keskin o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2018 - yilgacha Namangan viloyatida 5 ta farmasevtika sanoati korxonalari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2020 - yilga kelib, viloyatda farmasevtika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni 78 taga yetgan. Misol uchun 7 ta ishlab chiqaruvchi «Merrimed farm» MChJ, «Kamol med farm» MChJ, «Med diagnoz farm» MChJ, «Namangan farm Plant» MChJ, «Qadr to‘qimachi», «Ax-medikal» O‘zbek-Xitoy QK, «Musaffo Iqlim Kelajak» MChJ, 1 ta dorivor o‘simlik xom ashyosini qadoqlovchi «Mo‘minjon» xususiy korxonasi, 5 ta nosteril dori turlarini tayyorlash bo‘yicha, 67 ta ulgurji sotish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar shular jumlasidandir.

Viloyatdagi farmasevtika ishlab chiqarish korxonalari tomonidan 2019 - yilning yanvar-noyabr oylarida 230 milliard so‘mdan ortiqroq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi [14]. Mazkur davrda «Namangan Farm Plant» mas’ulyati cheklangan jamiyati tomonidan umumiy qiymati 6,3 million AQSh dollariga teng bo‘lgan, yillik quvvati 170 million dona o‘ramda turli xildagi ampula ko‘rinishidagi in’eksion eritmalar

ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. Natijada 96 ta yangi ish o‘rinlari yaratilib, yillik quvvati 25 million dona o‘ramda mahsulot ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi.

«Merrymed Farm» mas’ulyati cheklangan jamiyati tomonidan umumiy qiymati 10 million AQSh dollariga teng bo‘lgan turli xildagi plastik va shishaga qadoqlangan infuzion eritmalarni ishlab chiqarish loyihasi yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Ushbu loyiha ishga tushirilishi natijasida 50 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Loyiha asosida yillik quvvati 38.4 million dona o‘ramda turli xildagi plastik shishaga qadoqlangan infuzion eritmalari tayyorlanmoqda.

«Ax-medikal» O‘zbek-Xitoy QK tomonidan qiymati 2 million 300 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan bir martalik shprislar va ginekologik ko‘zgular ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Loyihani yillik ishlab chiqarish quvvati shpris 100 million dona va 300 ming dona ginekologik ko‘zgu ishlab chiqariladi. 90 nafar ishchi o‘rni yaratiladi.

Tahlil va natijalar. 2019 - yilning 13-14 sentabr kunlari Namanganda bo‘lib o‘tgan xalqaro tibbiyot va farmasevtika forumida umumiy qiymati 92,7 million dollarlik 22 ta kelishuv imzolandi. Bitimlar Avstriya, Germaniya, Isroil, Misr, Pokiston, Rossiya, Slovakiya, Ukraina, Hindiston va Xitoy kompaniyalari bilan tuzilgan. Jumladan, «Kosonsoy farm» erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yurituvchi «Spring farmasevtik» MChJ hamda Misrning «Pharco pharmaceuticals corporation» kompaniyasi hamkorligida farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha 30 million, viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi hamda Avstriyaning AME International GmbH kompaniyasi o‘rtasida kardiologiya markazini barpo etish uchun 10 million, «Merrymed Farm» MChJ bilan Germaniyaning Textima Export Import kompaniyasi o‘rtasida ko‘p tarmoqli tibbiy markaz tashkil etish yuzasidan 30 million dollarlik kelishuvlarga erishilgan [15].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, viloyatda 2020 - yil davomida «Firdavs Farm Savdo» MChJ tomonidan qiymati 2400,0 million so‘mlik tibbiyotda ishlatiladigan vositalar (2 xil turda nakonechnik dozatora va kroneprobka D-20, D-30) ishlab chiqarish, «Jo‘rabek ota» XK qiymati 2,8 milliard so‘mlik Surtma dori vositalari, tabletkalar ishlab chiqarishni hamda dorivor o‘simliklarni qadoqlashni tashkil etish, «Salomatlik diyor kelajak sari» MChJ Tabletka, ampula, va kapsula shaklidagi tayyor dori vositalari ishlab rish, «Korean maru» MChJ qiymati 5000,0 million so‘mni tashkil etadigan yiliga 20 tonna dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish kabi loyihalarini ishga tushirish rejalashtirilgan [14].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, farmasevtika sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar qatorida aholini dori-darmonlarga bo‘lgan ehtiyojlari ham ortib bormoqda. O‘z o‘rnida fuqarolarni dori mahsulotlari bilan ta’minlash borasidagi vazifalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Albatta tadqiqot davrida mamlakat, xususan, vodiy viloyatlarida farmasevtika sanoati ham izchil rivojlanib, arzon va sifatli dori vositalarini kafolatlangan tarzda yetkazib berish, ularga narx belgilashning ta’sirchan shakllari ishlab chiqildi. Dori-darmon yo‘nalishida ko‘plab yutuqlar qo‘lga kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, hali sohada yechimini kutayotgan muammolar ham talaygina. Bu esa soha vakillariga yanada ko‘proq vazifalarni yuklaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
3. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. –B. 114.
4. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, M-372-fond, 1-ro‘yxat,164-yig‘ma jild.
5. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 1220-fond, 1-ro‘yxat, 60-yig‘majild, 23-varaq. 1220-fond, 2-ro‘yxat, 6-yig‘majild, 28-varaq
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyati bo‘limi, 4141-fond, 11-ro‘yxat, 81-jig‘ma jild, 12-varaq
7. Jo‘raev N., Fayzullaev T. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. -B 237.
8. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri). – Toshkent: «O‘qituvchi», 2006. -B.181.
9. Melinda Pavin, Talgat Nurgozhin, Grace Hafner, FarruhYusufy and Richard Laing. Prescribing practices of rural primary health care physicians in Uzbekistan. Tropical Medicine and International Health. volume 8. february 2003.
10. Namangan viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma’lumotlari.
11. Farg‘ona viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma’lumotlari.
12. Andijonnoma 2018 yil 17 may
13. Xalq so‘zi 2018 yil 9 noyabr, №232 (7190)
14. https://telegra.ph/yil-yakunlari-12-26-5
15. https://telegra.ph/Yangiliklar-09-15

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:193.4(575.1)

Qaxramon ALMANOV,
Guliston davlat universiteti dotsenti
E-mail: almanov20111988@gmail.com

O‘z FA MAM katta ilmiy xodimi, t.f.d. G‘.Boboyorov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE “BAHRIN” CLAN IN THE PAST ETHNOCULTURAL PROCESSES IN THE JIZZAKH OASIS

Annotation

In this article, the information related to the issue of the Bahrainis who lived in the Jizzakh oasis, as well as statistical information about other Uzbek clans who lived in the oasis in the beginning of the 20th century and their number, are analyzed in the article by comparing them with different historical periods.

Key words: Bahrin clan, "Yuz", "Qirq", "Toyokli", "Kangli" and "Nayman" clans, "Turk" clan, 1924, Bukhara Emirate, Dashti Kipchak, Timurid era, T.Nafasov, A.Malikov.

РОЛЬ РОДА “БАХРИН” В ПРОШЕДШИХ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ В ДЖИЗАКСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация

В статье анализируются сведения, касающиеся вопроса о бахрейнцах, проживавших в Джизакском оазисе, а также статистические сведения о других узбекских родах, проживавших в оазисе в начале XX века, и их численности. сравнивая их с разными историческими периодами.

Ключевые слова: Род Бахрин, «Юз», «Кырк», «Тойокли», «Кангли» и «Найман», род «Тюрк», 1924 г., Бухарский эмират, Дашти Кыпчак, эпоха Тимуридов, Т.Нафасов, А.Маликов.

JIZZAX VOHASIDA KECHGAN ETNOMADANIY JARAYONLARDA “BAHRIN” URUG‘INING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jizzax vohasida yashagan bahrinlar masalasi bilan bog‘liq ma’lumotlar, shuningdek, XX asr boshlarida vohada yashagan boshqa o‘zbek urug‘lari va ularning soni to‘g‘risida statistik ma’lumotlar turli tarixiy davrlar bilan solishtirib maqolada tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Bahrin urug‘i, “yuz”, “qirq”, “to‘yoqli”, “qangli” va “nayman” urug‘lari, “turk” urug‘i, 1924 yil, Buxoro amirligi, Dashti Qipchoq, Temuriylar davri, T.Nafasov, A.Malikov.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra Samarqand volostining Jizzax uyezdida yashovchi o‘nlab o‘zbek urug‘larining nomi va soni qayd etilar ekan, ular orasida “bahrin” deb ataladigan, soni 2 000 kishidan iborat aholi ham keltirib o‘tiladi. Hozirgi kunda Jizzax vohasi mahalliy aholisi orasida deyarli unutilib ketgan ushbu etnonim bilan bog‘liq aholi maskanlari yurtimizning bir qator viloyatlarida uchrab, ayrim hududlarda o‘zlarini o‘zbeklarning bahrin urug‘iga mansub hisoblovchi yoki ota-bobolari bahrinlardan bo‘lgani eslaydigan aholi vakillari ham duch kelinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jizzax vohasida yashagan bahrinlar masalasi bilan bog‘liq ma’lumotlarga to‘xtalishdan oldin XX asr boshlarida vohada yashagan boshqa o‘zbek urug‘lari va ularning soniga to‘xtalib o‘tsak. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra Jizzax uyezdidagi o‘zbek urug‘lari ichida eng yiriklari 5 ta yirik o‘zbek urug‘i - “yuz”, “qirq”, “to‘yoqli”, “qang‘li” va “nayman” urug‘lari bo‘lib, yuzlar – 15 400 kishi, qirqlar – 10 000 kishi, to‘yoqlilar – 8 300 kishi, qang‘lilar – 7 700 kishi, naymanlar esa 6 900 kishini tashkil etgan. Shuningdek, ushbu uyezdda son jihatdan birmuncha ko‘p bo‘lgan o‘zbek urug‘lari sifatida turkmanlar – 5 800, barloslar – 4 000 kishi, jaloyirlar – 3 400 kishi deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, soni o‘rtacha bo‘lgan o‘zbek urug‘lari orasida mang‘itlar – 2 600 kishi, saroylar – 1 700 kishi, nisbatan kam sonli o‘zbek urug‘lari sifatida esa qipchoqlar – 800 kishi, qo‘ng‘irotlar – 600 kishi, kerayitlar – 600 kishi, mitanlar – 600 kishi, mo‘g‘ollar – 400 kishi, burqutlar – 300 kishi o‘laroq berilgan[1]. Demak, bahrinlar Jizzax uyezdida kam sonli aholi bo‘lmagan. Ayniqsa, bugungi kunda Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlari mahalliy aholisining sezilarli bir qismini tashkil etadigan qirg‘iz xalqi vakillari XX asr boshlaridagi statistik ma’lumotlar 3 200 kishi deb keltirilishiga tayaniladigan bo‘lsa, 2 000 sonli deb ko‘rsatilgan barhinlarning Jizzax vohasida o‘ziga xos o‘rni bo‘lgani anglashiladi. Chunonchi, bugungi kunda ham o‘z nomini saqlab qolgan Jizzax mang‘itlari, saroylar va bahrinlarning soni bir-biriga ancha yaqin bo‘lgan. Hozirgi kunda Jizzax viloyatining asosan Baxmal tumanidagi Usmat qishlog‘ida, shuningdek, Zomin tumanida birmuncha ko‘pchilikni tashkil etuvchi, qisman esa Forish tumanida ham o‘z qishloqlariga ega o‘zbeklarning “turk” urug‘i (barlos, kaltatoy va h.k.) XX asr boshlaridagi statistik ma’lumotlarda 4 000 deb ko‘rsatilganidan kelib chiqadigan bo‘lsak[2], Jizzaxlik bahrin urug‘i vakillari o‘sha kezlardayoq son jihatdan ularning yarmicha bir miqdorni tashkil etgani anglashiladi. Qizig‘i shundaki, deyarli barcha yozma ma’lumotlar va etnografik materiallarda Samarqand viloyatida ko‘p sonli o‘zbek urug‘i sifatida tilga olingan bahrin urug‘i vakillarining yuqorida eslatilgan statistik ma’lumotlarda “Samarqand uyezdida 700 kishi” deb ko‘rsatilgan bo‘lib, ular Jizzax bahrinlarining deyarli uchdan birini tashkil etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob’ektivlik, davriy-muammoviy va retreospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo‘yicha qo‘lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko‘pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda Jizzax vohasida yashagan bahrinlar masalasi bilan bog‘liq ma’lumotlar, shuningdek, XX asr boshlarida

vohada yashagan boshqa o‘zbek urug‘lari va ularning soni to‘g‘risida statistik ma’lumotlar turli tarixiy davrlar bilan solishtirib maqolada tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. XX asr boshlaridagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro tumanida 225 kishi, G‘ijduvon tumanida 1 392 kishi, Karmana tumanida 2 210 kishi, Zarafshon viloyatida 3 827 kishi, Konimex tumanida 95 kishi bahrin urug‘i vakili sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ushbu ro‘yxatlarda Nurotadagi bahrinlar tilga olinmagan[3]. Bundan tashqari, ushbu ro‘yxatda Samarqand viloyatining janubiy tumanlarida, shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi bahrinlar ushbu statistika ichida qayd etilmagan. Bular qatoriga Farg‘ona vodiysi bahrinlarini ham kiritish mumkin.

1924 - yilgi statistik ma’lumotlarda O‘zbekistondagi bahrin urug‘i vakillarining soni 9 000 atrofida deb ko‘rsatilishini e’tiborga oladigan bo‘lsak[4], Jizzax bahrinlari ularning deyarli choragini tashkil etgan bo‘lib chiqadi. Bu esa katta ko‘rsatkich bo‘lib, ushbu urug‘ vakillarining Jizzax vohasidagi salmog‘i ancha yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Albatta, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida to‘plangan statistik ma’lumotlar haqiqiy raqamlarni to‘laqonli aks ettirmaydi, biroq umuman olganda, o‘sha davrda mintaqada yashaydigan xalqlar va ularning tarkibidagi urug‘lar bo‘yicha muayyan tasavvurlar berishi bilan ahamiyatlidir. Boshqa volos va uyezdlarda bo‘lganidek, o‘sha kezlardagi ma’lumotlarda ayrim qishloqlar aholisining soni to‘laqonli aks etmagan bo‘lishi, ayrim qishloqlarda aholi o‘zining urug‘ mansubligini aytmagan yoki urug‘ mansubligini ifodalamagan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, keltirilgan statistik ma’lumotlar XX asr boshlarida mintaqadagi aholining etnik tarkibi va milliy mansubligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblash mumkin.

Bahrinlar Buxoro amirligidagi aholi orasida ham son jihatdan ko‘p, ham amirlik siyosiy hayotida katta nufuzga ega o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lgan. Buxoro amirlari Zarafshon vohasida nisbatan nufuzli bo‘lgan burqut, nayman, bahrin urug‘lariga ham bir muncha imtiyozlar bergan bo‘lib[5], bu ushbu urug‘lar vakillarining amirlik saroyida yuqori mansablarga tayinlanishida ham o‘z ifodasini topgan. Boshqa bir qator o‘zbek urug‘lari bilan birga, har uchala urug‘ vakillari yangi xon (amir)larning taxtga o‘tirish marosimida qatnashish huquqiga ega bo‘lishgan. Buxoro shahrining bir qator mahalalarida yashovchi aholining sezilarli bir qismi o‘zlarining kelib chiqishini o‘zbek urug‘lari bog‘lagan bo‘lib, ular orasida mang‘it (8 ta mahallada), urganji (4 ta mahallada), kenagas (3 ta mahallada), bahrin, batosh, chuyut, nayman, uch-urug‘, o‘zbek-turkman, qalmoq, burqut, qirq-yuz singari urug‘lar yoki aholi guruhlari yashaganlar[6].

Chingizxon va uning o‘g‘illari boshqaruvi davridayoq nufuzli urug‘ sifatida bilingan “baarin” (bahrin)lar Mo‘g‘ulistondan Markaziy Osiyoning ichki hududlariga ko‘chib kelgan ko‘plab turk-mo‘g‘ular urug‘laridan biri sifatida keyingi asrlardagi siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda faol qatnashganlar. Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, bahrin urug‘i mo‘g‘ullarning afsonaviy ajdodi Bo‘do‘nchardan tarqalgan urug‘lar orasida eng katta tarmoq bo‘lib, Bo‘do‘ncharning to‘ng‘ich o‘g‘li Baaridayning avlodidir[7]. Shu tariqa, eski turk-mo‘g‘ul an’anasiga Baariday nomidan “baarin” etnonimi kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi.

Dashti Qipchoqdagi Oltin O‘rda (1224-1459) va uning izdoshi bo‘lgan bir qator turk-mo‘g‘ul xonliklari davrida, jumladan, Qozon xonligi (1438-1552), Qrim xonligi (1443-1783), Astraxan (Ashtarxon) xonligi (1460-1556), Abulxayr o‘rdasi (O’zbek ulusi – 1428-1468), No‘g‘oy O‘rdasi (XV – XVII asrlar), Sibir xonligi (1468-1598) va Qozoq xonliklari (1465-1847) va hokazolarning ko‘chmanchi urug‘laridan biri sifatida bilingan. To‘xtamishxon () boshqaruvi chog‘ida qo‘ng‘irot – bahrin ittifoqchi beklari Oltin O‘rdada katta obro‘ga ega bo‘lganliklari[8] buning yaqqol dalilidir.

Temuriylar davrida, xususan, Mirzo Ulug‘bekning Mo‘g‘uliston (Ettisuv – Sharqiy Turkiston)ga yurishlari chog‘ida “El-barin” urug‘i vakillari tilga olingan. Temuriy hukdmorlardan yana biri Umarshayx mirzoning “ulus yigitlari”dan biri sifatida barin urug‘iga mansub To‘lun-xo‘ja haqida ma’lumotlar uchrab, Bobur boshqaruvi chog‘ida u bek martabasi erishgani eslatiladi[9].

O‘zbek ulusi (Abulxayr xonligi – 1428-1468) davrida Dashti Qipchoq o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lgan bahrinlar uning avlodlari boshqaruvida ham o‘ziga xos o‘rin egallaydilar. Abulxayrxoning nevarasi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) boshqaruvi davrida uning qo‘shinida xizmat qilgan 30 dan ortiq o‘zbek urug‘idan biri sifatida bahrinlar ham tilga olinadi[10].

Buxoro amirligi, xususan, Mang‘itlar sulolasi davrida imtiyozli o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lgan bahrin urug‘i vakillari amirlik poytaxtiga yaqin hududlarda – Buxoro tumanlari, Karmana va Zarafshon vodiysining markaziy va quyi oqimlarida o‘zlarining o‘nlab qishloqlariga asos solishgan. Jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga tegishli amirlik Qushbegi hujjatlarida Bahrin, Bahrincha, Bahrin-i bolo (Yuqori Bahrin), Bahrin-i poyon (Quyi Bahrin) kabi qishloqlar uchrab, Buxoro viloyatidagi Somjon, Qorako‘l, Komot va Xayrobod tumanlarida, shuningdek, Xatirchi, Karmana, Ziyovuddin bekliklaridagi bir necha amlokliklarda ushbu etnonim bilan bog‘liq qishloqlar qayd etilgan[11]. Bundan tashqari, ushbu hujjatlarda Tama-Bahrin nomli qishloq Xatirchi bekligi (viloyati)ning Ko‘ksaroy nomli amlokligiga qarashli aholi maskani sifatida tilga olingan[12].

XX asrda Bahrin nomli qishloqlar O‘zbekistonning bir qator viloyatlarida qayd etilgan bo‘lib, ularning sezilarli bir qismi Farg‘ona vodiysiga to‘g‘ri kelsa, sezilarli bir qismi esa Samarqand viloyatidagi aholi maskanlaridir. Xususan, Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik tumanida, Andijon viloyatining Asaka, Samarqand viloyatining esa Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Paxtachi, Urgut tumanlarida Bahrin nomli qishloqlar saqlanib qolgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida ham shu nomdagi qishloq bor[13]. Bundan tashqari, Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahrida Bahrin nomli mahalla uchrasa, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida Tama-Bahrin qishlog‘i qayd etilgan.

Tadqiqotchilar yozishicha, XVIII – XIX asrlarda bahrin urug‘i vakillarining katta bir qismi Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi (Marg‘ilon atroflarida) va Zarafshon vodiysida o‘troqlashib ketadilar[14].

Bahrinlar bir qator turk-mo‘g‘ul urug‘lari bilan ittifoqchi urug‘ sifatida ham bilingan. Ayniqsa, ular o‘zbek va qozoq urug‘lari orasida “tama”, “toma” nomlari bilan tanilgan urug‘ bilan ittifoqchilik qilib, birga ko‘chib yurganliklari tufayli bo‘lsa kerak, yuqorida ham keltirib o‘tilganidek, Buxoro amirligining Xatirchi bekligida Tama-Bahrin degan qishloq paydo bo‘lgan[15]. Qizig‘i shundaki, Tama yoki Toma etnotoponimi ham Bahrin toponimi kabi respublikamizning asosan markaziy, shimoli-sharqiy va shimoli-g‘arbiy hududlarida – Xorazm, Navoiy, Jizzax vohalari hamda Farg‘ona vodiysida saqlanib qolgan. Ayniqsa, Jizzax viloyatining Jizzax tumanidagi aholi maskanlaridan biri Tomago‘zar deb atalishi diqqatga sazovordir[16].

Shuningdek, bahrinlar o‘zbeklarning bayot urug‘i bilan ham yaqin ittifoqchilikda bo‘lgan ko‘rinadi. Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida Bahrin-bayot degan qishloq uchrab, tadqiqotchilar fikricha, bu qishloq aholisi bahrin va bayot urug‘laridan tashkil topgan. Boshqa tomondan esa unga qo‘shaloq etnonim sifatida qarash va har ikkala urug‘ning birlashmasi, deb talqin qilish mumkin[17].

Bahrinlar bir qator turk-mo‘g‘ul urug‘laridan farqli o‘laroq asosan o‘zbeklar, qisman esa qirg‘izlar orasida

muayyan bir urug‘ sifatida bilingan. Markaziy Osiy va unga qo‘shni hududlardagi qozoq, qoraqalpoq, no‘g‘oy va turkmanlarda bunday etnonim uchramasligi[18] ham bu qarashimizni qo‘llab-quvvatlaydi. Garchi T.Nafasov bahrinlarni o‘zbek va qirg‘izlardan tashqari yana qozoq, qoraqalpoq va turkmanlar xalqlari tarkibiga kirgan urug‘ deb yozgan bo‘lsa-da[19], ular tarkibida bunday etnonim uchramasligi, o‘rta va so‘nggi o‘rta asrlar manbalarida ham bunga doir eslatmalarning yo‘qligi bu qarashni tasdiqlamaydi. Qirg‘izlarda baarin[20], boshqirdlarda barin-tabin[21] ko‘rinishlarida uchrashi ushbu urug‘ning Markaziy Osiyoning ayrim hududlaridagi etnomadaniy jarayonlarda faol qatnashganligi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Boshqirdlardagi barin-tabin qo‘shaloq etnonim bo‘lib, tabinlar o‘zbek va qozoq urug‘lari o‘laroq bir qator shajaralarda qayd etilgan. Qizig‘i shundaki, o‘zbek va qozoqlarda tabin, tama, ramadan, yobu (jobu) kabi urug‘lar bir-biri bilan yaqin ittifoqchi urug‘lari hisoblanib[22], yuqorida to‘xtalib o‘tilganidek, bahrinlar ham tama urug‘i bilan, ham tabin urug‘i bilan yaqin qarindoshchilikka ega edi.

Garchi, tadqiqotlarning ko‘pchiligida etarlicha to‘xtab o‘tilmagan bo‘lsa-da, bahrin urug‘i vakillari Samarqand viloyatining Pastdarg‘om, Nurobod va Urgut tumanlarida anchagina salmoqni tashkil etib, o‘zlarining bir necha qishloqlariga ega bo‘lganliklari aytib o‘tish kerak bo‘ladi. Ularning ayrimlari Baxrin etnotoponimlari bilan yuritilsa[23], ayrimlarida bu holat ko‘zga tashlanmaydi. Keyingi yillarda Zarafshon vohasi etnotoponimiyasini XVIII – XX asr boshlari kesimida izchil ravishda tadqiq etayotgan A.Malikov yaqinda chop ettirgan “Zarafshon vodiysining turkiy etnonim va etnotoponimlari (XVIII – XX asr boshlari)” nomli monografiyasida vohada 300 dan ko‘proq turkiy etnotoponimlar mavjudligini qayd etib, ularni nomma-nom keltirar ekan, bahrinlar bilan bog‘liq Qilich-bahrin, Tama-Bahrin, Bag‘anali kabi tarmoq etnonimlarni ko‘rsatib o‘tgani ham diqqatni o‘ziga tortadi[24].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, o‘zbeklarning yetakchi urug‘laridan biri bo‘lmish bahrinlar Jizzax vohasi va unga qo‘shni va nisbatan yaqin hududlarda – Nurota, Karmana, Samarqand va Buxoro vohalarida, shuningdek, Farg‘ona vodiysidagi o‘rta asrlarda yuz bergan siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda faol qatnashgani ko‘zga tashlanadi. XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi muayyan bir salmoqqa ega urug‘ bo‘lishiga qaramay, ushbu etnonim bilan bog‘liq aholi maskanlarining saqlanib qolmagani har holda bu yerda qirq va yuz urug‘larining nisbatan keng tarqalganliklari va boshqa urug‘larga nisbatan birmuncha ko‘proq nufuzga ega bo‘lganliklari bilan aloqador bo‘lsa kerak.

ADABIYOTLAR

1. Туйчиев У. Родо-племенная структура узбеков в конце XIX – начале XX вв. Реферат. – Москва, 1982. – С. 33-34.
2. Туйчиев У. Родо-племенная структура узбеков в конце XIX – начале XX вв. – С. 33.
3. Охунов Н. Жой номлари таъбири / Муҳаррир: З. Ҳакимов. – Тошкент, 1994. – Б. 8.
4. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). – М., Наука, 1976. – С. 134.
5. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). – М., Наука, 1976. – С. 134.
6. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т.: АН УзССР, 1958. – С. 79; Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 105, 126, 152, 160, 163, 166, 224
7. Қораев С. География номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 35.
8. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды./ Отв. ред. М. А. Усманов. 2-е изд., испр. и доп. – Казань: Издательский дом Казанская недвижимость, 2016. – С. 57-58.
9. Султанов Т. И. Кочевые племена Приаралья в XV – XVII вв. – М.: Наука, 1982. – С. 11.
10. Султанов Т. И. Кочевые племена Приаралья в XV – XVII вв. – С. 9.
11. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Ташкент: Университет, 2001. – С. 29-30.
12. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. – С. 123.
13. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Б. 8; Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 54-55.
14. Қораев С. География номлар маъноси. – Б. 35.
15. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. – С. 123.
16. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Б. 49.
17. Қораев С. География номлар маъноси. – Б. 35-36.
18. Атаниязов С. Этнонимы в туркменском языке. – Ашгабат: Ылым, 1994. – С. 98-133; Жданко Т.Ж. Очерки исторической этнографии каракалпаков. – М-Л.: АН СССР, 1950; Алпысбес М. Шежире казахов: источнике и традиции. – Астана, 2013; Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. – С. 485-495.
19. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 55.
20. Каратаев О. Кыргыз этнонимдер сөздүгү. – Бишкек, 2003. – С. 28-29.
21. Кузеев Р. Г. Происхождение башкирского народа. – М., 1974. – С. 255, 268.
22. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. – С. 37, 160-162.
23. Қораев С. География номлар маъноси. – Б. 35; Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Б. 8.
24. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана... – С. 144-184.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:984.128(755.19)

Xurshid JUMANAZAROV,
Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi
E-mail: xurshid_87@mail.ru

O‘zMU universiteti dotsenti, t.f.n. A.Qayumov taqrizi asosida

O‘ZBEKLARNING TIBBIY AN’ANALARIDA TABIBLARNI TAYYORLASH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbeklarning milliy tib tizimida tabiblik kasbini egallash sirlari va usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ustoz-shogirdlik munosabatlari, tabiblarni tahsilni tamonlagach imtihon qilinishi va kasb sirlarini otadan bolaga o‘tishi bilan bog‘liq jarayonlar o‘rganilgan. Muallif tabiblik kasbini ijtimoiy hayotdagi ahamiyati hamda tibbiy an’analarni saqlashda tutgan o‘rni kabi masalalarni tahlilga tortgan.

Kalit so‘zlar: Tabib, sulola, ustoz-shogird, Moshtabib, kasbiy imtihon, madrasa, mustamlaka tizimi.

МЕТОДЫ ПОДГОТОВКА ЛЕКАРЕЙ В МЕДИЦИНСКОМ ТРАДИЦИИ УЗБЕКОВ

Аннотация

Эта статья посвящается тайном и методам который присваивает лекари в узбекской национальной медицинской системе, исследовано процессы связанной отношения учителя и ученика, экзамен лекарей после окончание изучение, тайны переходящий от отцов к сыну. Автор анализировал социальной значение лекаря и место его в сохранение традиции.

Ключевые слова: Лекар, династия, учитель-ученик, маштабиб, профессиональный экзамен, медресе, колониальная система.

THE METHODS OF PREPARING DOCTORS IN UZBEK MEDICAL TRADITIONS

Annotation

This article is devoted to the secret and methods that the healers assign in the Uzbek national medical system, the processes of the connected relationship between the teacher and the student, the examination of the doctors after the end of the study, the secrets passing from father to son are investigated. The author analyzed the social significance of the healer and his place in the preservation of tradition.

Key words: Doctor, dynasty, teacher-student, mashtabib, professional exam, madrasah, colonial system.

Kirish. Tib tarixiga nazar solinsa tabiblar kasb sirlarini ikki usul orqali o‘rganishgan yoki tib vakillari ikki yo‘l bilan tayyorlangan. Birinchisi, ota kasbi- ya’ni oilada ota yoki ona shu kasb bilan shug‘ullangan va o‘z bilimi va tabiblik sirlarini farzandlariga o‘rgatishi natijasida sulolaviy tabiblar paydo bo‘lgan.

Tabib ma’lum kasallikni davolash va dorivorlarni yakka yoki boshqalar bilan hamohang ishlatishda yuzaga keladigan xususiyatlarini bilish uchun oylab, hatto yillab mutolaa qilgan, turli tajribalar olib borgan. Shu sababli, ba’zida o‘zlari qiyinchilik bilan erishgan yutuqlarini boshqalarga o‘rgatishni yoki kasb sirini oshkor qilishni xohlamagan. Natijada, tabiblar ilm va tajribani otadan o‘g‘ilga yoki yaqin qarindoshiga meros bo‘lib o‘tish an’anasi shakllangan. Jumladan, “1819-20 yillarda Turkmeniya va Xivaga sayohat” nomli esdalikda tabiblik nasldan-naslga o‘tadigan kasb ekanligi va ular davolashda zarur bo‘lgan juda ko‘plab shifobaxsh giyohlarni bilishi qayd etilgan[22]. Odatda, har bir tabibning umumiylikdan tashqari alohida davolash usuli mavjud bo‘lgan. Ikki tabib bir xil kasalni umumiy tibbiy ilmlar asosida muolaja qilsada, davolash jarayonida faqatgina o‘zlariga ma’lum bo‘lgan usullarni, dorilarni ham qo‘llagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbeklarning tibbiy an’analarida tabiblik kasbini egallash va unga xos sinovlar haqida zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” ma’lumotlar keltirilganini uchratamiz. Unda tabiblar kasb sirlarini o‘rgangandan so‘ng uch marta imtihon qilinishi va unda muvafaqqiyat qozonganlar sohani egasi bo‘lishi qayd etiladi. Shuningdek, “Asrlar oshgan tabobat” asarida tabiblik kasbini asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgani hamda bu sirlarni oila ichida saqlanishi borasidagi ma’lumotlar qayd etilgan. Bundan tashqari o‘lkaga kelgan sayyohlar, harbiylar hamda soha vakillarining tibga oid asarlar, turli xotiralar, vaqtli matbuot sahifalarida ham tabiblik kasbini egallash usullari va tartibi borasida ma’lumotlar berilgan. O‘z o‘rniga qayd etish joizki ushbu asarlarda keltirilgan ma’lumotlar ko‘proq tavsifiy xarakterda bo‘lib, masalaning umumiy jihatlari haqida tasavvur hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiy manbalar o‘rganildi hamda etnografik dala materiallari tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy tizimlilik, xronologik yondashuv hamda analiz va sentez usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tib ilmida kasb sirlarini otadan farzandga o‘tish an’anasi XIX asrda ham saqlanib qolgan. To‘g‘ri bu davrga kelib bu yo‘nalishdagi ta’lim asosan boshlang‘ich bilimlardan iborat bo‘lsada, bu o‘quv kursi bo‘lajak tabibga keyingi ta’lim bosqichlarini o‘zlashtirishiga zamin tayyorlangan. O‘sha davrda Xivada yashagan Ahmad Tabibiy kasb sirlarini avvalo otasidan va o‘sha davrning mashhur tabibi Yaxshimurodbekdan o‘rgangan hamda xalq orasida obro‘ qozonib, Muhammad Raximxon II (1864 − 1910) saroyida tabiblik qilgan. Toshkentlik tabib Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy o‘z xotiralarida “otam yetti yoshlik vaqtimdan boshlab tibga oid kitoblarni o‘qitish bilan tarbiya qilgan edilar”[11], deb qayd etadi. Farg‘onalik Mahmud Yayponiy ham tib sirlarini avval otasidan, keyinchalik mashhur tabib Boqiyxon ustozligi ostida o‘rgangan[10]. U

o‘rmon va tog‘lardan, dorivor o‘simliklarni yig‘ib kelib, ularni hayvonlarda (qo‘zichoq va maymunlarda) sinab ko‘rgan. So‘ng ulardan qaynatmalar, tomchi dorilar, surtmalar, habdorilar, kukun dorilar tayyorlab kasallarga bergan[15]. Yoki Hamza Hakimzoda Niyoziyning otasi Hakimcha tabib(1836-1920) ham vodiyda mashhur qo‘li yengil tabiblardan edi. Hamza ham otasidan o‘rgangan davolash usullari hamda dorilarni qo‘llay olgan. Jumladan, Hamza bir muddat turkistonlik Saidnosir Mirjalilov xonadonida istiqomat qilganida turli kasalliklarni davolagani va o‘zi bilan bir qancha dorilarni olib yurgani xotiralarda qayd etilgan[23]. Hamza doimo ushbu dorilarni va tib ilmi tajribasini otasidan qolgan meros sifatida saqlagani hamda kerakli vaqtda unumli foydalangan. Shuningdek, Shahrisabzning Qozi guzarida Mamatmurod tabib (1882-1920) faoliyat yuritgan va farzandi Eshonqulini 20 yoshidayoq elga taniqli hakim qilib tarbiyalagan. Abdurauf Fitratning aytishicha, Buxoroning bosh tabibining otasi katta hakim bo‘lgan va u o‘z otasidan hamda undan qolgan ulkan tibbiy merosni o‘zlashtirishi orqali tabib bo‘lib yetishgan[3]. Shuningdek, XX asr boshida yashagan Zokirjon Furqatning ayoli Ra’no xonim o‘z otasidan tib sirlarini o‘rganib, Furqat bilan birga aholini kasalliklardan davolash ishlariga yordam berganligi ma’lum[5]. Bundan ko‘rinadiki, oilada tabiblik ilmining asosan boshlang‘ich ta’lim shakli ko‘proq o‘rgatilgan. Qolgan tajribalar va amaliy ko‘nikmalar keyingi ta’lim shaklida yoki bevosita faoliyat davomida shakllanib borgan. Tabiblar orasida har bir hakimning o‘z davo usuli va dorisi bo‘lgan. Bu narsa qattiq sir saqlangan hamda tabibning zimmasida sulola miqyosida kelajak avlodga yetkazish vazifasi turgan. Bu an’anani XIX-asr oxiri va XX asr boshlarida ham amalda saqlanib qolishi esa tabiblik kasbi ko‘proq sulolaviy xarakterda davom etganini ko‘rsatadi.

Tabiblarni tayyorlash an’analarining asrlar davomida saqlanib, o‘ziga xos urf-odatlari hamda marosimlarining paydo bo‘lishi zamirida kasbning jamiyat uchun zarurligi, xalqning kelajagini ta'minlovchi shaxslar sifatidagi faoliyatiga bog‘liq edi. Hatto manbalarda tabiblarning o‘rni haqida, “agar bir shaharda, iymon, islom-musulmonchilikni o‘qitib bildiradurg‘on ulamo bo‘lmasa va issiq, sovuqni ayirib, og‘riq, kasalni ajratib turadurg‘on hukamo bo‘lmasa, shariatimiz buyrug‘i bo‘yicha undoq shaharda hech bir musulmon odamning turishi durust bo‘lmaydur”[7], deyilgan. Demak, shaharning taraqqiyoti va aholining bu yerda farovon turmush kechirishi ilm vakillari bilan birga salomatlikni asrovchi tabiblarning faoliyati birlamchi ahamiyat kasb etgan. Yoki haqiqiy tabib bo‘lishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar sifatida “tibning amaliy jihati ham bordirki, tabib bilmog‘i kerak: sog‘liqni saqlash uchun har bir shaxsga kerak buladigan narsalar, bemorlik tufayli og‘riqni sezish va bunda har bir kishi uchun nima qilish kerakligi haqida va har narsadan qancha miqdorda qachon va qanday ishga solishligi lozimligi - shundagina tib ilmining maqsudi qo‘lga kiritiladi va basharti tabib bularni barchasini bilib olgan bo‘lsa uning murodi hosil bo‘ladi[13], degan fikr ta’kidlangan.

Biz yuqorida tib ilmi asosan sulola doirasida davom etishini qayd etdik. Nega tabibning farzandi doimo boshqalarga nisbatan u kasbga layoqatli ko‘rinadi va sulola ishini davom ettirish uchun kamdan-kam hollarda tashqaridan shogird yollanadi? Chunki, tib an’analariga ko‘ra tabibning farzandi yoshligidan ota kasbi bilan yaqindan tanishib, otasiga turli muolajalarda yordam bergan, bemorlarga tashxis qo‘yish, umumiy davolash usullarini o‘rgangan. Shuningdek, dori tayyorlash, giyohlarni yig‘ish tajribasini ham o‘zlashtirgan. Xalq orasida tabiblik “suyak-suradi”, ya’ni ilohiy ravishda bir urug‘ yoki nasl davomchilariga o‘tib boradi degan qarash bo‘lgan va shu asosda ko‘pincha tabibning farzandlari ham shu hunarga “qo‘li kelishadigan” odamlar sifatida ulug‘langan. Ajdodlari tabib bo‘lgan kishilar tabobatga jiddiy qiziqishmasada, ulardagi tabiblik uquvi shogird tushib o‘rganganlarga qaraganda balandroq bo‘lishiga ishonch mavjud edi. Kasb sirlarini farzandlarga o‘rgatilishi natijasida tabib sulolalari paydo bo‘lgan. Ana shunday sulolalardan biri toshkentlik mashhur “Moshtabib”lar bo‘lib, ularning faoliyati haqidagi Amir Temur davri manbalarida ham ma’lumotlar mavjud. Hatto, Moshtabiblarning ajdodi Temuriylar sulolasidan ilgari ham faoliyat yuritgani va Chig‘atoy ulusi davrida davlat, jamiyat orasida “Xo‘ja xon tabib” nomi bilan mashhur bo‘lganligi qayd qilingan[2]. Moshtabiblar kasbiy sirlarini o‘z farzandlariga o‘rgatishi, tib an’analarning davom etishi o‘lkaga tibbiyot yutuqlari joriy qilinganda ham saqlanib qolgan.

Tabiblik sirlari oila davrasida to‘la o‘rganilgandan so‘ng unga mustaqil ishlash uchun ruxsat berilgan. Tabiblikni ota kasb sifatida o‘rgangan shogirdlarni oq fotiha olishi yoki mustaqil faoliyat boshlashi uchun ham alohida marosim o‘tkazilgan va sinov tashkil qilingan. Odatda tabiblikni kasb qilishni istagan kishi guvohlar ishtirokida uchta kasalni muvaffaqiyatli davolab, o‘z mahoratini ko‘rsatishi zarur[16] edi. Shundan so‘nggina talabgor tabib maqomiga ega bo‘lib, bemorlarni mustaqil davolash bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan. Masalan, XX asr boshida marg‘ilonlik tabibning xotiralariga ko‘ra, u shogirdlik muddatini tugatgach, imtihon chog‘ida ustozini (o‘z otasini) jarrohlik yo‘li bilan davolash so‘ralgan va bu ish muvaffaqiyatli bajarilgach, mustaqil faoliyatga ruxsat berilgan[17].

XX asr boshlarida tibbiyot yutuqlaridan xabardor shifokorlar xizmati kengaydi va oz bo‘lsada tibbiy muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada tib ilmini uy sharoitida ustozdan o‘rganish va ma’lum muddatda davlat nazoratisiz tabib bo‘lib yetishish masalasi qoralandi. Chunki, aksariyat Yevropa davlatlarida shifokor bo‘lish uchun umumiy ta’limdan tashqari alohida ma’lum muddat (5-6 yil davomida) tibbiy bilimlarni egallash uchun o‘quv yurtlari tashkil qilindi. Bu o‘quv kurslari alohida dastur va davlat tomonidan belgilangan standart asosida amalgaoaпo oshirilgan. Shu asnoda Turkistonda mustamlaka hukumatining tibbiy maqsadlaridan kelib chiqib tabiblik kasbini o‘g‘il otadan biror o‘quv dasturisiz o‘rganishi va hujjatsiz muolaja qilishiga salbiy munosabat bildirildi. Bu holat esa sekin astalik bilan oilaviy tibbiy sirlarni unutilishiga va umuman tabib bo‘lish uchun ma’lum o‘quv kursini tugatish va davlat nazoratida imtihon qilingach egallanadigan kasbga aylanib bordi.

Kasb sirlarini o‘rganishning ikkinchi turi esa, tabiblikni madrasalada o‘qish orqali egallash. Tarixga nazar solinsa o‘lkada hukmronlik qilgan davlatlarda tibga bo‘lgan munosabat va islohotlar natijasida madrasalar barpo qilingan va asosan tabiblar madrasalarda ta’lim olib, davolash amaliyoti bilan shug‘ullangan. Tabiblarni tayyorlash va ularni sinovi masalasida ilk ma’lumotlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da keltirilgan. Tabiblar jamiyat orasida nihoyatda ulug‘lanib, kasb egasi bo‘lish uchun bir qancha sinovlardan o‘tishi va bo‘lajak hakimni ham ma'nan, ham jismonan bu ishga tayyorligi qattiq nazorat qilingan[6]. Keyingi davrlarda ham tabiblarni sinovdan o‘tkazish shakllari an’ana sifatida davom etdi. XVI asrda yashagan Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarida o‘zi ham Muhammad Mazid ismli tabibdan kasb sirlarini o‘rgangani hamda egallagan bilimini ustozga imtihon topshirgan holda isbotlashga to‘g‘ri kelganini qayd etadi[24].

XVIII asrda asosan madrasa ko‘rgan tabiblar faoliyati yuzaga kelgan. Aksariyat madrasalarda tabiblarni tayyorlaydigan alohida yo‘nalish bo‘lmasada boshqa fanlar qatori tib fani ham o‘qitilgan. Talabalarga Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sinoning Al-Qonun fi-t-tib (“Tib qonunlari”) va boshqa soha vakillarining tibbiy asarlari asosida dars berilgan. Dori tayyorlash usullari o‘rgatilgan va dorivor giyohlarni tanitish uchun dala va tog‘larga olib chiqilgan[8]. Shuning uchun ham

tabiblik rutbasini bermagan madrasalarda o‘qiganlar bevosita tabiblik bilan shug‘ullanmasalar-da, tib ilmi asoslarini tabiblar kabi yaxshi bilganlar[21].

XVIII asrda aksariyat shaharda madrasada ta’lim olgan uch-to‘rtdan ortiq tabiblar ishlardi. Bu davrda amirlik va xonliklarda tabiblar tayyorlaydigan bir necha madrasalar faoliyat yuritgan. Jumladan Buxorodagi aksariyat madrasalarda alohida tib bo‘limi faoliyat yuritgan va ikkita hujra bemorlarni davolash uchun ajratilgan[18]. Mir arab madrasasida Ahmadxon ibn Ismoilxon (1873 − 1952) shu bo‘limda tib ilmiga taalluqli oyat va hadislardan ta’lim bergan va o‘zi ham bemorlarni davolagan[9]. Madrasalarda tahsil olayotgan bo‘lajak tabiblar arab va fors tillarini bilishi juda zarur edi. Chunki mavjud adabiyotlar va tibga oid risolalarning aksariyati o‘sha tillarda bo‘lgan. Buxorodagi tabiblar tayyorlaydigan navbatdagi mashhur madrasa Dor ush-shifo bo‘lib, uni moliyalashtirish vaqf mulki hisobidan edi. Qoidga ko‘ra vaqf daromadining bir qismi talabalarni ehtiyojlarini qondirishga sarflangan bo‘lsa, yana bir qismi mudarrislarni maoshiga sarflangan[19]. Qo‘qon xonligida ham XVIII asrda faoliyat yuritgan madrasalarda barcha fanlar qatori tib ilmi alohida o‘qitilgan. Xorazmda ham aksariyat madrasalarda tib ilmida saboq berilgan. Jumladan, XVIII asrning ilk choragida qurilgan Sherg‘ozixon madrasasida Nuri Kozim ibn Bahr ismli tabib faoliyat yuritgan. Ushbu tabib madrasada tib ilmini o‘qitish usluni yo‘lga qo‘ygan va talabalarga saboq bergan[12]. Jumladan, shoir Mahtumquli ushbu madrasada ta’lim olish chog‘ida xastalikka chalingani va o‘zi tayyorlagan doridan shifo topgani manbalarda qayd etilgan.

Rossiya imperiyasi Turkistonni zabt etgandan so‘ng bu yerdagi tibbiy tizim va kadrlar muammolariga to‘xtalgan ayrim mualliflarning asarlarida Turkistonda tib ilmi o‘qitilmay qo‘yilgani[25], tibbiy bilimga ega kishilarning kamligi[3] va sohani o‘qitilmasligining sababi dindorlar tomonidan bu ilm islom qoidalariga zid kelgani[1] deb ko‘rsatilgan. To‘g‘ri, xonliklarda yuz bergan turg‘unlik ilmiy sohaga ham ta'sir qilib, XIX asrga kelganda aynan tibda Yevropaning ilg‘or davlatlaridan orqada qolayotgani sir emas. Lekin, bu hududda tib ilmi butunlay unutilgan va ta'qiqlangan degani emasdi. Jumladan, yuqorida nomi keltirigan Toshkent bekligidagi shifoxonada Buxoroda ta’lim olgan toshkentlik Moshtabiblar sulolasi vakili Mutaliboy shifobegi (sartabib) lavozimida ishlagan[2]. Yoki Rossiya imperiyasi bosqinidan oldin Dor ush-shifoda mulla Abduraxmon Tamkin Buxoriy ismli shaxs mudarrislik qilgan[4].

Xulosa va takliflar. Bundan ko‘rinadiki madrasalarda tabiblarni tayyorash ishlari mustamlakachi davlat tomonidan ushbu madrasa faoliyati tugatilgunga qadar davom etgan. Tabiblar faoliyati va umuman an’anaviy tibbiy tizim ko‘proq shahardan uzoq hududlarda saqlanib qoldi. 1914 - yilda Turkistonda umumiy 102 nafar tabib faoliyat yuritganini[14] hisobga olinsa, ular orqali tib an’analari jamiyatda ma’lum yo‘qotishlar evaziga bo‘lsada yashab qolganligini ko‘rish mumkin.

Tabiblarni tayyorlash an’analari o‘lkada tibbiyot joriy etilishi bilan orqaga ketdi. Imperiya hukumati Turkistonda tabiblar faoliyatini cheklamagan bo‘lsada, amalda o‘zlari olib kelgan shifokorlar va yangi tibbiy muassasalar faoliyatini qo‘llab quvvatladi. Bu narsa uzoq asrlar davomida sohada alohida o‘ringa ega bo‘lgan ustoz- shogirdlik an’analari va kadr tayyorlashning milliy uslublarini yo‘qolishiga olib keldi. Keyinchalik Turkistonda siyosiy tizim o‘zgarishi bilan tabiblarning aksariyati boshqalar kabi qatag‘onga uchradi va bu an’analar ayrim jihatlarini hisobga olmaganda yashovchanligini to‘la yo‘qotdi.

ADABIYOTLAR

1. Hohmann S. La médecine moderne au Turkestan russe : un outil au service de la politique colonial // Cahiers d’Asie central. –2009. – № 17/18. – 328 pg.
2. Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли. Асрлар ошган табобат. – Тошкент: Davr press, 2007. – 24-бет.
3. Абдурауф Фитрат. Хинд сайёҳи баёноти / Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 131-бет.
4. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – 247-бет.
5. Абулхаким Нурбой. Ҳижрон сели узра солинган кўприк // Жаҳон адабиёти. – 2004. – № 1. – Б. 185.
6. Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015. – 213-323-бетлар.
7. Алихон Тўра Соғуний. Шифо ул-илал // Шарқ юлдузи. – 1996. – № 6. – 188-бет.
8. Асадов Д. Маҳбубий табобати // O‘zbekiston tibbiyot jurnali. – 2015. – № 1. – Б. 102.
9. Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан: Аҳмад ибн Исмоилхон мероси. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2017. – 52 бет.
10. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 146 бет.
11. Боситхон ибн Зоҳидхон Шоший. “Қонуни Боситий”. А. Носиров маълумотидан. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси. Инв. №8921, 2-бет.
12. Ғойибов М. ва бошқ. Хива табобати. –Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1995. –26-бет.
13. Исмоил ал-Журжоний. Захираи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 32-бет.
14. Кары-Ниязов Т. Очерки истории культуры Советского Узбекистана. – Москва: Академия наук СССР, 1955. – 516-стр.
15. Қодиров А. Тиббиёт тарихи. –Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 152-бет.
16. Қодиров А. Қодиров А. Ўзбекистон тиббиёти. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. 33-бет.
17. Лыкошин Н. Сартарашъ (туземный брадобрей и цирьюльникъ) // Туркестанские ведомости. – 1903. – № 75.
18. МА. И-126-фонд, 1-руйхат,1996-йиғмажилд, 1-варақ.
19. МА. И-323-фонд, 113-рўйхат, 3-йиғмажилд, 118-варақ.
20. Муравёв Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 года. Части 2. – Москва, 1822. – 138-стр.
21. Назиров М. XIX-XX аср бошларида Қўқондаги халқ табобати ва замонавий соғлиқни сақлаш тизимининг шаклланиши хакида // O‘zbekiston tibbiyot jurnali. – 2013. – № 6. – Б. 125.
22. Садриддин Айний. Эсдаликлар / Асарлар. 7-том. – Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – 250-258 бетлар.
23. Саидносирова З. Ойбегим менинг. Хотиралар. –Тошкент: Yangi nashr, 2019. – 40-бет.
24. Хасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Тошкент: Мерос, 1993. – 157-бет.
25. Ғаспарали И. Туркистон саёҳатлари (Крим-татар тилидан Тохир Қаххор таржимаси) // Жахон адабиёти. –2010. – № 10. – Б. 92.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:193.4(575.1)

Sharofiddin MAMATOV,
GulDU “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: shmamatov77@gmail.com

O‘z FA MAM katta ilmiy xodimi, t.f.d. G‘.Boboyorov taqrizi asosida

IN MEDIEVAL WRITTEN SOURCES SETTLEMENTS OF THE MIDDLE BASIN OF THE SYRDARYA

Annotation

In the written sources of the Middle Ages, the names of the settlements of the villages of the middle basin of the Syr Darya, as well as the large settlements in the Middle Syr Darya oasis - cities, villages (districts) and villages, their names, locations, economic lifestyle, and culture of their inhabitants are covered in the article in a comparative analysis.

Key words: Choch oasis, Khavos, Arabic and Persian sources, Mugh mountain, Kul-tobe inscriptions, chronicles and travelogues in Chinese, B.Baytanaev, A.Otakhojaev, "Tan-shu" chronicle, monk Xuan Tsang, work "Hudud ul-olam" , works of Arab-Persian geographers.

В СРЕДНЕВЕКОВЫХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ ПОСЕЛЕНИЯ СРЕДНЕГО БАССЕЙНА СЫРДАРЬИ

Аннотация

В письменных источниках Средневековья приведены названия поселений селений среднего бассейна Сырдарьи, а также крупных поселений Среднесырдарьинского оазиса - городов, сел (районов) и селений, их названия , локации, хозяйственный уклад и культура их жителей освещаются в статье в сравнительном анализе.

Ключевые слова: оазис Чоч, Хавос, арабские и персидские источники, гора Муг, надписи Кул-тобе, хроники и путевые заметки на китайском языке, Б.Байтанаев, А.Отаходжаев, летопись «Тан-шу», монах Сюань Цанг, труд «Худуд ул-мира», труды арабо-персидских географов.

O‘RTA ASR YOZMA MANBALARIDA SIRDARYONING O‘RTA HAVZASI AHOLI MASKANLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘rta asr yozma manbalarida Sirdaryoning o‘rta havzasi aholi maskanlari qishloqlar nomlari, shuningdek, O‘rta Sirdaryo vohasidagi yirik aholi maskanlari – shahar, rustoq (tuman) va qishloqlar, ularning nomlanishi, joylashuv o‘rni, aholisining xo‘jalik turmush tarzi, madaniyati to‘g‘risida qiyosiy tahlil usulida maqolada yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Choch vohasi, Xovos, arab va fors manbalari, Mug‘ tog‘i, Kul-to‘be bitiklari, xitoy tilidagi yilnoma va sayohatnomalar, B.Baytanayev, A.Otaxo‘jayev, “Tan-shu” yilnomasi, rohib Syuan Szan, “Hudud ul-olam” asari, Arab-fors geograflari asarlari.

Kirish. Qadimgi davr yozma manblarida Yaksart, Xashart, Silis, o‘rta asr manbalarida esa Sayxun, Yenchu-o‘kuz, Sir nomlari bilan tilga olingan Sirdaryo daryosi havzalari O‘rta Osiyoda o‘zining yuzlab aholi maskanlariga ega hududlaridan biri sifatida qayd etiladi. Farg‘ona, Choch (Toshkent), Ustrushona, O‘tror, Yassi (Turkiston), Jand (Qizil-o‘rda) kabi bir qator voha hukmdorliklari va yirik aholi maskanlarini qamrab olgan Sirdaryo havzasi o‘z iqlim sharoiti va tabiiy geografik joylashuviga ko‘ra mintaqaning o‘troq va ko‘chmanchi aholisi o‘rtasida muayyan bir kontakt hududi – ko‘prik vazifasini bajarib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Choch vohasining Sirdaryo havzalari yaqinida joylashgan Xos (hozirgi Bekobod tumanida), Xovos (hozirgi Xovos tumanida), Iqon (Qozog‘istonning Turkiston viloyatida) kabi qishloqlari O‘rta Sirdaryo havzasidagi eng qadimiy aholi maskanlaridan hisoblanadi. Ilk bor rivojlangan o‘rta asrlarga tegishli arab-geograflari asarlarida uchray boshlagan ushbu qishloqlar bugungi kunda ham o‘z nomini saqlab qolgan. Qizig‘i shundaki, Xos va Iqon qishloqlarining aholisi bugungi kunda o‘zbek tilida[1], Xovos qishlog‘i aholisi ko‘proq tojik tilida so‘zlashadilar. Bir-biridan birmuncha uzoqlikda deyarli 300 chaqirim uzoqlikda joylashgan Xos va Iqon qishloqlari aholisi so‘zlashuvida o‘zbek tilining qarluq lahjasi ustuvorlik qilib, ushbu lahjaning mintaqada keng yoyilish davri rivojlangan o‘rta asrlarga, aniqrog‘i, Qoraxoniylar sulolasi (940-1212) boshqaruvi davriga to‘g‘ri keladi. Ham geografik joylashuvidagi yaqinlik, ham nomlaridagi yaqin o‘xshashlik bo‘lgan Xos va Xovos qishloqlari aholisining etnik jihatdan bir-biridan birmuncha farqlanishi[2] esa o‘zining tarixiy izohini talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda O‘rta asr yozma manbalarida Sirdaryoning o‘rta havzasi aholi maskanlari qishloqlar nomlari, shuningdek, O‘rta Sirdaryo vohasidagi yirik aholi maskanlari – shahar, rustoq (tuman) va qishloqlar, ularning nomlanishi, joylashuv o‘rni, aholisining xo‘jalik turmush tarzi, madaniyati to‘g‘risida qiyosiy tahlil usulida maqolada yoritiladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘rta Sirdaryo vohasidagi yirik aholi maskanlari – shahar, rustoq (tuman) va qishloqlar, ularning nomlanishi, joylashuv o‘rni, aholisining xo‘jalik turmush tarzi, madaniyati va hokazolarga tegishli ma’lumotlar asosan rivojlangan o‘rta asrlar (IX – XII asrlar)ga oid arab va fors manbalarida tilga olingan. Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Havqal va boshqa bir qator arab-fosr geograflari asarlarida, shuningdek, X asrda fors tilida yozilgan, muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” (Olamning chegaralari) nomli asarda O‘rta Sirdaryo havzasidagi ko‘plab aholi maskanlariga doir muhim ma’lumotlar keltirilgan[3].

Sirdaryoning o‘rta havzalaridagi yirik aholi maskanlariga, shu jumladan, shahar va qishloqlarga doir arab-fors geograflari asarlarida keltirilgan ma’lumotlarni kengroq tahlil qilishdan oldin bu mavzuda birmuncha qisqa ma’lumotlar beruvchi boshqa tillardagi manbalariga to‘xtalib o‘tsak. Avvalo shuni aytib o‘tish kerak, ular orasida sug‘diy va xitoy tillaridagi ma’lumotlar o‘zining qisqa, biroq muhim

ma’lumotlar alohida ajralib turadi. Arab va fors manbalaridan birmuncha oldinroq yozilgan sug‘diy tilli yozma manbalarda O‘rta Sirdaryo havzasidagi Choch, Ustrushona va Tarband haqida qisqacha ma’lumotlar uchrashiga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, VIII asr ilk choragiga tegishli Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlaridan biri – A-14 raqamli hujjatda Sug‘d (Panjikent)dan Chochga kelgan elchi Fatufarn bu erda Choch va Farg‘onaning boshqaruvchi toifa vakillari bilan uchrashganini, Tarband Choch hukmdori qo‘liga o‘tgani haqida yozib, Ustrushona orqali Sug‘dga qaytmoqchi bo‘lgani, biroq yo‘l arablar tomonidan to‘sib qo‘yilgani uchun Kand orqali yana Chochga qaytgani haqida ma’lumot uchraydi[5].

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan milodiy III – IV asrlarga tegishli deb qaraladigan ushbu bitiklar Sirdaryoning tarmoqlaridan biri – Aris daryosi havzalari (Chimkent – Turkiston shaharlari oralig‘i)dan topilgan bo‘lib, ularda Choch, Naxshab (Qarshi), Kesh va Navak-metan (Buxoro?) hukmdorlari, “chodir xalqi” va hokazolar haqida so‘z boradi[6]. Kul-to‘be bitiklaridan angashilicha, milodning III – Sh asrlarida Sirdaryoning o‘rta havzalarida ko‘chmanchi aholi bilan birga sug‘diy aholi ham birmuncha keng yoyila boshlagan. Buni Toshkent va Aris vohalari (Turkiston – Chimkent oralig‘i)da, umuman olganda, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida arxeologik qazishlar jarayonida aniqlangan o‘nlab yirik aholi maskanlarida sug‘diy aholi bilan bog‘liq numizmatik va epigrafik ma’lumotlar ko‘rsatib turibdi[7].

VII asr ilk choragida Choch vohasidagi umumiy vaziyat va hududi qanday bo‘lganligini aniqlashda xitoy rohibi Syuan Tszan (627-645) keltirgan ma’lumotlar qo‘l keladi: “Chje-shi mamlakatining aylanasi 1000 li atrofida bo‘lib, g‘arbi Ye daryosi (Sirdaryo)ga tutashgan. [Ushbu mamlakatning] sharqiy va g‘arbiy tomoni tor, shimoliy va janubiy tomoni esa kengdir. Tuprog‘ining unumdorligi va iqlim sharoiti Nu-chi-tszyan (Nuchket - Chimkent) mamlakati bilan bir xil. O‘nga yaqin shaharlar mavjud bo‘lib, har birining alohida boshqaruvchisi bor. Umumiy bir hukmdori mavjud emas. Vassal o‘laroq Tukyuelar (Turk xoqonligi)ga tobedirlar”[8].

Garchi rohib keltirgan qaydlarda Choch vohasidagi yirik aholi maskanlarining nomlari keltirilmagan bo‘lsa-da, o‘sha kezlarda vohada o‘troq aholi yashaganligi va bu yerdagi yirik shaharlar soni 10 taga yaqin ekani anglashiladi. Shu bilan birga aytib o‘tish kerak, Syuan Tszan “Nuchitszyan” shaklida keltirib, Chochning shimoli-sharqida ko‘rsatgan tarixiy viloyatni ko‘pchilik tadqiqotchilar Nuchket shaklida tiklab, arab manbalarida Shosh vohasidagi yirik shaharlardan biri sifatida tilga olingan Nuchket bilan tenglashtirishsalar-da[9], qozoq arxeologi B.Baytanaev bir necha omillarga tayanib Nuchiztsyanni Chimkent bilan tenglashtirishga harakat qiladi[10].

Choch va Ustrushona kabi O‘rta Sirdaryoning muhim bir qismini tashkil etib, Toshkent vohasidan shimoli-sharqda joylashgan, bir qismi dashtliklar, bir qismi esa sug‘orma dehqonchilikka mos hududlar – tarixiy O‘tror va bugungi Turkiston shahri atroflari ilk o‘rta asrlarda “Forob”, “Tarband”, “Shavg‘ar” nomlari bilan ham tanilgan edi[11]. Xityocha “Sin Tan-shu” yilnomasida ushbu joy bilan bog‘liq quyidagicha ma’lumotlar keltiriladi: “Shi mamlakati shimoli-sharqda G‘arbiy turklarga, shimoli-g‘arbda Bo-la (Forob) mamlakatiga tutashadi. Janubida 200 li uzoqlikda Tszyuy-chjan-ti (Xujand), janubi-g‘arbida esa 500 li uzoqlikda Kan (Samarqand) mamlakati joylashgan”[12]. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ushbu ma’lumotdagi BolaG’Bo-la (*Pa-lap) shaklida bo‘lib, xitoy yilnomalarining barcha tarjimalarida shu shaklda keltiriladi[13]. O‘z vaqtida Yu.A. Zuev xitoycha Bo-la Sirdaryoning o‘rta havzasida joylashgan va arab-fors geograflari asarlarida o‘rin olgan Forob (O‘tror) hukmdorligining xitoyliklar talaffuzi ekanini ta’kidlab yozgan bo‘lib[14], ushbu hukmdorlikning Chochga nisbatan shimoli-g‘arbda joylashgani ham bu qarashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ilk o‘rta asrlarda ushbu hududlarda o‘nlab qishloq va shaharlar paydo bo‘lishida turkiy va sug‘diy aholining o‘rni katta bo‘lib, bu holat Sirdaryoning o‘rta havzasidagi joy nomlarining turkiy-sug‘diy negizga egaligida ham o‘z tasdig‘ini topadi. Bunga Shavg‘ar – Qorachuq, Forob – O‘tror, Isfijob – Sayram, Yangikent, Sutkand, Sug‘naq va boshqa joy nomlarini misol sifatida keltirish mumkin[15].

Bu holat ayniqsa Choch vohasi misolida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. vohada ilk o‘rta asrlarda Choch, Tunkat, Iloq, Jabg‘ukat, Xotunkat kabi turkiy va turkiy-sug‘diy toponimlar uchraganidek, Binket, Farnket, Nukat, Dinfag‘nket, Barsket, Pskom va boshqa o‘nlab joy nomlariningt kelib chiqishi sug‘diy edi. Bir qator tadqiqotchilar vohada sug‘diylarning keng ko‘lamda joylashuvi ilk o‘rta asrlarga - Sug‘d aholisining Sirdaryoning o‘rta havzalari va Ettisuvga ko‘chishi davriga to‘g‘ri kelishini urg‘u bersalar[16], ba’zi tadqiqotchilar ularning vohada tarqalishini miloddan avvalgi bir mingyillikning oxirlari - milodning dastlabki asrlarida ro‘y berganligi tarafdoridir. Shu o‘rinda, sug‘dshunos olim A.Otaxo‘jaevning Choch vohasida sug‘diy aholining yoyilishi haqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “sug‘d tujjorlari, ishbilarmonlari, hunarmandlari va dehqonlari quyidagi tarixiy davrlarda: 1) mil. avv. VI asrgacha; 2) mil. avv. IV – mil. III asrlar; 3) mil. III – VIII asrlar va 4) VIII – IX asrlardan keyin Chochga kirib kelganlar”[17].

Ilk bor xitoy yilnomalari va sug‘diy hujjatlarda tilga olingan ushbu hudud “Tan-shu” yilnomasida quyidagicha keltiriladi: “Sharqiy Tsao hukmdorligi – boshqacha nomlanishlari Shuaydushanna, Suyduyishana, Kiputana va Suduchjini, hammasi bo‘lib to‘rtta nomga ega. Ushbu mamlakat Bossi tog‘ining shimoliy tomonida joylashgan. Bu joylar Katta Xan sulolasi davrida Ershi (Farg‘onaning markaziy shahri)ga tobe bo‘lgan. shimoli-sharqda Gyuychjanti (Xo‘jand)gacha 200, shimolda Shi (Choch)gacha, g‘arbda Kan (Samarqand), shimoli-sharqda Ninyuan (Farg‘ona)ga 400 li; janubda Tuxolo (To‘xoriston)gacha 500 li. Ushbu shaharlarning barchasi 400 lidan ortiqroq masofadadir... (Imperator) U-di hukmronligi davomida (618-626 yy.) bu hukmdorlikdan elchi yuborildi”[18].

Bundan ko‘rinadiki, ilk o‘rta asrlarda Ustrushonaning janubiy, to‘g‘rirog‘i, janubi-g‘arbiy qismlari Sug‘dga, shimoli Chochga, shimoli-sharqiy Xo‘jandgacha cho‘zilgan alohida bir hukmdorlik bo‘lgan. 629 yilda voha orqali Sug‘dga o‘tgan rohib Syuan Tszan (629-645) o‘z esdaliklarida shunday yozadi: “Sutulisena (Ustrushona) o‘lkasining kengligi ming to‘rt yuz yoki ming besh yuz li. Kunchiqar tomoni Ye (Sirdaryo) daryosiga tutashgan. Ye daryosining manbasi Tsunlin (Pomir) tog‘ining shimoliy tizmalaridan boshlanadi. (Uning) suvi shimoldan g‘arbga qarab oqadi. (Ushbu) daryo ancha keng bo‘lib, suvi loyqa, jo‘shqin va tezoqardir. Ekin-tikini va urf-odatlari Che-shi (Choch)liklarniki bilan birday. O‘z boshqaruvchisi bor, Tu-kyue (Turk xoqonligi)ga bo‘ysunadi”[19].

O‘rta Sirdaryo havzasi va unga qo‘shni hududlardagi qadimiy aholi maskanlari to‘g‘risidagi birmuncha aniqroq ma’lumotlarga yuqorida aytib o‘tganimizdek, arab va fors geograflari asarlariga murojaat qilish orqali ega bo‘lish mumkin. Avvalo, “Hudud ul-olam”da Sirdaryo daryosi haqida keltirilgan ma’lumotlar bilan tanishishdan boshlasak. Asarda qayd etilishicha, “O‘zgand daryosi – Xallux (Qarluq) tog‘i yon bag‘ridan boshlanadi. O‘zgand, Bob (Pop) shahri, Axsikat, Xo‘jand, Banokatdan oqib o‘tadi. (So‘ngra) Choch hududiga etadi; Sutkand, Porob kabi ko‘pgina shaharchalardan o‘tadi; Jand va Javora erlariga oqib boradi hamda Xorazm dengiziga quyiladi”[20]. Ushbu ma’lumotdan ayon bo‘lishicha,

Sirdaryoning yuqori havzasi o‘sha kezlarda “O‘zgand daryosi” deb atalgan bo‘lib, uning yana bir nomi, aniqrog‘i, daryoning o‘rta havzasi “Choch daryosi” deb nomlangani yana ushbu asardagi quyidagi ma’lumotlar orqali anglashiladi: “Parak daryosi. Xallux (qarluq) tog‘i yon bag‘ridan boshlanadi, janub tomonga oqib tushadi. Banokat va Qalos devori oralig‘ida O‘zgand daryosiga quyiladi. Bu suvlar hammasi birlashgach, Choch daryosi nomini oladi, toziylar esa bu daryoni Sayxun ataydilar”[21].

Ushbu ma’lumotdan ko‘rinadiki, mahalliy aholi dastlab Sirdaryoni qaysi hududdan – biror vodiy yoki vohadan oqib o‘tishiga qarab, shuningdek, uning yuqori, o‘rta yoki quyi qismidagi tarixiy viloyatlar nomi bilan ataganlar, toziylar, ya’ni arablar kelgach bu daryo “Sayxun” deb atala boshlagan. Buni Sirdaryoning o‘rta havzasi o‘rta asr manbalarida “Banokat daryosi”, uning o‘ng qirg‘og‘idagi joylar, xususan, Choch va O‘tror vohalari “Banokat vodiysi” shakllarida tilga olingani ham tasdiqlaydi[22]. Aslida rivojlangan o‘rta asrlarda Banokat Choch vohasidagi muayyan bir shahar nomi bo‘lib, Sirdaryo havzasida joylashgan eng yirik shaharlardan biri bo‘lgani uchun ushbu daryo “Banokat nahri (daryosi)”, shu nom bilan atalgan daryo havzasidagi vohalar “Banokat vodiysi” deb atala boshlagan. Bu fikrni “Hudud ul-olam”da keltirilgan quyidagi ma’lumot ham tasdiqlaydi: “Banokat – Xashart daryosi bo‘yida joylashgan, ko‘rkam va obod shaharcha”[23].

“Hudud ul-olam”da O‘rta Sirdaryo havzalari va unga qo‘shni hududlardagi tarixiy viloyat va nohiyalar tilga olinar ekan, ular tarkibidagi ko‘plab aholi maskanlariga duch kelamiz. Asarda qayd etilishicha: “Sarushana – katta va obod nohiyat, noz-ne’mati, shahar va rusto (rustoq)lari ko‘p ... Zomin – Xo‘jand va Farg‘ona yo‘lidagi shahar, Sarushana (nohiyati)ga qarashli joy. Unda mustahkam qo‘rg‘on bor ... Charqon – shaharcha, Sarushanaga kiradi, obod joy; Fag‘kas, G‘arq, Sobot, Kurkas – Sarushana hududidagi shaharchalar, ekinzorlari va aholisi ko‘p”[24]. Ustrushonaning ushbu shahar va shaharchalar orasida Sobot (Sabot/Sabat) va Kurkas (Kurkat) Sirdaryo havzasiga yaqin aholi maskanlari bo‘lib, ular daryoga nisbatan yaqinroq joylashgan Xovos qishlog‘iga tutash hududda joy olgan edi. Ilk bor rivojlangan o‘rta asrlardagi arab va fors geograflari asarlarida Xovas nomi ostida tilga olingan joy Ustrushonaning Zomin, Sobot (Sovot) kabi yirik aholi maskanlaridan biri sifatida qayd etilgan. Istaxriy o‘zining “Kitob al-mamolik va-l-masolik” asarida Xovosni Zomindan Banokat (Shosh)ga eltuvchi yirik aholi manzili o‘laroq eslab o‘tadi[25].

Xulosa va takliflar. Xullas, o‘rta asr yozma manbalarida Sirdaryoning o‘rta havzasi aholi maskanlarini shahar, shaharcha, qasaba va qishloqlar misolida ko‘rib chiqish shundan darak beradiki, bu hududda Choch, Forob (O‘tror) va Ustrushona kabi tarixiy viloyatlar mavjud bo‘lib, ilk o‘rta va rivojlangan o‘rta asrlarda bu yer O‘rta Osiyoning eng aholisi gavjum hududlaridan biri bo‘lib, bu jihatdan Sug‘d (Samarqand, Buxoro), Farg‘ona, Tohariston viloyatlari bilan tenglasha olgan. Mintaqaning boshqa bir qator tarixiy viloyatlaridan farqli holda bu hududda turkiylar va sug‘diylar yonma-yon va aralash yashaganlar. Natijada Sirdaryoning o‘rta havzalarida bir necha o‘nlab turkiy, sug‘diy va turkiy-sug‘diy joy nomlari yuzaga kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 12; Ражабов Н. Педагогика иистиутлариинг ўзбек тили ва адабиёти. университетларнинг филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - Б. 83, 89;
2. Грицина А.А., Содиқов М. Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда. – Тошкент, 2010.
3. Ҳудуд ул-олам (Моваройннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 2008.
4. История ат-Табари. Избранные отрывки (Перевод с арабского В. И. Беляева. Дополнения к переводу О. Г. Большакова и А. Б. Халидова). – Т., 1987. – С. 268; Кляшторний С. Г. Из истории борьбы народов Средней Азии против арабов (по руническим текстам) // ЭВ, 1954. – № IX. – С. 55–64.
5. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1962. – С. 81-83.
6. Sims-Williams N., Grenet F. The Sogdian inscriptions of Kultobe // Shygys, 2006, 1. – P. 95-111.
7. Бабаяров Г. Тюрко-согдийские контакты в период Тюркского каганата (на примере системы управления историко-географическими областями Среднеазиатского Междуречья) // Центральная Азия от Ахеменидов до Тимуридов: Археология, история, этнология, культура. Материалы международной научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения А.М. Беленицкого. – СПб., 2004. С. 56-60; Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.
8. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara, 2003. – S. 121-122.
9. Бартольд В.В. Географический очерк Мавераннахра // В.В. Бартольд. Сочинения, т. 1. – М., 1963. – С. 231.
10. Байтанаев Б.А. Вопросы локализации Нуджикета // Новые исследования по археологии Казахстана. Труды научно-практической конференции Маргулановские чтения - 15. – Алматы, 2004. – С. 67-70.
11. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. – С. 81-85.
12. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. – S. 120.
13. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.- Л., 1950-1953. Т. II. – С. 313.
14. Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. Алматы, 2002. – С. 98.
15. Байтанаев Б. Древний Испиджаб. Шымкент-Алматы, 2003. – С. 38-40.
16. Бернштам А.Н. Тюргешские монеты // ТОВГЭ 2, 1940. – С. 34-43; угли Неъматов, Р. А. (2023). Турк хоқонлиги даврида хоразм воҳаси ижтимоий-сиёсий тарихининг ўрганилиши. взгляд в прошлое, (SI-1).
17. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // O‘zbekiston tarixi. – Тошкент, 2009. – № 1. – Б. 17.
18. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народ. Том II. – С. 312; Бобоёров Ғ., Кубатин А., Зиёев Ш. “Тан-шу” (“Тан сулоласи тарихидан”) / Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия, 2/1. – Тошкент: Фан, 2014. – Б. 38.
19. EkremE. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. – S. 125.

20. Ҳудуд ул-олам (Моваройуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Б. 9.
21. Ҳудуд ул-олам (Моваройуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Б. 8-9.
22. Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1-том. – Тошкент, Фан, 1960. – Б. 91; Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрларда хоразмда кечган этномаданий жараёнлар. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 14-23.
23. Ҳудуд ул-олам (Моваройуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Б. 18.
24. Ҳудуд ул-олам (Моваройуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Б. 15.
25. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Йўллар ва ўлкалар китоби. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 170, 185.
26. Ибн Ҳавқал. Моваройуннаҳр / Ибн Хавқал; араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Ҳасанов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 11, 68; Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Йўллар ва ўлкалар китоби. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Б. 168.
27. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 29-32.
28. Грицина А.А., Содиқов М. Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда. – Тошкент, 2010.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 39(575. 12)(09) (043.3)

Abduqahhor MAHMUDOV,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi
E-mail: abdqaxxormaxmudov.2018@mail.com

NamDU dotsenti, tarix farlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) B.Xolmuratov taqrizi asosida

TURIZM TARAQQIYOTIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING TUTGAN O‘RNI (PICHOQCHILIK MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda turizm taraqqiyotida milliy hunarmandchilik, xususan, pichoqchilik sohasining tutgan o‘rni, zamonaviy pichoqchilik sohasidagi o‘zgarishlar, shuningdek Chust, Shahrixon, Qo‘qon pichoqchilik markazlarida sayyohlar uchun tashkil etilayotgan uy muzeylari va ularning faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar yoritilgan. Turistlar uchun tayyorlanayotgan pichoqlar, ularning turlari haqida, aksessuar sifatida tayyolanayotgan pichoqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm taraqqiyoti, ochiq osmon ostidagi temirchilik muzeyi, pichoq turlari, dudama, qo‘shpichoq, o‘roqi, sollohiy, mardona, hunarmandchilik markazlari, aksessuar pichoqlar.

РОЛЬ НАРОДНОГО МАСТЕРСТВА В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ ИЗГОТОВЛЕНИЯ НОЖЕЙ)

Аннотация

В статье роль народного мастерства в развитии туризма в нашей стране, в частности роль ножевой индустрии, изменения в современной ножевой индустрии. Также освещается информация о домах-музеях и их деятельность, созданных для туристов в центрах изготовления ножей в Чустском, Шахриханских и Какандских центрах. Ножи изготовленные для туристов, их виды, а также информация о ножах, изготовленных в качестве аксессуаров.

Ключевые слова: Развитие туризма, Музей кузнечного дела под открытым небом, виды ножей, дудама, кушпичок, уроки, соллохий, ,мардона, ремесленные центры, аксессуары для ножей.

THE ROLE OF FOLK SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KNIFE WORK)

Annotation

In the article, the role of folk craftsmanship in the development of tourism in our country, in particular the role of the knife industry, changes in the modern knife industry. It also covers information about museum houses and their activities, created for tourists in knife-making centers in Chust, Shakhrikhan and Kakand centers. Knives made for tourists, their types, as well as information about knives made as accessories.

Key words: Tourism development, open-air museum of blacksmithing, types of knives, dudama, double blade, lessons, ,sollohiy, mardona, handicraft centers, accessories for knives.

Kirish. Ma’lumki, yurtimiz buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bo‘lib, turizm rivojida yetakchi o‘rinda turadi. Bugungi kunda xorijiy sayyohlarning yurtimizga qiziqishi yuqori darajada bo‘lib, o‘z o‘rnida turizmning muhim yo‘nalishi ziyorat turizmi, etno turizm sohalarini yanada rivojlantirishni talab etadi. Keyingi yillarda ushbu sohani jadal rivojlantirish, mamlakatimizga kelayotgan xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ichki turizmni kengaytirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016 - yil 2 - dekabrdagi PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] Farmoni, Shuningdek, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”[4] gi Farmonlari e’lon qilindi. Ushbu isloxotlar tarmoqni jadal rivojlantirish, turizmga iqtisodiyotning strategik maqomini berish, uni mamlakat iqtisodiyotini barqaror o‘stirishning muhim va qudratli vositasiga aylantirishga zamin yaratdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xalqaro hunarmandchilik festivallarini o‘tkazilishi hunarmandchilik turizmini rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. 2015 - yilda YUNESKO bilan hamkorlikdagi “Atlas festivali”, 2016 - yildan buyon Qo‘qon shahrida o‘tkazilayotgan “Madanga muhrlangan qo‘shiq” hunarmandchilik festivallari turizm targ‘ibotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Farg‘ona vodiysi hunarmandchilik turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori mintaqalardan biri hisoblanadi. Xususan, respublikada tayyorlangan naqqoshlik, kulolchilik, do‘ppido‘zlik buyumlarining 70 foizi vodiy mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Pichoqlar tayyorlashning 75 foizdan ortig‘i aynan Farg‘ona vodiysiga to‘g‘ri keladi. Fag‘ona vodiysida hunarmandchilik turizmini rivojlantirishda Chust, Shahrixon, Qora-SU pichoqchilik markazlari tomonidan tayyorlangan pichoqlar yarmarkasi tashkil etilib kelinmoqda.

Shu o‘rinda madaniy qadriyatlarimiz targ‘ibotida etnoturizmning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan hunarmandchilik turizmi muhim ahamiyatga ega. Chunki hunarmandchilik sohasini yuksaltirmay, turizm industuriyasini to‘laqonli rivojlantirish mumkin emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda turizm tarraqqiyoti, shuningdek turizm taraqqiyotida hunarmandchilikning tutgan o‘rni xususida bir qator tadqiqodlar amalga oshirilgan. Jumladan T.Safarova, M. Mansurov, A. Jumayev, G’.Haydarovlar o’z tadqiqodlarida

rivojlanib borayotgan turizm taraqqiyotida hunarmandchilik sohasini rivojlantirish, xususan pichoqchilik hunarmandchiligiga ma’lum darajada to‘htalib o‘tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizga turistlar oqimini ko‘payishi natijasida hunarmandchilik mahsulotlarining ishlab chiqarishni ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Sayyohlar mablag‘larining 30 foizini hunarmandchilik buyumlari va san’at asarlarini xarid qilishga sarflashini inobatga oladigan bo‘lsak, tashqi turizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o‘rni katta ekanligi ma’lum bo‘ladi. Tashrif buyuruvchi sayyohlar mintaqada istiqomat qiluvchi xalq madaniyatining san’at, ilm-fan, din va tarix, hunarmandchilik kabi unsurlariga katta qiziqish bildirmoqda. Bu esa etnomadaniy turizmni yaxshilashga madaniy va tabiiy merosning resurs salohiyatini talab qiladi. Turli xalqlar ijodini, shu jumladan milliy hunarmandchilik turlarini o‘rganish etnomadaniy turizmning ajralmas qismidir. Milliy hunarmandchilik buyumlarida xalqning buguni va o‘tmishi, ma’naviy hayotining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Asrlar davomida shakllanib kelgan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Xalq hunarmandlari qo‘lida eng oddiy materiallar: metall, suyak, temir, zig‘ir, yog‘och san’at asarlariga aylantirildi[5].

Xalqimiz o‘zining hunarmandchilik san’ati tarixida yirik bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bosqich o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlar bilan farqlanadi. Shu bilan birga, mahalliy an’analarning yangi asoslarda qo‘shilish va uyg‘unlashuv uslublarida taraqqiy etganligi kuzatiladi[6]. Har bir hududda mavjud hunarmandchilik turlari o‘ziga xos uslublar bilan ajralib turadi. Shu orqali nom qozonib odamlarda qiziqish uyg‘otadi. Masalan Chust, Shahrixon, Qora-Su, Qo‘qon pichoqlari, Rishton kulolchilik mahsulotlari, Marg‘ilon kashtachilik, to‘qimachilik kabi hunar turlari bilan mashhur bo‘lib, tayyorlangan mahsulotlarini zamon talabiga moslab, milliylik ruxini aks ettirib mahalliy va xorijiy fuqarolarga taqdim etilmoqda.

Farg‘ona vodiysining Chust Andijon, Shaxrixon, Qo‘qon kabi pichoqchilik markazlarida usta hunarmandlar xonadonida uy muzeylari tashkil etilgan. Ushbu xonadonga tashrif buyurgan sayyohlar uchun hunarmandlar mahsulot tayyorlanish jarayonini ko‘rsatib berishi yo‘lga qo‘yilgan. Farg‘ona vodiysining mashhur pichoqchilik hududlari Chust va Shahrixon pichoqchilik markazlarida ham 10 ga yaqin uy muzeylari tashkil etilgan bo‘lib, tashrif buyurgan mehmonlar uchun pichoq tayyorlash bo‘yicha master-klaslar ko‘rsatib berish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa o‘zlari yasagan mahsulotlar reklamasida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona vodiysi hunarmand ustalarining ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida, 1998 - yilda “Usto” jamiyati filiali tashkil etildi. Turistlarni aksessuar buyum sifatida qadrlanadigan pichoqchilikning Farg‘ona vodiysida Shahrixon, Qorasuv va Andijon, Qo‘qon va Chust maktablari mavjud. Andijon viloyatidagi Qorasuv pichoqchilik maktabi vakili usta Hamidullo Asqarov tomonidan tayyorlangan naqshinkor pichoqlar Malayziya, Rossiya, Isroil, Angliya, davlatlariga eksport qilinmoqda hamda O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm turistik markazlarida ham aksessuar sifatida hunarmandchilik savdo rastalarida sotish yo‘lga qo‘yilgan [7].

Shuningdek, Qorasuvlik Abdumalik Muhiddinov oddiy pichoqchilik hunarini san’at darajasiga ko‘tara oldi. Usta “yorma kumush sardasta”, “suqma chilmiha” dastali, “qozoqcha”, “tolbargi”, “qayqi” kabi pichoq va qilichlari bilan Chexiya, Isroil, Fransiya va Tojikistonda tashkil etilgan xalqaro tanlovlarda qatnashgan, hamda 2014 - yilda ustaning xonadonida uy mehmonxonasi va muzeyi tashkil etilishi natijasida sayyohlar uchun master-klasslar tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan.

Chust pichoqchilik maktabining peshqadam pichoqchi ustalaridan biri Raximjon Ubaydulluyev xam uy muzeyi tashkil etgan bo‘lib. Bugungi kunda ko‘plab maxalliy va xorijiy turistlarga milliy pichoqlar tayyorlab berish bilan birgan AQSH, Angliya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Yaponiya davlatlariga eksport qilib kelmoqda[8].

Andijon viloyatidagi Shahrixon pichoqchilik maktabi vakili Bahodir Yo‘ldoshev 1998 - yilda ilk bor pichoqchilik uy muzeyi va mehmonxonasini tashkil etish natijasida usta tayyorlagan brend pichoq, xanjar, qilichlar tayyorlash jarayonlari bilan turistlarni tanishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 2011 - yilda qadimiy “Damashq po‘lati”ni qayta ishlash texnolologiyasini o‘zlashtirishi natijasida usta mahsulotlari va ish jarayonini ko‘rish maqsadida hatto AQSH, Angliya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Yaponiya va boshqa xorij davlatlaridan ham muntazam sayyohlar kelmoqda. Sayyoh va soha vakillarini “Damashq qilichi” nomi bilan mashhur asli qadimiy Axsikentda tayyorlangan qilich, xanjar va pichoqlarni qanday yasalishi jarayonlari qiziqtirib kelmoqda. Izlanishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, bir “Damashq qilichini” tayyorlash uchun 700 martadan ko‘p qo‘ldan qo‘lga o‘tishi natijasida uning tig’ida o‘ziga xos naqshlar aks etishi bilan boshqa turdagi qilich va pichoqlardan farq qiladi. Shahrixonlik Nosirjon Alixo‘jayev izlanishlari natijasida 2013 - yilda yo‘qolib ketgan qadimiy Isfaxon qilichi qayta tiklandi. Ustaning ish jarayoni va uy muzeyi bilan tanishishtirish maqsadida turizm marshrutlar reyestriga kiritildi.

Bugungi kunda turizm sohasini rivojlanishi va turistlarni mumkin qadar mamlakatimizning diqqatga sazavor joylariga olib borish yo‘lga qo‘yilgan. Shu o‘rinda Chust, Shahrixon, Qorasuv, Qo‘qonda ishlangan pichoqlar milliy shaklining nafisligi, ixcham va o‘tkirligi bilan qadrlanadi. Shuni inobatga olib sayyohlik dasturi doirasida Chust - Shahrixon - Qorasuv - Qo‘qon shaharlari bo‘ylab 3 kunlik turpaketi doirasida vodiy pichoqchilik markazlari bilan sayyohlarni tanishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Lekin, Andijon viloyatida Shahrixon va Qorasuv shaharlarida mehmonxonalarni yetarli darajada tashkil etilmagani, yo‘l infratuzilmasi, kafolatli transport tizimining mavjud emasligi soha rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[9].

Namangan viloyatining Chust shahri “Ochiq osmon ostidagi temirchilik muzeyi” sifatida sovg‘a pichoqlari bilan mashhur bo‘lib, Chust pichoqlari Hindistonning Dehli, Turkiyaning Izmir, Polshaning Poznan, Suriyaning Damashq shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarida namoyish etilgan. Chust tamg‘asi bilan 20 dan ortiq betakror brend pichoqlar suvenir sifatida har oy 30-50 ming dona ishlab chiqariladi[10]. Dondon sopli, kumush gulbandli “Esdalik uchun Chust” yozuvli pichoqlar sayyohlar tomonidan suvenir sifatida xarid qilinmoqda. Chust pichoqchilik maktabining yirik vakillaridan biri Sodiq Mamajonovning milliy qadriyatlarga tayangan holda 10 xil pichoq, 4 xil qilich, 5 xil xanjar, dubulg‘a va qalqonlar hunarmandchilik turizmining yorqin brendi sifatida ham e’tirof etilmoqda. Usta tomonidan Chust pichoqchilik maktabi an’analarini targ‘ib qilish maqsadida muzey va mehmon uyi tashkil etilgan. Ustaxonada usta tomonidan sayyohlar uchun muntazam master-klasslar tashkil etib kelinmoqda.

2000 - yil aprelda Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston xalq hunarmandlari va amaliy san’at mahsulotlari yarmarkasida Qo‘qon, Chust, Andijon, Shahrixon, Qorasuv pichoqchilik maktablari vakillarining ishtirok etishi hunarmandchilik turizmi rivojida hamda yo‘qolib ketish yoqasiga kelib qolgan Qo‘qon

pichoqchilik maktabining saqlab qolishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qo‘qonlik pichoqchi Hasanjon Umarov Qo‘qon pichoqchilik an’analariga xos bo‘lgan uslubda “dudama”, “qo‘shpichoq”, “o‘roqi”, “sollohiy”, “mardona” kabi pichoq turlarini suvenir sifatida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi hamda 2007 - yilda usta faoliyatini sayyohlarga namoyish qilish maqsadida uy muzeyi va ustaxonasi tashkil etdi. Usta uy muzeyiga Fransiya, Germaniya, Bolgariya, Vengriya va Malayziya kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurmoqda. Bugungi kunda hunarmandchilik mahsulotlari savdosida 45% mamlakatimiz bo‘ylab sayohat qiluvchi xorijiy turistlar hisobiga to‘g‘ri kelsa, 25% xalqaro ko‘rgazmalar doirasida amalga oshirilmoqda. 5% savdo esa onlayn tarzda amalga oshirilmoqda. Qolgan 25% esa mahalliy aholi tomonidan xarid qilinadi[11].

Bugungi kunda pichoqchilikda o‘zgarishlar zamon talabiga moslab borilmoqda. Sababi bozor talabaga qarab ustalar pichoq tayyolashmoqda. Ichki va tashqi turizmni rivojlanishi natijasida pichoq ko‘rinishlari va vazifalarida o‘zgarishlar bo‘ldi. Sababi turistlar hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilish jarayonida ko‘proq qo‘l mehnati orqali yasalgani va bezatilish uslubiga qarab xarid qilishmoqda.

O‘zbek milliy pichoqchiligini rivojlanishida qinning (g‘ilof) axamiyati ham katta sanaladi. Pichoq yasash bilan qin yasash alohida hunar hisoblanadi. Bu an’ana bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Qadimdan qinning poynagi kumush, tilla kabi materiallardan tayyorlangan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bu kabi pichoq qinlari istalgan odamni o‘ziga jalb etishi mumkin. Hozirgi kunda ham Turistlarga tayyorlanadigan suviner pichoqlar uchun maxsus qin va pichoqdonlar yasab beriladi. Bunday mahsulotlarga bo‘lgan talab yuqori sanaladi [12]. Tayyorlangan qinlar va pichoqdonlar tashqi tomonini bezatishda milliy naqshlardan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek Pichoq qinlarini rangli toshlar qadalishi natijasida xaridorning unga bo‘lgan qiziqishini yanada ortiradi.

Hozirgi kunda turizmni rivojlantirishda milliy pichoqchilik san’atini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Chunki sanoat mahsulotlari mahalliy hunarmandlar faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Hunarmandchilikni, xususan milliy pichoqchilik asrab, uning bardavomligini saqlash uchun, avvalo, turizmni rivojlantirish kerak. Shundagina ming yillik madaniy meros an’analari saqlab qolinishi mumkin. Hunarmadchilik turizmini rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, turistik resurs sifatida milliy hunarmadchilikni kelajak avlod manfaatlarini ko‘zlagan holda asrab qolishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki turizm xalqlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy integrasiyasi, insonning dunyoni bilishga ehtiyoji oqibatidir. Tarixiy-madaniy jarayonlar, umuminsoniy sivilizasiyalarni shakllantirish, etnos va xalqlarning o‘zaro aloqalarini o‘rnatish, bir-birining madaniyatini o‘rganishini ta’minlash omilidir. Shu o’rinda hunarmandchilik turizmi rivojlanishi yangi ish o’rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omildir. Hunarmandchilik turizmi hunarmandchilik an’analari va turlarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda milliy pichoqlarga bo‘lgan e’tibor va ehtiyoj turistlar tomonidan ortib bormoqda. Mamalakatimizning eng ko‘p turistlar tashrif buyuradigan shaxarlari Samarqand, Buxoro, Xorazm hududlariga ham bugungi kunda Chust, Shaxrixon, Qo‘qon kabi yirik pichoqchilik maktablari tomonidan tayyorlangan pichoqlar yetkazib berilmoqda. Bundan tashqari xorijiy davlatlarga ham boshqa hunarmandchilik mahsulotlari kabi milliy pichoqlar ham eksport qilinmoqda. Bugungi kunda milliy hunarmandchiligimizni jumladan pichoqchilik sohasini rivojlantirish va tarraqqiy ettirish dolzarb vazifalardan sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/docs/3077025.
2. https://lex.uz/docs/-3551112
3. https://lex.uz/docs/-5283956
4. https://lex.uz/uz/docs/-5825004
5. Сафарова Т. Этномаданий туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-маданий омиллари (Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация) –Т.,2022. –Б.30.
6. Ҳайдаров Ғ. Ўзбекистонда миллий анъанавий санъатнинг совет ва мустақиллик даврида ривожланиши тарихи (Фарғона водийси ҳунармандчилиги мисолида) Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссетация. – Т.,2011. – Б. 24.
7. Ортиқова М. Ҳунармандлар шаҳри – Т.Зарыалам, 2006. – Б.19.
8. Дала ёзувлари Наманган вилояти Чуст тумани Чуст шаҳри 2022 йил (пичоқчи уста Раҳимжон Убайдуллаев билан ўтказилган суҳбат).
9. Мансуров М. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 й.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.,2020. – Б. 108.
10. Нурматов Ш.М. Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-географик хусусиятлари – Т.:Фан, 2013. – Б. 39.
11. Жумаев А. Туризм соҳасини ривожлантиришда миллий ҳунармандчилик ўрни // E-Journal.uz, 2022.
12. Дала ёзувлари Фарғона вилояти Қўқон шахар 2022 йил; Андижон вилояти Шахрихон тумани 2022 йил.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:93 (63)

Yaxyo OMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix insituti stajyor-tadqiqotchisi

Qo‘qon DPI dotsenti, Tarix fanlari doktori G.Raximova taqrizi asosida

NAMANGAN VILOYATIDA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Maqolada Namangan viloyatining yyengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatidagi kamchiliklari, belgilangan rejalarni bajarilishiga oid muammolar va masalalar yoritib o‘tilgan. Yengil sanoat korxonalardagi texnik xatoliklarni qoplashda ishchilarning maoshlaridan foydalanish va daromadning pastligiga nisbatan jarimalarni joriy etilishi kabi masalalar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Tekstil, tikuvchilik, korxonalar, artellar, Namangan, jarima, besh yillik reja, daromad.

РАЗВИТИЕ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В статье выдено недостатки в производственной деятельности предприятий легкой промышленности Наманганской области, проблемы и вопросы, связанные с выполнением установленных планов. Описаны такие вопросы, как использование заработной платы рабочих для компенсации технических ошибок на предприятиях легкой промышленности и введение штрафов за низкий доход.
Ключевые слова: Текстиль, швейное производство, предприятия, артели, Наманган, штраф, пятилетка, доход.

DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRIES IN NAMANGAN REGION

Annotation

The article highlights shortcomings in the production activities of light industry enterprises in the Namangan region, problems and issues related to the implementation of established plans. Issues such as the use of workers' wages to compensate for technical errors in light industry enterprises and the introduction of penalties for low income are described.
Key words: Textiles, garment production, enterprises, artels, Namangan, fine, five-year plan, income.

Kirish. Sovet davlati hukmronligi yillarida O‘zbekiston SSRning bir tomonlama rivojlantirilishi, ya’ni paxta sohasini rivojlantirish bilan bog’liq sanoat tarmoqlari shakllantirildi. Qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish sovet ittifoqining aynan besh yillik rejalarida ko‘rinardi. O‘zbekiston SSRda barcha viloyatlar va tumanlar sanoat iqtisodiy majmualariga aylantirildi. Tabiiy resurslari va aholining yashash sharoitlari sanoat rivojida arzimas masala bo‘lib e’tirof etildi. Sanoat tarmoqlari ichida yengil sanoatning rivoji katta ahamiyat kasb etsada, o‘lkada og’ir sanoatga alohida e’tibor berildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Sovet davlati hukmronligi yillarida ko‘plab tadqiqotchilar yyengil sanoatning ko‘plab tarmoqlari xususida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, sovet davlati hukmronligi yillarida yengil sanoatning pillachilik, paxta tozalash, oziq-ovqat va tekstil korxonalari faoliyati to‘g‘risida B.Kurmanov, G.Sarimsoqova, G. Ubaydullaeva, I. Iskandarovlar [1] ilmiy izlanishlar olib bordilar.

B. Kurmanovning fikricha, sovet hokimiyati o‘lkada Ijtimoiy ishlab chiqarishni faollashtirish va samaradorligini oshirishda muhim omillaridan biri besh yillik rejalashtirish rolini oshirish, tejamkorlik rejimini kuchaytirish va xarajatlar hisobini kuchaytirish, iqtisodiyotni boshqarish usullarini takomillashtirish, tashkiliy tuzilmani takomillashtirish orqali boshqaruvni takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Ko‘plab chiqarilgan chora-tadbirlar tizimida ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etishning ilg'or shakllari ishlab chiqarish birlashmalari muhim o'rin tutadi[2] - deya ta’kidladi. Darxaqiqat sovet hokimiyati besh yillik rejalar asosida barcha davlatlarni boshqarib keldi. Sanoatning barcha tarmoqlari besh yillik rejaning nazaridan chetda qolmadi.

G.Sarimsoqova tadqiqotlarida yengil sanoatning boshqaruvi “KPSS XXI-syezdi manbalari faqatgina o’lkaning moddiy resurslar zaxiralarini aniqlash, ulardan maqbul foydalanishning ahamiyati va zarurligini ochib berish va iqtisodiyotni boshqarishning hozirgi bosqichida mahsulotning moddiy iste'molini kamaytirish sotsializm samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini aniqladi. Yengil sanoatda ishlab chiqarish qoidalari KPSS Markaziy Komitetining qarorida yanada rivojlantirildi”[3] - deb ta’kidladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Kommunistik partiyasining 1921 - yil avgust oyi VI s’ezdida O‘zbekiston sanoatini tiklash, iqtisodiyotda ishchi va dehqonlarning boshqaruvini takomillashtirish birinchi vazifa etib belgilandi [4]. O‘lkaning ko‘plab hududlaridagi mayda korxonalar davlat ta’sarrufiga o’tkazilishi, tez orada korxonalarda ishchi va dehqonlarni erkin bo‘lishiga qo‘l keldi. Biroq, sanoat korxonalarning aslida qaramligi va ishlab chiqarish mahsulotlarning nazoratchisi boshqa bo‘lishidan bexabar edi.

Sovet hokimiyati yillari davrida Namangan viloyatida barcha sanoat korxonalari qishloq xo‘jaligi bilan birga rivojlantirilgan. 1920 - yillarga qadar Namangan viloyatida 44 ta katta bo‘lmagan yarim kustar korxonalar faoliyat olib borib, ulardan 25 tasi paxta tozalash va 3 ta yog‘-moy, un, teri tozalash, mo’yna tayyorlash, pilla, pivo zavodlari, turli mayda artellar ishlab kelgan [5].

Namanganda pilla zavodlar mahalliy aholi tomonidan xususiy pillachilik zavodlari faoliyat yuritib kelgan. Biroq, sovet hukmronligi yillariga kelib, hududning barcha pillachilik korxonalari birlashma sifatida davlat ta’sarufiga o’ta boshladi va 1921-1923 yillarda Namangan shahrining markaziy hududlariga pilla zavodlari qurila boshlandi [6]. Jumladan, mahalliy aholi savdogarlari T. Arslonov va O. Ishxanovlarning pilla korxonalari birinchilardan bo‘lib davlat birlashmasiga olingan. Namangan pilla zavodi 1921 - yilning o’zidayoq atrofi kengaytirilib, zavod markaziy pilla korxonasiga

aylantiriladi. Dastlab, 1921 - yilda korxona o’ziga 8 ta qishloq pillachiligini olgan bo‘lsa, 1924 - yilga kelib 10 ta qishloq pillachilik punktlarini bo’ysundiradi. Pila korxonasida ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishi, ko‘plab pillalarni markaziy korxonaga olib kelinishi ishchilarni doimiy ish bilan ta’minlashga qulaylik yaratdi. Shuning ko‘plab Namangan mahalliy mayda pilla korxonalari ishchilari markaziy pilla korxonasiga ishlashga ketib qolib, mayda korxonalar sinishiga olib keladi. Atrofdagi ko‘plab mayda pilla korxonalari o’z ixtiyori bilan markaziy pilla korxonasiga pillalarini topshirishga shartnomalar tuzishadi va 1926 - yillarda mayda pillachilik korxonalari Namangan markaziy pilla korxonasi ta’sarufiga o’tib ketadi. Bunday holat o’z navbatida Namangan markaziy pilla korxonasini yuksalishiga sabab bo‘ladi. 1927 - yilda Namangan markaziy pilla korxonasi “Turksholk” aktsiyadorlik jamiyati hisobiga o’tkazilib, uning qonuniy egasi sifatida rus savdogari Zashitnikov Aleksandr Sergeyevich shahsiy mulkiga aylantiriladi [7]. 1924-1925 yillarda Namangan pilla korxonasi 2 tonna, 1927-1928-yillarida 17 tonna, 1930 - yillarida 78 tonna pilla xomashyosini davlatgaga topshirgan [8].

Ammo ushbu birlashgan pilla zavodi 1930 - yilda mahalliy aholi savdogarlari T. Arslonov va O. Ishxanovlarning korxonalari ham to‘liq tugatilib, korxona davlat ta’sarrufiga o’tkaziladi va Namangan pilla zavodiga aylantiriladi. Pilla zavodining rahbari etib Ionidi Konstantin tayinlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results) 1925 - yillarda Namanganning ko‘plab yengil sanoat tarmoqlari rivojlantirildi, biroq korxonalarda ishchi kuchlarining etishmasligi ko’zga ko‘rinardi. Namangan shahri bosh korxona boshqaruv organlari tomonidan ishchilarning etishmaligi to‘g‘risida va rejalarni bajarilishida muammolar yuzaga kelayotgani to‘g‘risida murojatlar bildirilgan. 1925 - yil 5 - sentyabr oyi № 553-sonli xatida Namangan shahri paxta, yog‘-moy, qurilish va tekstil zavodlarida ishchi kuchlari etishmaydi. Mehnatga haq to‘lashda o’zgarishsiz maosh to‘lanishi ko‘plab sanoat korxonalarining davlat bilan tuzulgan shartnomalariga kiritilgandi. Shuning uchun ishchilarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda, korxonada kam chiqim va ishlab chiqarish jarayonlarini to’xtab qolmasligida mahbuslar mehnatidan foydalanishga ruxsat berishlarini so‘rashadi. Markaziy boshqaruv (ЦП Союз Текстилщиков) tomonidan kollektiv shartnomalari asosida ishchilarni qabul qilinishini va maosh ish yuklamasi asosida to‘lanishiga ruxsat beradi. Biroq, 1925 - yil 18 - sentyabr oyi № 564-sonli murojatida Tekstillar Markaziy boshqaruv ittifoqi (ЦП Союз Текстилщиков) tomonidan barcha ishchilarning maktab yoshidagi bolalarini rus maktablariga berilishini va bu jiddiy nazoratga olinishini talab etib murojatnoma yuboriladi. Bunday jarayon bir tomondan bolalarni savodli bo‘lishga chaqirsada, boshqa tomondan ruslashtirish siyosatining avjlanishi davri bo‘lganligidan darak berardi.

Paxta tozalash, yog‘-moy va tekstil korxonalarida barcha ombor mudirlari va boshqaruv tizimida rusiy zabon millatlar ishlab kelgani ma’lum edi. Jumladan, 1925 - yilgi hisobotlarda № 32 paxta tozalash zavodi direktori Dorman Markus Neiseevich, bosh hisobchi Akimov Nikolay Akimovich, kassa Lifanov Yefim, savdo bo‘limi boshlig’i Timofeev Feder Ivanovich, №33 sonli paxta tozalash zavodi direktori Kotlyarovskiy Nikolay, bosh hisobchi Burnashev Ibragim va boshqalar[9] yuqori lavozimlarda ishlab kelishgan.

Tekstillar Markaziy boshqaruv ittifoqi doimiy ishchilar orasidagi millatlarni ham nazoratga olib turildi. Masalan tojiklar, yevropa millatiga xos ishchilar va o‘zbek millati ishchilarni alohida bo‘limlarda ishlashini ta’minlash so‘ralgan. Ular sonini ishlash jarayonlarida 20 foizdan oshmasligi talab etib kelingan. Ayniqsa batrak ishchilarga alohida ahamiyat va nazorat o‘rnatilgandi. Mahalliy aholi va batraklarning maoshlari bir xilda past darajada ushlab turilgan. Ishlab chiqarish mahsulotlari nazorati ham jiddiy bo‘lgan. Korxonaga yetkazilgan zararlarni qoplashda ham mahalliy aholining ish xaqlaridan foydalanish barcha korxonada urf edi. 1926 - yilda O‘zbekiston SSRda mayda sanoat va hunarmandchilik korxonalari yalpi sanoat mahsulotining 42 foizini tashkil etgan. SSSR miqyosida esa O‘zbekiston 22.4 foizini tashkil etardi. Sanoatni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston SSR qardosh respublikalar orasida qoloq bo‘lib kelgandi. Ushbu korxonalarda ishchi kuchlari etishmagan, shuning uchun zavodlarda ishchilar og‘ir mehnatda ishlab kelib, texnik ta’minoti ham talab darajasida bo‘lmadi. Biroq, sovet davlati besh yillik rejalari bunday masalalarni inobatga olmas, yildan-yilga besh yillik rejalar asosida majburiyatlarni belgilab kelardi. Markazning asosiy boshqaruvi shundan iborat ediki, yuqori sotsialistik jamiyat qurilishi bilan 1930-yillarning o‘rtalarida boshlangan proletariat diktaturasi sovet davlatining butun davlatga aylanishi va shu bilan birga, ishchilar sinfining jamiyat va uning siyosiy tizimidagi etakchi ekanligini o‘qtirish orqali xalqlarni birlashtirib keldi. Shunday qilib, Sovet davlati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga - butun xalq davlati bosqichiga kirdi. Sovet davlatining qudratli hokimiyatga aylanishining mohiyati, sanoatda, ta’limda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida dehqonlar, ziyolilar va boshqa qatlamlarni birlashtirish edi. Lekin, sanoatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuzaki baland parvoz tadbirlar qog‘ozlarda qolib ketdi. Besh yillik rejalarning barbod bo‘lishi ham sanoatdagi moddiy-texnik ta’minotning yetarli bo‘lmasligida namoyon bo‘ldi.

1926 - yillarda Namangan viloyatining ko‘plab hududlarida yyengil sanoatning tarmoqlari bo‘lgan artelllar faoliyat ko‘rsatib kelgan. Jumladan, Namangan viloyatining sanoat korxonalarida ishchilar etishmasligi ko‘zga ko‘rinib, ishlarning to‘xtab qolganligi va ishlab chiqarish hajmini past darajaga kelib qolganlik holatlari yuzaga kelgan. Masalan, Namangan viloyatining paxta tozalash korxonalarida 33-40 foiz ishlab chiqarish mahsulotlar sifatsiz va qolaversa mahsulot tayyorlashda belgilangan rejani 50 foizi bajarilmay qolgan. Namangan № 32-va № 33 paxta tozalash zavodlarida 136 ga yaqin ishchilar ishlab kelgan, lekin ularning ishlash jarayonlarida og‘ir mehnatiga qo‘shimcha haq to‘lanmagan. Paxta tozalash zavodlarida paxtani changlardan tozalash bo‘limlarida ishchilar tungi smenalarda qo‘shimcha ishlab keligan. Ishchilarning changlardan zararlanish holatlari umuman inobatga olinmadi. Qolaversa sentyabr va oktyabr oylarida zavodda ish jarayonlari sezonlari boshlangan, shunda ham qo‘shimcha ishchilar ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilmaydi. Mehnatning og‘ir turlarida ham ishchilar ikki smenada ishlab kelavergan. Namangan viloyatining № 22 sonli paxta tozalash zavodidida ham ishchilarni etishmasligi sabab kuz fasli ishlab chiqarish 33 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari sanoat korxonananing texnik jihatdan past ya’ni 45 foiz texnik taqchilligi ishlab chiqarish jarayonlarini suskashlik bilan olib borilishiga sabab bo‘ladi.

Paxta tozalash zavodlardagi ishlarning orqaga ketishi rahbarlarni ham tashvishga solib kelgan. Namangan viloyatining №32 sonli paxta tozalash sanoat korxonasi rahbari M. Maroziqov 1926 - yil 27 - fevralda SSSR Promindustroy komissiyasiga xat jo‘natadi[10]. Unga ko‘ra zavodda ishlab chiqarish hajmini past bo‘lishiga texnik ta’minotni pastligi, zavodda chang tozalash 2 dona, suvlarni haydash ventilyatori 1 dona, 2 dona traktor, paxta press stanogi 1 dona, chang barabanlari 2 dona, paxta yuk ortish mexanizmi 2 dona ishlab kelayotgani va ish jarayoniga xar bir texnikaning 10 barabarga ortirib berilishini talab etib murojatnoma yuborilgan. Namangan Chortoq paxta tozalash sanoat korxonasida ham texnik ta’minotning pastligi va ishchilarni ishlash jarayonlari og‘ir kechayotgani haqidagi maktub va murojatnomalar yuborilgan. Jumladan, Namangan viloyatining Chortoq paxta tozalash zavodida 1926 - yil 30 -

oktyabrda ishlar qizg‘in davri bo‘lganligi va zavodda 3 ta traktor mavjud bo‘lib, ulardan texnik qismlari etishmasligi munosabati bilan atigi bittasi ishlab kelayotganligi, paxtalar tashishda ishlar orqaga ketish holatlari kuzatilayotganligini xabar berib, zavod ishlari uchun 5 ta traktor so‘rab murojatnoma yo‘llagan. Paxta tozalash zavodlarida texnik ta’minotning yetishmasligi qo‘l mehnatiga bo‘lgan talabni oshirgan. Paxta tozalash zavodlarida hatto qo‘l mehnati rivojlanganligidan ishchilar orasida voyaga etmagan bolalar ham uchrab turgan. Jumladan, Qum-qo‘rg‘on, Qo‘rg‘on va Jiyda Kapa tuman paxta tozalash zavodlarida voyaga etmaganlar mehnatidan foydalanib kelingan. Shundan so‘ng paxta tozalash sanoat korxonasini nazorat qilish bo‘yicha Moskvadan N. Oxotnikov boshchiligida nazoratchilar guruhi tashrif buyurishadi. Nazorat guruhi №32-sonli paxta zavodda bo‘lib barcha xizmat traktorlarini va zavodning texnik ta’minoti, texnik ko‘riklarini nazoratdan o‘tkazishdi. Nazoratchilar barcha paxta tozalash zavodidagi ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni ko‘rib, zavodda ishlab chiqarish jarayonlari nosoz holatda ekanligini, texnik taqchilligi, zavodning o‘zi ham ta’mir talabligiga amin bo‘lib, o‘z hisobotlarini paxta tozalash zavodi yaroqsiz ekanligini ta’kidlab o‘tadilar. Biroq barcha sanoat korxonalari se’zdlar va muhokama majlislarida rejalarni bajarilishi tanqid qilinsada, sanoat tarmoqlaridagi kamchiliklar yaxshi sur’atlarda ketayotganligi ta’kidlanardi.

1930 - yil iyun oyida O‘zbekiston K(b)Pning V syezdi bo‘lib o‘tadi. Syezd xalq xo‘jaligi mahsulotining umumiy hajmida sanoat mahsulotning salmog‘i ancha o‘sganligi, sanoat qurilishi sur’atlari yaxshilanganligini, to‘qimachilik, shoyi, ximiya, mellurgiya sanoatining yangi tarmoqlari yuqori darajada rivojlaganligini, shuningdek, gidro va issiqlik elektr stansiyalari vujudga keltirganligini qayd qilib, muvaffaqiyatlar ishchilar sinfining faolligi, uning ijodiy tashabusi benihoya o‘sganligi natijasida qo‘lga kiritilganligini ta’qidlangan. Shu bois besh yillik rejalarga daromadlarni yanada kuchaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan.

O‘zbekiston K(b)P VI syezdining qarorlarida esa, O‘zbekiston SSRning sanoati (paxta tozalash va yog‘ sanoatidan tashqari) birinchi besh yilik boshlanishiga qadar asosan kustar sanoatidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, besh yillik rejalarni o‘z vaqtida bajarilishi natijasida “fabrika va zavodlar sanoatning boshqaruv shakli bo‘lib, kustar sanoatini kooperativlashtirish asosida bu sanoatdagi bir qancha korxonalarni davlat sanoatining qo‘shimcha sanoatiga aylantirildi”. Ko‘plab mayda hunarmandchilik kooperativ korxonalar davlatning sanoat tarmoqlariga kiritila boshlandi. Kichik tekstil artellar esa sexlarga aylantirilish tizimi boshlangan. Ba’zi mayda hunarmandchilik korxonalarning davlat tasarrufiga o‘tishi og‘ir sanoat tarmoqlariga ham ta’sir eta boshlagandi.

Birinchi besh yillik davrida O‘zbekiston SSR sanoatining strukturasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Quyidagi ma’lumotlar buni ko‘rsatdi (foiz hisobida)[11].

Sanoat tarmoqlari	1927/28y	1932y.
Og‘ir sanoat	3,3	8,9
Shu jumladan mashinasozlik	-	1,3
Engil sanoat	74,8	69,3
Shu jumladan paxta tozalash sanoati	66,1	46,6
Oziq-ovqat sanoati	21,0	21,8

1931 - yillarda sanoat tarmoqlardagi o‘zgarishlar, ya’ni og‘ir sanoatga e’tiborning kuchayib borishi, yengil sanoatdagi texnik ta’minotning o‘z vaqtida ta’minlanmaslik holatlarini yuzaga keltirgan. Yengil sanoatdagi texnik taqchilliklar korxonaning ish hajmini ortishiga, mahsulotning sifati va ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta’sir etardi.

Tekstil korxonalarida yildan-yilga majburiyatlar ko‘payib bordi. Korxona rahbarlari tomonidan ushbu belgilangan rejalar bajarilmasa hatto Oliy sud tomonidan qamoq jazolarigacha jazolar belgilangan. Masalan, 1932 - yilda Namangan oblastining “O‘rtoq” nomli tekstil korxonasi bo‘lgan artelda yillik rejani bajarmay, 707 rubl 76 tiyin daromadni yo‘qotishi hisobiga korxona rahbari X.Qodirovni jarimaga tortiladi va lovozimidan ozod etilgan[12]. Bundan tashqari ishchilari O.Boymatov, Sh. Ismoilovlarni jarimaga tortilib o‘z lavozimlaridan ozod etiladi. Namangan oblastining boshqa tekstil korxonalarida g‘am rejani bajarilishi bo‘yicha turli choralar ko‘rib kelingan. Namangan oblastining “Birlashgan Ittifoq”, “Birlashgan”, “Imorat”, “Qo‘shish”, “Qizil Bolg‘a” tekstil korxonalarida ham rejalarni bajarilmagan farqlari bo‘yicha jarimalar belgilangan. Bunday sharoitda ham ishchilarni zavod mashina-uskunalaridan samarali foydalanish va xomashyo resurslarini tejashga da’vat etilardi.

1938 - yilda Namangan tekstil artellarida ishlab chiqarish jarayonlarida sustkashlik holatlari bo‘lib, ishchi kuchi etishmaslik holatilari mavjud bo‘ldi. Masalan, Namangan oblasti “Internatsional” tekstil artelida 18-20 kishigina ishlab kelgan. Artelda ishlar og‘ir kechgan, ishchilar asosan qo‘l mehnatiga asoslanib o‘smirlar uchun mayka, futbolka, ich kiyimlar, mahsulotlarni bo‘yash kabi ishlarni bajarib kelishgan. Ishchilar maoshlari esa o‘z vaqtida berilmas va maosh juda past bo‘lib, ishchilar tez-tez ishlarni tashlab ketib qolardi. Markazning belgilagan besh yillik rejalari o‘z vaqtida bajarilmasligi artelning rahbarlarini moddiy jazolarga tortilishiga olib kelgan. Biroq, rahbarlar sexlarda ishchi kuchi etishmasligi va ish haqqi miqdorining pastligidan norozi bo‘lib Uzbektekstilpromsoyuz birlashmalarida murojatnomalar yuboradi. Masalan 1938 - yil 1 - dekabrda “Internatsional” arteli direktori M. Xudoyberdiev Uzbektekstil promsoyuzga murojatnoma bilan chiqdi. Murojatnomada, “ishlab chiqarish korxonada ishchilar etishmaslik kasalligi mavjud, chunki, ishchilarga ish xaqqi yetarli bo‘lmayapdi, bundan tashqari korxonada Marg‘ilon tekstilsoyuz birlashmasidan mahsulotlar yetarli darajada kelmaydi. Shuning uchun 1-2 kvartalda ishlar samarali amalga oshirilmay kelmoqda. Korxonada stanoklar ta’mirtalab, texnik qismlar etishmaydi. Ishchilar maoshlaridan texnik ta’minotlar taqchilligini kamaytirishda foydalanish ishchilarning korxonadan ketib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun bizga texnikalar ta’miri uchun mablag‘lar ajratishingizni va ishchilar maoshlarini ko‘tarib berishingizni so‘rayman.” Yuborilgan murojatnomaga javoban tekshiruv buyrug‘i yuborilib, nazorat guruhlari tashkil etilgan. Nazoratchilar tekshiruvda haqiatda korxona ta’mir talabligini tasdiqlab o‘tgan, lekin ishchilar ijtimoiy muhofazasi borasida xech qanday so‘z yuritilmagan. Korxonaning hisob bo‘limi fondlarinida ta’mir uchun bir kvartalda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning atigi 20 foizigina ya’ni, 1938 - yil 6 -kvartali bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 144 ming 352 rubl hajmidan 20 foizi 4 ming 028 rubl mablag‘ ajratiladi[13]. 1939 - yil fevral oylariga kelib korxonada mablag‘larni sarf etilishi borasida tekshiruv tashkil etiladi. Korxona tekshiruvlarida aynan 6 kvartalda kam mahsulot ishlab chiqarilishi asos qilinib korxona rahbari ishdan olinadi. Ishchilarga mutaxassis emasliklari ro‘kach qilinib, mutaxasislik personal ta’lim tizimlariga jalb etiladi. Biroq, 1939 - yil 4 - aprelda Namangan “Internatsional” artelida ishchilar uchun qo‘shimcha ustamalar joriy etiladi. Ustamalar orasida voyaga etmagan shaxslar uchun ham mablag‘lar ajratilgan. Ishlab chiqarish kombinatlari uchun mutaxassisi

tayyorlash o‘quv ta’limida tahsil olayotgan voyaga yetmagan ishchilarga alohida ustama joriy qilinsada, ammo ushbu ustamalar hisobchilar tomonida o‘quv ta’limi uchun soliq sifatida ushlanib qolingan. Joriy etilgan ustamalar orasida emizikli ayollar mehnatiga haq to‘lashlar ham amalga oshirilgan. Chunki shu ustamalar orqali korxonada ishchilar sonini ortib borishiga imkon yaratgan. Ammo korxona uchun 1938 - yilga nisbatan 1939 - yilda ishlab chiqarish hajmi 42 foizga oshirilishi, mazkur yildan korxonada sport va maxsus ishchilar kiyimlari ishlab chiqarishiga bo‘yicha Uzbektekstilprom rahbari D. Jo‘rayev tomonidan buyruq beriladi[14]. Namangan oblastidagi sanoat korxonalarning yuqoridan kelgan buyruqlar asosida ishlashi ularning yangi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashiga yo‘l qo‘yilmasdi. O‘zbekiston SSRda yengil sanoatning rivoj topishida ko‘plab qiyinchiliklar va muammolar mavjud edi. Bu muammolar korxona rahbari tomonidan yechismadi, korxona faqat davlat mulki sifatida ittifoq boshqaruviga asoslangandi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida, Namangan oblastining yyengil sanoati rivojlanishga asosan hududning tabiiy resurslarga boyligi bilan amalga oshirildi. Yengil sanoat tarmoqlari bo‘lgan pilla zavodlari mahalliy aholini mayda hunarmandchilik korxonalarini birlashtirish hisobiga dunyoga keladi. Boshqaruv tartiblarida mahalliy aholi oddiy ishchi sifatida maydonda xizmat qildi. Tekstil, paxta tozalash va pilla sanoatida millatlarning nazorati kuchli bo‘lib, ularning birlashish va boshqaruv tartiblarga aralashishiga yo‘l qo‘yilmadi. Yengil sanoatning rivojlanishi sovet hukumatining besh yillik rejalari asosida amalga oshirilardi. Mablag‘lar ham mazkur rejalarga qaram bo‘ldi. Sanoatning moddiy texnik ta’minoti besh yillik rejalar manbasida ko‘rinsada, ammo ularning ta’minoti doimo kechikdi va shuning uchun sanoatdagi ishlab chiqarish usullari o‘zgarib, mahsulot sifati pasayib borgan.

ADABIYOTLAR

1. Курманов Б. Повышение эффективности производственных объединений (на материалах Министерства легкой промышленности Узбекской ССР). Автореф. ...дисс. канд. экон. наук. –Москва. 1983. –С. 26.; Саримсокова Г. Оптимизатсия распределения ресурсов в многоуровневой системе управления отраслю (на примере швейной промышленности Узбекской ССР) Автореф. ..дисс. канд. экон. наук. –Москва. 1984. –С. 27.; Убайдуллаева Г. Имитатсионное моделирование планирования эффективности швейного производства. Автореф. ..дисс. канд. экон. наук. –Москва. 1984. –С. 27.; Искандаров И. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. –Тошкент. Фан. 1974. –Б. 338.;
2. Курманов Б. Повышение эффективности производственных объединений (на материалах Министерства легкой промышленности Узбекской ССР). Автореф. .дисс. канд. экон. наук. –Москва. 1983. –С. 10.
3. Саримсокова Г. Оптимизатсия распределения ресурсов в многоуровневой системе управления отраслю (на примере швейной промышленности Узбекской ССР) Автореф. .дисс. канд. экон. наук. –Москва. 1984. –С. 17.
4. Наманган ВДА. 796-фонд, 1-рўйхат, 2-йиғма жилд, 8-варақ
5. Наманган ВДА. 864-фонд, 1-рўйхат, 203-йиғма жилд, 7-варақ.
6. Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. –Ташкент. Узбекистан. 1964. –С. 73.
7. Наманган ВДА. 129-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 5-варақ.
8. Искандаров И. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. –Тошкент. Фан. 1974. –Б. 18.
9. Наманган ВДА. 129-фонд, 2-рўйхат, 2-йиғма жилд, 2-варақ
10. Ўз МА. 58-фонд, 5-рўйҳат, 446-йиғма жилд, 7-варақ.
11. Наманган ВДА. 127-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 5-варақ.
12. Наманган ВДА. 129-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 5-варақ.
13. Наманган ВДА. 40-фонд, 1-рўйхат, 7-йиғма жилд, 5-варақ
14. Наманган ВДА. 71-фонд, 1-рўйхат, 18-йиғма жилд, 22-варақ

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 63.3; 542.936

Xolmamat RAUPOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktori
tarix fanlari nomzodi, dotsent
E-mail:hr.raupov@ngmk.uz

Navoiy davlat pedogika instituti dotsenti, t.f.n R.Qarshiyev taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF STAFFING THE MINING AND METALLURGICAL INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Abstract
The article describes the unilateral policy of providing Navoi Mining and Metallurgical Company, which is a large enterprise in the mining and metallurgical industry of Uzbekistan, with qualified specialists and workers, as well as the activities of higher and secondary specialized educational institutions created for training personnel.
Key words: Mining and metallurgical industry, qualified specialist, local personnel, institute, technical school, training center, evening and distance learning.

ИЗ ИСТОРИИ КАДРОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация
В статье описаны односторонняя политика обеспечения Навоийского горно-металлургического комбината, являющегося крупным предприятием горно-металлургической промышленности Узбекистана, квалифицированными специалистами и рабочими, а также деятельность высших и средних специальных учебных заведений, созданных для подготовки кадров.
Ключевые слова: Горно-металлургическая промышленность, квалифицированный специалист, местные кадры, институт, техникум, учебный центр, вечернее и заочное обучение.

O‘ZBEKSTONDA KON-METALLURGIYA SANOATINI KADRLAR BILAN TA’MINLASH TARIXIDAN

Annotatsiya
Maqolada O‘zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining yirik korxonasi bo‘lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatini malakali mutaxassis va ishchilar bilan ta’minlash borasida bir tomonlama olib borilgan siyosat, kadrlar tayyorlash bo‘yicha tashkil etilgan oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalar faoliyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Kon-metallurgiya sanoati, malakali mutaxassis, mahalliy kadrlar, institut, texnikum, o‘quv markazi, kechki va sirtqi ta’lim.

Kirish. XX asrning 40-50-yillarida O‘zbekistonning kon-metallurgiya korxonalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash va soha uchun kadrlar tayyorlash masalalari asosan Markaz tomonidan hal qilindi. O‘zbekiston hududidagi kon-metallurgiya kombinatlari uchun ishchi-xodimlar bilan bir qatorda rahbarlik lavozimga ham boshqa respublikalar, asosan, Rossiya va Ukraina oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar maktablarini tugatganlar olib kelindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining yirik korxonalari, jumladan Navoiy kon-metallurgiya kombinatini malakali kadrlar bilan ta’minlash masalalariga oid ma’lumotlar asosan mustaqillik yillarida kon-metallurgiya sohasiga oid chop etilgan nashr va davriy matbuot sahifalarida e’lon qilingan. Keyingi yillarda arxiv hujjatlarining ochilishi natijasida ko‘plab ma’lumotlar olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Muammoni yoritishda tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda muammoviy-xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, 1958-yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tashkil etilishi natijasida soha kadrlariga bo‘lgan ehtiyoj katta edi. Kombinat ishga tushirilishi bilan uni doimiy ravishda malakali kadrlar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Korxona tashkil etilgan kundan boshlab asosan boshqa hududlardan kadrlar olib kelindi va ular yillar o‘tgan sari ko‘payib bordi. 1964-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra kombinatda 8251 nafar ishchi-xodimlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, uning 790 nafarini muhandis-texnik xodimlar, 450 nafarini xizmatchilar, 2928 nafarini ishchilar, 300 nafarini harbiylar va 176 nafarini shogirdlikka olinganlar tashkil etgan. 1964-yilda yana 5109 nafar kishi ishga qabul qilingan, shundan, 3897 nafari ishchilar, 363 nafari muhandis-texniklar, 209 nafari xizmatchilar, 296 nafari shogirdlikka olinganlar va 344 nafari harbiy xizmatdan zaxiraga chiqqanlar va harbiylar bo‘lib, xodimlar soni 12183 nafarga yetgan [1].

Korxonaga zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash juda zarur edi. Respublikani o‘zida ham kadrlar tayyorlash masalalariga e’tibor qaratildi. 1963-yilda Navoiy shahrida kon-metallurgiya va kimyo sanoati korxonalarini malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash maqsadida 1963-yil sentabr oyida O‘rta Osiyo politexnikumining va noyabr oyida Toshkent politexnika institutining kechki o‘quv maslahat punktlari ochildi [2]. Toshkent politexnika institutining kechki o‘quv maslahat punktida to‘rtta: fuqaro sanoat qurilishi, noorganik moddalar texnologiyasi, elektr ta’minoti, metall qirqish va mashinasozlik texnologiyasi mutaxassisliklari mavjud bo‘lgan. 1967-yilda kechki o‘quv maslahat punkti Toshkent politexnika institutining Navoiy umumtexnika fakultetiga aylantirildi[3]. Mazkur fakultetda 1965-1966 yillarda bor-yo‘g‘u 509 nafar talaba tahsil olgan[4]. Kombinat ehtiyojlari uchun 1967-yilda fakultetdagi 479 nafar talaba bilan bir qatorda Navoiy kechki texnikumida 980 nafar o‘quvchi va yosh ishchilar maktabida 1725 nafar, ya’ni jami 2884 nafar kishi tahsil olgan[5].

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, mazkur kechki texnikumda tayyorlanadigan kadrlar to‘liq Ittifoqning O‘rta

mashinasozlik vazirligi ixtiyorida bo‘lgan. Mazkur kechki texnikum direktori va o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari mazkur vazirlik nomeklaturasida bo‘lgan. Vazirlikning 1965-yil 28-iyuldagi 276-sonli bo‘yrug‘i bilan texnikum direktori etib A.V.Vexova, o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosar etib V.K.Malishev tayinlanganligi buning isbotidir [6].

O‘rta mashinasozlik vazirligining 1959-yil 31 - dekabrdagi buyrug‘i bilan kombinat o‘quv markazi qoshida korxona uchun zarur bo‘lgan oddiy ishchilarni tayyorlash maqsadida maktablardagi 9-11-sinf o‘quvchilari uchun kurslar tashkil etildi. 1964-1965-o‘quv yilida mazkur kurslarda 168 nafar o‘quvchilar slesar, metall bo‘yicha tokar, chizmachi-konstruktor kabi kasblarga o‘qitildi [7].

1980-yil mart oyida Buxoro viloyat va Navoiy shahri partiya qo‘mitalarining yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Yig‘ilishda xalq ta’limi, kasb-hunar bilim yurtlari vakillari ishtirok etib, unda kombinat korxonalari uchun mahalliy kadrlarni tayyorlash masalalari muhokama qilindi. Yig‘ilishda mazkur masala bo‘yicha qabul qilingan takliflar viloyat partiya qo‘mitalari va xalq ta’limi, kasb-hunar bilim yurtlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yuborildi. Shu yilning sentabrida respublika davlat qo‘mitasining bo‘yrug‘i bilan 53-sonli Buxoro texnik bilim yurti kombinatga tayanch o‘quv yurti sifatida biriktirildi. 1983-yilda Uchquduqda 400 o‘quvchiga mo‘ljallangan 192-sonli kasb-hunar texnik bilim yurti ochildi. Kombinat tomonidan 1979-yilda 962 nafar, 1980-yilda 1020 nafar, 1981-yilda 1275 nafar, 1982-yilda esa 1392 nafar ishchilar kasb-hunar texnik bilim yurtlarida (SPTU) tayyorlangan[8].

1980-yilda Toshkent politexnika institutining Navoiy kechki fakulteti Navoiy filialiga aylantirildi hamda talabalarni kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida o‘qitish boshlandi. 1988-yilga kelib, filialda 3 ta fakultet, 17 ta kafedrada 254 nafar professor-o‘qituvchilar, shundan 3 nafar professor, 52 nafar fan nomzodlari talabalarga ta’lim berishgan [9].

Ammo, NKMK uchun zarur bo‘lgan, oliy ma’lumotli konchilik ishi, metallurgiya, geologiya kabi mutaxassisliklar tayyorlanmagan. Bundan ko‘rinib turibdki, hudduda o‘sha paytda mavjud bo‘lgan yirik sanoat korxonalari uchun oliy ma’lumotli mahalliy kadrlarni tayyorlash masalalariga yetarlicha e’tibor berilmagan. Negaki, Navoiy shahrida o‘sha paytda NKMK korxonalaridan tashqari “Navoiy azot” birlashmasi, Navoiy issiqlik elektr stansiyasi, “Navoiy elektrkimyo” va “Navoiytsement” zavodlari ham faoliyat olib borgan. Ularga ham ishchi va mutaxassislar asosan boshqa respublikalarda olib kelingan. Shu o‘rinda bir faktni qayd etish kerakki, arxivdagi ma’lumotlarga ko‘ra, 1967-yilda Navoiy kimyo zavodida (hozirgi “Navoiyazot” AJ) mehnat qilgan 6450 nafar ayollarning bor-yo‘g‘u 5,7 foizi yoki 368 nafari mahalliy xotin-qizlar bo‘lgan[10]. Bu ko‘rsatkich ko‘p yillar davomida o‘zgarmay kelgan.

SSSR davrida yirik sanoat korxonalarida mahalliy kadrlarning kamligi ham buning yaqqol isbotidir. 1980-yillarning oxirlarida Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mahalliy rahbar kadrlar 8,2 foizni tashkil etardi[11] hamda boshqa yirik sanoat korxonalarida ham shunday holat edi. 1990-yilda Navoiy shahrida 120 ming aholi yashagan bo‘lsa, uning 61 foizini ruslar, 23 foizini 70 dan ortiq millat, 16 foizini mahalliy millat vakillari[12] tashkil etganligini o‘zi vaziyat qay darajada bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi.

Kombinatning Navoiy, Uchquduq va Zarafshon shaharlari va Nurobod shaharchasida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash bo‘yicha texnikum va kasb-hunar maktablari hamda o‘quv markazlari tashkil etildi. 1956-1962-yillarda kombinat uchun kerak bo‘lgan malakali mutaxassislar asosan boshqa respublikalardan olib kelingan. 1974-yilda Nurobodda Navoiy sanoat texnikumining bo‘limi tashkil etiladi [13]. Texnikumda kunduzi ta’lim bilan bir qatorda ishdan ajralmagan holda kechki va sirtqi ta’lim shakllarida ham kadrlar tayyorlash yo‘lgan qo‘yilgan edi. Masalan, 1969-yildan boshlab Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘quv markazi ochildi. Bu markaz kombinat O‘quv markazi filiali sifatida faoliyat olib borgan. 1971-yil 17-dekabrda Markaziy kon boshqarmasida O‘quv markazi o‘z faoliyatini boshladi. Unda kombinat uchun ekskavator mashinisti, portlatuvchi, chilangar, tegirmon mashinisti, elektr payvandchi kabi kasblar bo‘yicha ishchilar tayyorlangan [14].

Sanoat korxonalari uchun o‘rta bo‘g‘in mutaxassislar asosan Navoiy sanoat texnikumi, Zarafshon shahridagi o‘quv maslahat markazida tayyorlangan. 1968-yilda Navoiy sanoat texnikumining kechki bo‘limida 1350 nafar, Zarafshon o‘quv-maslahat markazida 295 nafar talaba tahsil olgan bo‘lsa, 1968-1970-yillarda Navoiy sanoat texnikumi sanoat korxonalari uchun 830 nafar kichik mutaxassislar tayyorlab berdi[15]. NKMK uchun kadrlarni tayyorlashda 1965-yilda tashkil etilgan Navoiy sanoat texnikumining o‘rni katta bo‘lgan. Texnikumning Uchquduq, Zarafshon va Nuroboddagi bo‘limlarida 20 dan ortiq kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlangan[16]. Shuni alohida aytib o‘tish joizki, kombinat tomonidan ishlab chiqarish korxonalari uchun texnikum va kasb-hunar bilim yurtlarida yillar davomida asosan rusiyzabon millat vakillari tahsil olishgan.

Kombinatga o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlab beradigan Navoiy sanoat texnikumida 1990-yilda kon elektromexanikasi, fuqarolik va sanoat qurilishi, sovutgich–kompressor mashinalari, korxona elektr jihozlari, foydali qazilmalarni boyitish kabi mutaxassisliklar bo‘yicha 684 nafar talaba tahsil olgan bo‘lsa, uning 141 nafarigina mahalliy aholi vakillari bo‘lgan. Mazkur texnikumda faoliyat olib borgan 120 nafar o‘qituvchi va xodimlarning bor yo‘g‘i 3 nafarini mahalliy millat vakillari tashkil etgan[17]. Shu o‘rinda mazkur texnikumda asosiy kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlangan mutaxassisliklarda asosan boshqa millat vakillariga asosiy e’tibor qaratilgan. Masalan, kombinatning oltin va uran bilan bog‘liq mutaxassisliklarida buni ko‘rish mumkin. Jumladan, kon elektromexanika yo‘nalishida o‘qiyotgan 195 nafar talabaning 9 nafari ya’ni 9,4 foizi, qazilma boyliklarini boyitish bo‘yicha 78 nafar talabaning 7 nafari, ya’ni 4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, fuqarolik va sanoat qurilishidagi 108 nafar talabaning 26 nafari, ya’ni 24 foizi, texnik xizmat va avtomobil ta’mirlashdagi 112 nafar talabaning 67 nafari, ya’ni 60 foizini mahalliy aholi yoshlari tashkil etgan [18].

1990-yilda Uchquduqdagi 19-sonli, Zarafshondagi 4-sonli, Navoiydagi 20- kasb-hunar bilim yurtlarida (SPTU) 2201 nafar o‘quvchi bo‘lib, ularning 904 nafari mahalliy aholi yoshlari, 327 nafar xodimlarning 252 nafari muhandis-texnik xodim, shundan 47 nafari mahalliy xodimlar, oddiy ishchilarning 69 nafaridan 25 nafari mahalliy millat vakillari bo‘lishgan [19]. Statistikaga murojaat qilsak, 20-sonli bilim yurtida g‘isht teruvchilikdagi 29 nafar o‘quvchining 27 nafari, slesarlikdagi 29 nafar o‘quvchining 29 nafari, oshpazlikdagi 55 nafar o‘quvchining 38 nafari mahalliy millat yoshlari bo‘lishgan [20]. Bundan ko‘rinib turibdiki, sovetlar davrida va mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy aholi yoshlarini iloji boricha kombinat korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlariga yaqin keltirishmagan. Shuningdek, arxiv hujjatlarida kombinat rahbariyati tomonidan O‘rta mashinasozlik vazirligiga kadrlar, ularni tayyorlash, o‘qitish bo‘yicha berilgan hisobotlarda albatta, mahalliy aholi soni ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘tgan asrning 80-yillar oxiri va 90-yillari boshlarida Navoiy kon-metallurgiya kombinati joylashgan shaharlardan aholini ko‘chib ketish jarayoni ko‘paydi. SSSRning tanazzulga uchrashi, korxonalarning iqtisodiy jihatdan inqiroz yoqasiga kelib qolishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Masalan, 1990-yilning sakkiz oyi davomida Navoiy shahridan 4167 nafar kishi ko‘chib ketgan[21]. Ularning asosiy qismi rusiyzabon

aholi bo‘lgan. Shu o‘rinda yirik sanoat korxonalarini kadrlar bilan ta’minlash masalasi qanday hal etilganligiga e’tibor qaratsak. SSSR davrida O‘zbekistondagi Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati kabi yirik korxonalarni mahalliy kadrlar bilan ta’minlash masalalariga panja ostidan yoki ularga “ishonmaslik” kayfiyati bilan qaralardi. O‘sha davrda kon-metallurgiya sanoati korxonalari uchun mutaxassislar Toshkent politexnika institutida (hozirgi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti) tayyorlanardi. Ammo, ularning ham asosiy qismi bu korxonalarga ishga joylasha olmasdi.

Markaz tomonidan barpo etilayotgan atom sanoati korxonalari uchun kadrlar asosan Rossiya va Ukraina oliy o‘quv yurtlarida tayyorlangan. Buning uchun ularga katta imtiyozlar ham berilgan. Sababi, atom sanoati uchun o‘sha paytda malakali kadrlar juda zarur edi. Buni arxiv hujjatlarida ko‘rish mumkin. Masalan, 1948-1950 yillarda SSSR atom sanoati korxonalari uchun 4600 nafar fizik, kimyogar, metallurg, geolog va boshqa mutaxassislar tayyorlab berilgan[22].

SSSR Ministrlar Sovetining 1951-yil 25-apreldagi “SSSR Minstrlar Soveti huzuridagi Ikkinchi bosh boshqarma va SSSR Boshshaharqurilish uchun oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash to‘g‘risida”gi 1359-684ss/op-sonli mahfiy qarori [23] bilan uran va oltin ishlab chiqarish bilan bog‘liq korxonalar uchun alohida bo‘limlar ochilishi rejalashtirildi. Qarorda SSSR bo‘yicha 13 ta oliy o‘quv yurtida (Moskva davlat universiteti, Leningrad davlat universiteti, Xarkov davlat universiteti, Ural politexnika instituti, Moskva energetika instituti, Moskva mexanika instituti, Tomsk politexnika instituti, Moskva rangli metallar va oltin instituti kabilar) maxsus bo‘limlar ochilgan. Masalan, Moskva davlat universitetining maxsus kimyo bo‘limida 1952-1955 yillarda neoorganik kimyo bo‘yicha 85 nafar, fizikaviy ximiya bo‘yicha 115 nafar, analitik kimyo bo‘yicha 55 nafar mutaxassis tayyorlash, Moskva rangli metallar va oltin institutida 1952-1955 yillarda maxsus bo‘limda gidrometallurgiya bo‘yicha 100 nafar, noyob va radioaktiv metallar texnologiyasi bo‘yicha 80 nafar, jami 13 ta oliy o‘quv yurti bo‘yicha 1952-1955 yillarda 5260 nafar mutaxassislar tayyorlash rejalashtirildi[24]. Bu maxsus bo‘limlarda tahsil olgan talabalarga alohida stipendiyalar ham joriy etilgan. Bu qarordan ko‘rinib turibdiki, uran va oltin bo‘yicha mutaxassislar asosan Rossiya va Ukraina oliy o‘quv yurtlarida tayyorlangan va keyinchalik ularning asosiy qismi O‘zbekistonda barpo etilgan korxonalarga yuborilgan.

Xulosa va takliflar. Sovet davrida kon-metallurgiya korxonalarini kadrlar bilan ta’minlash masalalari Markaz tomonidan amalga oshirilganligi, sanoat korxonalari uchun ishchi-xodimlar bilan bir qatorda rahbarlik lavozimiga ham boshqa respublikalar, asosan, Rossiya va Ukrainadagi turdosh korxonalardan hamda oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilari olib kelinganligi arxiv hujjatlari asosida birinchi marta ilmiy muomalaga kiritildi. Shuningdek, kadrlarning mehnat qilishi va yashashi uchun barcha shart-sharoitlar va ko‘plab imtiyozlar yaratib berilganligi ochib berildi. Buni Markazning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarga mahalliy aholi vakillarini yaqinlashtirmaslik siyosati bilan izohlash mumkin. Buning isboti sifatida tadqiqot ishida korxonalardagi rahbar va ishchi-xodimlarning milliy tarkibi tahlil etilib, mazkur korxonalar uchun kadr tayyorlaydigan texnikum va kasb-hunar maktablarida ham asosiy kasb (konchilik ishi, metallurgiya kabilar)ga asosan boshqa respublikalardan kelgan aholi farzandlari o‘qitilganligi, mahalliy millat vakillari esa ikkinchi darajali kasblar (quruvchi, chilangar, haydovchi kabilar)ga o‘qitilganligi arxiv hujjatlari asosida tahlil etildi. O‘zbekistondagi kon-metallurgiya sanoati korxonalariga malakali mahalliy kadrlarni tayyorlash masalalari mustaqillikka erishilgandan so‘ng hal etildi.

ADABIYOTLAR

1. Навоий кон-металлургия комбинати Марказий архиви. 1-Фонд, 1-ОД-5-рўйхат, 1781-иш, 46-47-варақ.
2. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд, 1-2 рўйхат, 155-иш, 16-варақ.
3. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд,, 1-5-рўйхат, 2274- иш, 14- варақ.
4. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. 795-Фонд, 2-рўйхат, 1-иш, 45 варақ.
5. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд,, 1-5-рўйхат, 2274- иш, 14- варақ.
6. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд,, 1-ЛС- рўйхат, 1 –доп- иш, 14- варақ.
7. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд, 1-2 рўйхат, 155-иш, 20-варақ.
8. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд,, 1-НТД- рўйхат, 2004- иш, 107-108- варақ.
9. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. 795-Фонд, 2-рўйхат, 1-иш, 46-47 варақ.
10. Ўзбекистон Миллий архиви. 2600-Фонд, 1-рўйхат, 96-иш, 1-варақ.
11. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. 795-Фонд, 2-рўйхат, 11-иш, 99-105 варақ.
12. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. 795-Фонд, 2-рўйхат, 1-иш, 89- варақ.
13. Навоийский горно-металлургический комбинат. История создания и развития. Ответственный редактор С.Ризаев, – Ташкент: Шарқ, 2002.-..С. 82.
14. Навоийский горно-металлургический комбинат. История создания и развития..С. 240.
15. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. 795-Фонд, 6-рўйхат, 1-иш, 56-варақ.
16. Кучерский Н. Золото Кизилкумов. ИПК Шарк, Ташкент, 1998, С.214.
17. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд, 1-ОД – рўйхат,5928-иш, 23-варақ.
18. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд, 1-ОД – рўйхат,5928-иш, 23-варақ.
19. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд, 1-ОД – рўйхат,5928-иш, 26-варақ.
20. Навоий КМК Марказий архиви. 1-Фонд, 1-ОД – рўйхат,5928-иш, 26-варақ.
21. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. 795-Фонд, 27-рўйхат, 43-иш, 11-варақ.
22. Доклад Л.П.БерияИ.В.Сталину о ходе выполнения задания Правительства по развитию атомной промышленности. Атомный проект СССР: документи и материалы.Т.2. Кн..5 с 665-668. http://elib.biblioatom.ru/text/atomny-proekt-sssr_t2_kn5_2005/go,665.
23. Постановление СМ СССР №1359-684сс/оп. Атомный проект СССР: документи и материалы.Т.2. Кн..5 с 311-318. http://elib.biblioatom.ru/text/atomny-proekt-sssr_t2_kn5_2005/go,311.
24. Постановление СМ СССР №1359-684сс/оп. Атомный проект СССР: документи и материалы.Т.2. Кн..5 с 311-318. http://elib.biblioatom.ru/text/atomny-proekt-sssr_t2_kn5_2005/go,311.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 94:62.347(575.1)(09)

Gulzora SAIDBOBOYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
E-mail: gulzora@rambler.ru

Tarix fanlari doktori, professor N.Musayev taqrizi asosida

ABOUT THE FIRST STAGE TRAINING OF PERSONNEL IN THE ELECTRICITY INDUSTRY IN UZBEKISTAN

Annotation

The development of the socio-political, economic and cultural spheres has always depended on the state of electrification, and the development of industry has always depended on qualified technical personnel. In the article, the researcher, on the basis of archival documents, historical literature and sources, analyzed in detail the process, content and existing problems of training engineering and technical personnel for the electric power industry in the region.

Key words: Technique, industry, NEP, People's University, technical faculty, Uzbekistan, repression, electric power industry, hydroelectric power station, engineer.

О НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКА КАДРОВ В СФЕРЕ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Развитие общественно-политической, экономической и культурной сфер всегда зависело от состояния электрификации, а развитие промышленности всегда зависело от квалифицированных технических кадров. В статье исследователь на основе архивных документов, исторической литературы и источников подробно проанализировал процесс, содержание и существующие проблемы подготовки инженерно-технических кадров для электроэнергетики в регионе.

Ключевые слова: Техника, промышленность, НЭП, Народный университет, технический факультет, Узбекистан, репрессия, электроэнергетика, гидроэлектростанция, инженер.

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRLASHTIRISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING DASTLABKI BOSQICHIGA DOIR

Annotatsiya

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarning rivoji elektrlashtirish holatiga, sanoatning rivoji esa har doim malakali texnik kadrlarga bog‘liq bo‘lgan. Maqolada tadqiqotchi tomonidan mintaqamizda elektr energetika tarmog‘i uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash jarayoni, mazmun-mohiyati, mavjud muammolar arxiv fondlari hujjatlari, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida batafsil tahlil qilingan.

Kalitli so‘zlar: Texnika, sanoat, YAIS, Xalq universiteti, texnika fakulteti, O‘zbekiston, qatag‘on, elektr energetika, gidroelektr stansiya, muhandis.

Kirish. O‘zbekiston hududiga elektr energiya sohasining kirib kelishi bu borada oliy malakali elektr muhandis kadrlar, elektr montyorlari tizim uchun boshqaruv xodimlarni tayyorlash ishlarini ham yo‘lga qo‘yishni talab qilardi. Mintaqaning geografik jihatdan mamlakat markaziy qismlaridan uzoqda joylashgani, sovet tuzumining o‘lkada hali mustahkam boshqaruv organlariga ega emasligi, fuqarolar urushi, iqtisodiy qiyinchiliklarning barchasi bu yo‘nalishda olib borilishi eng zarur ishlarni ham ortga surib kelmoqda edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muammoning baz’zi jihatlarini o‘rganish uchun O‘zbekiston hududida elektrlashtirish sohasida kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilgan muhim ishlar qamrab olingan ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari («Правда Востока», «Узбекистанская правда» gazetalari) va arxiv (O‘zbekiston Milliy arxivining R-10, R-368, R-651-fondlari) hujjatlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, analiz va sintez hamda muammoviy-xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ishchilar soni va tarkibi jihatidan yosh sovet davlati 1920 - yilda 1912 - yildagi imperiya ko‘rsatkichlaridan ham ancha past darajada bo‘lgan[1].

Ushbu holat o‘lka uchun ham xos bo‘lib, muhandis-texnik mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlarni yetishtirish uchun mintaqada yetakchi o‘quv yurtini tashkil etish ishlari boshlab yuborildi. Jumladan, 1918 - yilning 16 - martida Xalq komissarlari Kengashining Turkiston o‘lkasida Xalq universitetini ochish to‘g‘risidagi qarori qabul qilinib, unda “xalq universitetini tashkil etish bo‘yicha barcha xarajatlar natsionalizatsiya qilingan paxta, neft va ko‘mirning savdo aylanmalari hisobiga amalga oshirilishi”[2] belgilangan.

1918 - yilning 11 - aprelida Turkiston Xalq universiteti texnika fakultetining birinchi yig‘ilishi o‘tkazilib, “shu tariqa rus yoki ruscha so‘zlashuvchilarni o‘z bag‘riga olgan Turkiston Xalq universitetining tabiiy matematika va texnika fakultetlarida 9 maydan dars mashg‘ulotlari boshlanib ketdi”[3]. Qizig‘i shundaki, o‘qishga kirish uchun hech qanday hujjat talab etilmas, buning uchun faqatgina xohish-istakning o‘zi kifoya edi... Shu tarzda Xalq universitetining oliy kurs (fakultet)lariga qabul qilinib, o‘qiyotgan talabalar soni 1200 taga yetdi. Shulardan 186 nafari texnika fakultetida o‘qishni boshlab yubordi[4].

Turkiston vakillarining universitetda texnika fakultetini tashkil etish to‘g‘risidagi iltimosiga Petrograd texnologiya instituti professor-o‘qituvchilari juda jiddiy e’tibor bilan qaraydilar. May–iyun oylarida shu masala yuzasidan 9 marotaba maxsus yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Natijada texnika fakultetida o‘qish odatdagi besh yil o‘rniga to‘rt yil etib belgilanib, keyinroq ular qoshida to‘qimachilik va kimyo kabi kichik bo‘limlar ochilishi nazarda tutilgan. 1918 - yil 9 - mayda Xalq universiteti texnika fakultetidagi tinglovchilar haqidagi ma’lumotga ko‘ra, elektromontyorlar soni 14 tani tashkil qilgan[5].

Turkistondagi shart-sharoit va vaziyatdan kelib chiqib, fakultetni ochish tashabbuskorlari Markazning yordamisiz o‘z kuchlari bilan ish olib borishlari mushkul edi[6]. Shu sababli Moskva va Petrogradga jo‘natilgan mutaxassislar delegatsiyasi bilan Toshkent o‘rtasida harbiy frontlar tufayli aloqalar to‘xtab qoldi.

1920 - yilning boshida universitetning tashkiliy qo‘mitasi Moskvada o‘z ishini yakunlab, kadrlar va asbob-uskunalarni Toshkentga jo‘natishga kelishib olishdi. 1920 - yilning 10 - aprelida Moskvadan professor-o‘qituvchilar jo‘natilgan birinchi eshelon Toshkentga yetib keldi. 7 sentabrdan esa Turkiston Davlat universitetiga aylantirilgan o‘quv yurti RSFSR Maorif Xalq komissarligiga bo‘ysundirildi[7], 16 - sentabrdan esa texnika fakulteti to‘liq shakllandi. Uning tarkibidagi 5 ta bo‘limning 3 tasi (mexanik, elektro-mexanik, gidrotexnika)da aynan mutaxassis kadrlar tayyorlangan. 1920-1921 o‘quv yili boshida barcha bo‘limlarda tahsil oluvchi talabalarning soni 304 tani tashkil etgan[8].

Turkiston Respublikasi Iqtisodiy Kengashi (TurkEKOSO)ning I syezdi (1922 - yil) rezolyutsiyalarida o‘lkadagi sanoat va savdodagi qoloqlikka umumiy moliyaviy inqirozdan tashqari, bosmachilik harakati va boshqa shu kabi mahalliy sabablar bilan birga yetarlicha ishchi kadrlarning yo‘qligi ham bosh sabab etib ko‘rsatilgan[9]. Anjuman rezolyutsiyasining yana bir bandida kasbiy-texnik ta’lim alohida masala sifatida qo‘yilgan bo‘lib, “eskidan ma’lum mutaxassislarni sinchiklab tanlash hamda ularning kuchidan to‘liq foydalanish, Turk Respublikaning xo‘jalik qurilishini avj oldirish uchun ishchi va dehqonlar ommasidan o‘qimishli yangi texnik kadrlarni tayyorlash, o‘rgatish va to‘ldirishning astoydil zarurligi”[10] uqtirilgan.

O‘lkada o‘zining haqiqiy kasbini astoydil yashirib, agar bilib qolishsa, qora ishchi, yuk tashuvchi, mardikor bo‘lib kun kechirishdan ayrilib qolish xavfidan qo‘rqqan juda ko‘p sonli yuqori malakali ishchilar bo‘lgan. Bunga avvalo mehnatga munosib haq to‘lashning adolatsizligi sabab bo‘lgan. Turkistonda muhandis oyiga 20-40 ming rubl maosh olgan bo‘lsa, izvoshchi kuniga undan ikki baravar ko‘p topgan[11]. Shubhasiz, shu sabab bu davrda behisob malakali mutaxassislar shtati tiklanmaydigan holda boy berilganidan tashqari, mahalliy aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sanoat mutaxassislik va kasblariga qiziqishni so‘ndirgan.

“Hozirda muhandisga oilasini boqish uchun izvoshchi bo‘lib xizmat qilishi foydaliroq ekanligi to‘g‘ri kelmaydi, – deb yozadi davr shohidi bo‘lgan muallif. – Yana yaxshi chilangar qora ishchi sifatida ishlashi ham g‘ayritabiiy. Buning uchun aybni ularga to‘nkab bo‘lmaydi. Malakali ishchilarning ishtirokisiz sanoatni tiklash, iqtisodiyotni jonlantirish, shuningdek, elektrlashtirishni olib borish amrimahol. Muhandis, professor, chilangar va umuman malakali mutaxassis izvoshchiga qaraganda to‘q bo‘lishi muhimroq”[12].

Adabiyotlarda NEPning dastlabki yillaridagi barcha qiyinchiliklarga qaramay, sovetlar rahbariyati iqtisodiy masalalar – sanoat va qishloq xo‘jaligi, sug‘orish va transport, savdo, kooperatsiyani tiklash, xalq xo‘jaligi uchun malakali kadrlar tayyorlash, yangi mehnat qoidalarini yo‘lga solishda katta e’tibor qaratganligi ta’kidlangan[13].

SAGUning 1924 - yilgi gidro-quvvatlar bo‘limi bitiruvchilari diplom ishlarini qabul qilish bo‘yicha komissiya bayonnomasida Bistrov, Kochanov, Limanovskiy, Mals, Nisengaus, Ufinsev va Sorkinlarning diplom ishi loyihalari himoyasi qoniqarli deb topilib, ular gidro-quvvatlar muhandis-mexanigi mutaxassisligi bo‘yicha malaka diplomi olganligi ta’kidlanadi[14]. Jumladan, talaba Bistrov daryoda gidroelektrostansiya (quvvati 80000 kVt); talaba Kochanov Bo‘zsuv kanalida gidroelektr stansiyasi (quvvati 9000 kVt); talaba Mals Zax kanalida gidroelektr stansiyasi (quvvati 9000 kVt); talaba Nisengaus Bo‘zsuv kanalida gidroelektr stansiyasi (quvvati 5300 kVt); talaba Ufinsev Mirzacho‘ldagi sug‘orish kanalida gidroelektr stansiyasi (quvvati 13000 kVt); talaba Sorkin Iskandar kanalida gidroelektr stansiyasi (quvvati 3500 kVt) qurish loyihalari bo‘yicha diplom ishlarini himoya qilishgan[15].

1930 - yilda O‘zSSR Markaziy qo‘mitasi kotibiyatining so‘nggi majlislaridan birida SAGU rektori M.A. Segalning ma’ruzasi tinglanib, Respublika MIQ qabul qilgan rezolyutsiyada universitet talabalarining ijtimoiy va milliy tarkibi qoniqarsiz deb topilgan. Ilmiy-pedagogik personalni mahalliylashtirish ham yetarli deb topilmagan.

MIQ okrug hamda rayon ijroiya qo‘mitalariga SAGUning kuzgi taqsimot bo‘yicha qabul bajarilishini to‘liq ta’minlashga, bunda ishchi va batrak-kambag‘al sektor (shu jumladan, sovxoz ishchilari va kolxozchilar) 75 % dan kam bo‘lmasligini majburiy etib belgilagan.

Toshkent okrug ijroiya qo‘mitasiga 10 - avgustga qadar 500 talaba uchun yotoqxona ta’minlashni va tashrif buyuradigan ilmiy xodimlar uchun xonadonlar tayyorlab qo‘yish tavsiya etilgan.

Toshkentda SAGUga qabul bo‘yicha kampaniya ommalashib, shahar korxonalarida qabul shart-sharoitlari va ahamiyati, universitetni qayta tashkil etish bo‘yicha ma’ruzalar o‘tkazilgan. Mazkur ma’ruzalar yaqin kunlarda radio orqali ham berib borilishi ta’kidlangan. Maslahat byurolari tashkil etilib, yangidan topshiradiganlar uchun barcha ma’lumotlarni bergan. Mahalliy yoshlarni universitetga jalb qilish maqsadida byuroning bir bo‘linmasi Toshkentning Eski shahar qismida faoliyat olib borgan.

Ayniqsa, joylarda kampaniya o‘ta sust kechayotganligi, OTM tayyorlov kurslari ahamiyatiga jiddiy qaratilmayotganiga urg‘u berilgan. Umumiy qamrab olinmaganidan tashqari, kurslarda mahalliy millatlar va ishchilar soni haddan tashqari kamligi aniqlangan[16].

1930 - yilning avgustida Respublika markaziy gazetalarida ishchi kadrlar tayyorlash va ayniqsa, mahalliy yoshlar orasidan tarkibni shakllantirish bo‘yicha qator bosh maqolalar chop etiladi. Sarlavhalardan ham bolsheviklar qattiqqo‘lligi va jiddiy emotsional ohangini sezish qiyin emas: “OTMlarga olish suvga cho‘kmoqda” (“Набор ВУЗы тонет в море”), “Xalq maorif komissarligi nochor yelkasini qismoqda” (“Наркомпрос беспомощно разводить руками”), “Tanballiklar, beparvoliklar, mas’uliyatsizliklar” (“Обломовщины, халатности, безответственности”), “Komsomol – toshbaqa sur’atida ish tutmoqda” (“Комсомол – на поводу черепашых темпов”).

Gap shundaki, Stalinning respublikadagi mahalliy ishchi kadrlar bo‘yicha “O‘zbekiston xalq komissarliklari, kasaba uyushmalari, komsomoli kadrlar masalasi bizda haqiqatan eng muhim muammoga aylanganini unutgan”, deb aytgan tanqidiy so‘zlari O‘zbekiston matbuotida ham kadrlar bo‘yicha maqolalar ko‘plab chop etilishiga sabab bo‘ldi. Xususan, markaziy gazetalardan birida shunday mavzu muhokama qilingan maqolada quyidagi fikrlar ilgari surilgan: “OTMlarni proletar yoshlar, ayniqsa mahalliy millatlar bilan to‘ldirish uchun zudlik bilan jamotchilik yurishini safarbar qilamiz. ...SAGU va SAXIPI (Sredneaziatskiy xlopkoviy irrigatsionniy politexnicheskiy institut – O‘rta Osiyo paxtachilik irrigatsiya politexnika instituti)da talabalar qabuli qanday kechmoqda? Birinchisida (SAGU – G.S.) 790 nafar kishi qabul qilinishi kerak bo‘lib, ularning yarmini mahalliy millatlar, ikkinchisida (SAXIPI – G.S.) 400 kishi, ularning 60 foii esa tub millatli xalqlar vakillaridan iborat bo‘lishi kerak. Yevropaliklar bilan SAGU ham, SAXIPI ham to‘ldiriladi. Mahalliy millatlar talabalariga kelganda bu ishlar muvaffaqiyatsiz. Qancha va qayerga arizalar topshirilgani ham bizga qorong‘u”[17].

Yuqoridagi misollar yosh sovet davlati xalq xo‘jaligi, sanoat tarmoqlariga mahalliy millatlarga mansub yoshlardan ishchilar sinfini shakllantirishga astoydil harakat qilganini hamda bu muammo doimiy ravishda bolsheviklarning yuqori turuvchi organlari nazoratida bo‘lganini ko‘rsatadi.

1934 - yil boshida VKP (b)ning XVII syezdi tomonidan ma’qullangan ikkinchi besh yillik rejaning (1933-1937) asosiy vazifasi – sotsializmning moddiy-texnik bazasini qurish e’lon qilindi. Ikkinchi besh yillik rejaning bosh shiori ham “Kadrlar hamma narsani hal qiladi!” deb nomlangan edi.

Besh yillik rejaning ikkinchi yarmida oliy va o‘rta malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlari tahlil qilinganda, birgina O‘rta Osiyo Energomexanika instituti asosida tashkil etilgan O‘rta Osiyo Energetika institutida 3 ta yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlangan:

1. GidroSESlar.
2. Korxonalar elektr jihozlari.
3. Isitish uskunalari.

Institutning texnikum va rabfaklari bo‘lmagan. 1932 - yilning kuzidan esa institutda yana quyidagi 2 ta:

1. Elektr energiya uzatish va taqsimlash.
2. Tashkiliy reja mutaxassisligi (elektr stansiyalar va keng texnik asosdagi energetika tashkilotlarining muhandis-rejachi (planovik)lar)ini tayyorlash bo‘yicha yo‘nalishlar ochilishi mo‘ljallangan[18].

Ikkkinchi besh yillikning ikkinchi yarmida ekspluatatsiya bo‘yicha muhandislarga talab 52 ta, qurilishni ham qo‘shib hisoblaganda esa 82 ta kishini tashkil etganligining o‘zi ham 30-yillarning boshida respublikada texnik kadrlar tayyorlash ishi dolzarb bo‘lib turganligini bildiradi.

1937 - yilda ham O‘rta Osiyoning gidroelektr va issiqlik elektr stansiyalari ishchi kuchi va muhandis-ishchi xodimlarga ehtiyoji ancha yuqori bo‘lgan (ishchilarga 74,1%, malakali ishchilarga 61,9 %)[19].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollar yosh sovet davlati, shuningdek, mintaqada kadrlar masalasida yetishmovchilik sezilgan dastlabki yillari ilg‘or xorijiy mamlkatlarning texnik tajribalari va o‘zgarishlarini oliy ta’lim orqali puxta egallagan iqtidorli mutaxassislardan judo bo‘lganligini ko‘rsatibgina qolmay, sohani yana bir necha yillarga ortga qolishiga sabab bo‘lgan. Kuchishlatar organlar eskirib ishdan chiqqan qurilmalarning muqarrar avariyalari, malakasiz ishchilar tomonidan yaroqsiz mahsulotlar ishlab chiqarish va shu kabi faktlar bo‘yicha uydirma siyosiy “ish”lar ochishgan. Ana shunday “sinfiy” ijtimoiy siyosat elektr sanoatini tiklash va rivojlantirishda ham o‘zining o‘ta salbiy ta’sirini o‘tkazgan.

Shuningdek, elektrlashtirish sohasida texnik kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda tashkil etilgan birinchi oliy o‘quv yurtining imkoniyatlari cheklanganligi, elektr muhandis va ishchilar oylik maoshlarining kamligi, ish o‘rinlarining yetishmasligi, borlarida mehnat shart-sharoitlari qoniqarli emasligidan tarmoqning istiqboliga ishonmagan ko‘plar boshqa ish topishga harakat qilishgan.

ADABIYOTLAR

1. Русская электротехническая промышленность к началу 1921 г. – М.: Гос. техническое изд-во, 1921. – С. 28.
2. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Т. II. Упрочение Советской власти в Узбекистане. Сборник документов. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 183.
3. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 70.
4. Черданцев Г.Н. Истории первых лет Туркестанского университета (1918 1922) // Наука и просвещение. – Москва, 1922. – №2. – С. 94-95.
5. O‘zMA R-368-fond, 8-ro‘yxat, 1-ish, 6-varaq.
6. O‘zMA R-651-fond, 2-ro‘yxat, 2-ish, 14-varaq.
7. Известия ВЦИК. 11 сентября, 1920, №201.
8. O‘zMA R-651-fond, 2-ro‘yxat, 2-ish, 17-varaq.
9. Отчет 1-го съезда экономических совещаний Туркреспублики / Составлен по стенографическим отчетам А.Н. Апухтиным, под ред. члена организационной комиссии съезда Д.П. Красновского. – Ташкент: Издание ТЭС, 1922. – С. 87.
10. O‘sha asar. – C. 84.
11. Киуайн. Электрофикация Туркестанского края // Военная мысль. – Ташкент, 1921. Август–декабрь. – С. 211.
12. Киуайн. Электрофикация Туркестанского края // Военная мысль. – Ташкент, 1921. Август–декабрь. – С. 211.
13. Алламурадов Д. Исторический опыт Советов Узбекистана в борьбе за победу социализма. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 12.
14. O‘zMA R-368-fond, 8-ro‘yxat, 73-ish, 1-varaq.
15. O‘zMA R-368-fond, 8-ro‘yxat, 73-ish, 2-varaq.
16. Накануне приема в САГУ // Правда Востока. 3 июля 1930 г.
17. Набор ВУЗы тонет в море // Узбекистанская правда. 10 августа 1930 г.
18. O‘zMA R-10-fond, 1-ro‘yxat, 407-yig‘majild, 16-varaq.
19. O‘zMA R-10-fond, 1-ro‘yxat, 407-yig‘majild, 47-varaq.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:327:94(575.1+470)“19-21

Nodira XOLMONOVA,
O‘zR FA Tarix instituti Tarixshunoslik va manbashunoslik markazi tayanch doktoranti
E-mail:nkholmonova@inbox.ru

O‘zMU dotsenti, tarix f.f.d. (PhD) A.Nazarov taqrizi asosida

XIVA XONLIGI – ROSSIYA DIPLOMATIK ALOQALARIDA ROSSIYA POYTAXTIGA KIRITILMAGAN XIVALIK ELCHILAR TAVSIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xiva xonligi va Rossiya elchiligi tarixida (1511-1920 yy.) xonlik poytaxt (Moskva va Peterburg)ga muzokaralar uchun kiritilmagan elchiliklar tavsifi berilib, o‘z davrida bu kabi holatni keltirib chiqargan sabablar ko‘rsatib o‘tiladi. Adabiyotlarda xivalik elchilarning rus hukumati tomonidan chegara shaharlar (Orenburg va Astraxan)dan ortga qaytarib yuborilganligiga oid ayrim ma’lumotlar keltirilib, maqolada ular umumlashtirib ko‘rsatiladi. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ko‘rilgan iqtisodiy, siyosiy-harbiy masalalarning bu holatga ta’siri aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Elchilik idorasi, tashqi ishlar kollegiyasi, tashqi ishlar vazirligi, elchilar: Beliyusuf, Hoji Muhammad Tursunov, Ali Shukurov, Nurullaboy Qutlug‘ Mamatov, Ishoq Tangriberdiyev, Muhammad Amin eshon, Berg ekspeditsiyasi.

ОПИСАНИЕ ХИВИНСКИХ ПОСЛОВ НЕ ВХОДЯЩИХ В СТОЛИЦУ РОССИИ В ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА С РОССИЕЙ

Аннотация

В данной статье описываются хивинские посольства, не входившие в столицу (Москву и Петербург) Россию для переговоров в истории дипломатических отношениях Хивинского ханства и Россией (1511-1920 гг.), а также показываются причины, вызвавшие такое положение в свое время. В литературах приводятся некоторые сведения о возвращении хивинских послов из пограничных городов (Оренбург и Астрахан) русским правительством, и в этом статье они обобщаются. Также определяется влияние экономических, политических и военных вопросов, наблюдаемых во взаимоотношениях двух стран, на эту ситуацию.

Ключевые слова: Посольский приказ, коллегия иностранных дел, министерство иностранных дел, послы: Белиюсуф, Хаджи Мухаммад Турсунов, Али Шукуров, Нуруллабай Кутлуг Маматов, Исхак Тангрибердиев, Мухаммад Амин Ишан, экспедиция Берга.

DESCRIPTION OF THE KHIVA AMBASSADORS OUTSIDE THE CAPITAL OF RUSSIA IN DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KHIVA KHANATE WITH RUSSIA

Annotation

In this article described the Khiva embassies that were not included in the capital (Moscow and St. Petersburg) of Russia for negotations in the history of diplomatic relations between the Khiva Khanate and Russia (1511-1920), and also it is displayed the reasons that caused such a situation in time. In addition in the litretures are illustrated some informations about the return of the Khiva ambassadors from the border towns (Orenburg and Astrakhan) by the Russian government, and they are summerized in this article. The influence of the economical, political-military issues abserved in the relations between the two countries to this situation is also determined.

Key words: Embassy, collegium of foreign affairs, ministry of foreign affairs, ambassadors: Belyusuf, Haji Muhammad Tursunov, Ali Shukurov, Nurullabai Kutlug Mamatov, Iskhak Tangriberdiev, Muhammad Amin Eshon, Berg's expedition.

Kirish. Xiva xonligi XVI asrda Rossiya bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatib, ikki davlat o‘rtasida elchilar orqali savdo-iqtisodiy masalalar ko‘riladi. Xonlikdan farqliroq, Rossiyada elchilarini qabul qilish maxsus davlat idoralari orqali amalga oshirilgan. Mazkur idoralar davriy jihatdan o‘zgarishga uchrab turgan. Ta’kidlash kerakki, Rossiyada elchilik xizmati bilan bog‘liq idoralar hukmdorlarning taxtga kelishi bilan o‘ziga xoslik kasb etib, XVI asrdan XX asrgacha bo‘lgan davrda elchilik va diplomatiya sohasida to‘rtta idora faoliyat ko‘rsatadi.

Elchilik idorasi (Posolskiy prikaz) 1549-1722 - yillarda faoliyat yuritgan bo‘lib, arxiv hujjatida beshinchi darajali elchiliklar safiga Buxoro, Xiva, Xitoy va Sibir qalmoqlari kiritilganligini ko‘rish mumkin [1]. Rus diplomatiyasida XVIII asrda Pyotr I davrida o‘zgarish sodir bo‘lib, elchilarni qabul qilish marosimi (seremonial) yevropacha tus oladi. Bu masalada S. Jukovskiy, V. Zorin, O. Ageyeva, S. Sharapov va M. Niyazmatovlar tadqiqot olib borganlar [2].

Tashqi ishlar kollegiyasi 1717-1832 yillarda faoliyat olib borgan tashkilot o‘z ichiga vazir, elchi, agent, konsul, kotib, tarjimon, ruhoniy va boshqalarni birlashtirgan.

Maxfiy kengash to‘rt yil (1726-1730) faoliyat olib borgan bo‘lib, Yekaterina I davrida tashkil etilgan. Tashqi ishlar kollegiyasi bu davrda unga bo‘ysungan.

Tashqi ishlar vazirligi 1802-1917 - yillarda faoliyat olib borgan. Mazkur tashkilotda vazirlar N. Rumyansev (1807-1814), K. Nesselrode (1828-1856), A. Gorchakov (1856-1882), N. Girs (1182-1895)lar davrida xonlikka nisbatan bosim kuchaytirilib, bir qancha elchilik missiyalari va harbiy ekpeditsiyalar tashkil etiladi.

Rossiyada elchilik xizmati bilan bog‘liq yuqoridagi idoralarning tashkil etilishi, xonlik elchilarining Rossiya poytaxtiga borib podsho bilan uchrashib muzokalar o‘tkazishida o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Oqibatda XVI asrda – 1 marta, XVII asrda – 1 marta, XVIII asrda – 5 marta, XIX asrda – 3 marta Xiva elchilari Rossiya

poytaxtiga kiritilmaydi yoki shaxsan hukmdor bilan muzokaralarni o‘tkaza olmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aynan shu mavzudagi tadqiqotlar rus hamda o‘zbek tarixchi olimlari tomonidan amalga oshirilib, davriy jihatdan uch guruhni tashkil etadi: xonlik/imperiya davri, sovet davri va zamonaviy tarixshunoslik. Mustamlaka davrida F. Lobisevich, S. Jukovskiylarning rus imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida xonlik va Rossiya diplomatik aloqalarida rus podshosi tomonidan qabul qilinmaganligiga sabab qilib xonlikdagi ozod qilinmagan rus qullarni sabab qilib ko‘rsatsalar, sovet davri tarixchilari M. Yo‘ldoshev, H. Ziyoyevlar bu borada rus savdo karvonlarining qozoq dashtliklarida Xiva fuqarolari tomonidan talanishi oqibatida yetkazilgan zararning Xiva hukumati tomonidan qoplab berilmas ekan, elchilar Rossiya poytaxtiga kiritilmaganligini qayd etishadi. Zamonaviy tarixda mazkur masala birmuncha kengroq o‘rganilib, mualliflar X. G‘ulomov, V. Kostetskiy, A. Otamurodova va O. Abduraximov, N. Allayevalar tomonidan mavjud manbalar va arxiv hujjatlari asosida Xiva elchilari keltirgan hujjatlar rus diplomatiyasi talabi darajasida rasmiylashtirilmaganligi uchun rasmiy vakillar ortga qaytarib yuborilganligini qayd etadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar manbalar asosida o‘rganilib, ob’ektivlik (xolislik) va tarixiylik tamoyili asosida yondashildi. Hamda tarixiy analiz, davriy (xronologik) va tizimlilik metodlariga tayanilgan holda ma’lumotlar tahlili berildi.

Tahlil va natijalar. Xiva – Rossiya o‘zaro diplomatik munosabatlar tarixida elchilik ishlariga alohida ahamiyat berilib, ikki davlat o‘rtasida 100 dan ortiq elchiliklar tashkil etilgan. Shunga qaramasdan rus hukumati xonlikda o‘zining doimiy vakilini tayinlashga erisha olmaydi. Bundan tashqari Rossiyaning Xiva bilan munosabatlarida savdo munosabatlaridan tashqari harbiy-strategik manfaatlar ustunlik qila boshlagach, elchilarni qabul qilish tizimini ham murakkablashtiradi. Oqibatda, Xiva elchilari ayrim hollarda o‘zlariga yuklatilgan vazifani to‘liv amalga oshira olmasdan ortga qaytishga majbur bo‘lganlar. Tabiiyki bunga sabab bo‘lgan bir qancha omillar bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

Rossiya elchilik ishlarida – “Vizantiya” va “Yevropa” uslublarining qo‘llanilishi, bunda davlatlar maqomiga, Rossiya bilan o‘zaro munosabatlarda tutgan o‘rniga qarab qabul qilingan (V. Zorin, O. Ageyeva, S. Sharapov va M. Niyazmatov, I. Yusupov tadqiqotlarida);

Rus karvonlarining talon-taroj etilishi (F. Lobisevich, H. Ziyoyev, O. Sotliqov, R. Alimova, N. Allayeva monografiyalarida);

Qullar masalasi (F. Lobisevich, M. Yo‘ldoshev, X. G‘ulomov, V. Kostetskiy, M. Niyazmatov, N. Allayeva, A. Otamurodova va O. Abduraximov ishlarida);

Xonlik tomonidan rasmiylashtirilgan xat-hujjatlardagi kamchiliklar (X. G‘ulomov, N. Allayeva, M. Niyazmatov monografiyalarida).

Rossiyada elchilarni qabul qilishning “vizantiya” va “yevropaga xos” usullariga o‘tilishi bilan davlatlarning rasmiy vakillarini qabul qilish o‘zgarishlarga uchraydi. Bunda rus hukumati hukmdorlarning o‘zaro bir-birlariga yo‘llaydigan yorliqlari maqtovlar bilan boshlanib xuddi shunday tartibda yakun topishiga, yorliqlar va elchilar taqdim etadigan rasmiy hujjatlarning rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratgan. N. Allayevaning ta’kidlashicha, bu borada Rossiya Xiva xonlari va ularning rus elchilarini qabul qilish jarayoniga nisbatan ko‘pincha norozilik bilan qaragan [3]. Jumladan, 1761 - yilda Ishoq Tangriberdiyev elchilik missiyasi U. Abdurasulov va P. Sartorilarning qayd etishiga ko‘ra Orenburgdan qaytarib yuborilgan [4]. Bunga sabab qilib V. Kostetskiy, A. Otamurodova va O. Abduraximov monografiyalarida esa elchi olib kelgan xon yorlig‘i noto‘g‘ri rasmiylashtirilganligi uchun elchi saroyga kiritilmay orqaga qaytarib yuborilganligi ko‘rsatiladi [5]. Xuddi shunday ikki bor tashkil etilgan elchiliklar qatorida tilga olingan elchi Ali Shukurovning elchiligi ham natijasiz yakun topganligi ma’lum.

Shuningdek, o‘zaro munosabatlarda ko‘rilgan masalalarning ahamiyatiga ko‘ra, Rossiya tomonidan bildirilgan taklif va talablarning bajarilishiga qarab ham Xiva elchilari bilan muzokaralar o‘tkazilgan. Mazkur vajlar sabab elchilar rus podshosi tomonidan qabul qilinmagan, ko‘p hollarda Moskva va Peterburg (poytaxt shaharlar)ga o‘tkazilmasdan Astraxan yoki Orenburgda qabul qilingan va ortga qaytarilgan. “Xorezm v istorii gosudarstvennosti Uzbekistana” nomli yirik tadqiqot ishida hammualliflar X. G‘ulomov va N. Allayeva XVIII asr davomida 18 ta xonlik elchilik missiyasidan faqat 7 tasi Rossiya poytaxtigacha bora olganligi, qolgan elchiliklar esa turli vaj va bahonalar bilan Orenburg yoki Astraxanning o‘zida qabul qilinib, ortga qaytarib yuborilganligi ta’kidlanadi [6]. Bu kabi holat Xiva – Rossiya munosabatlarida yuqorida ta’kidlanganidek 10 marta sodir bo‘lgan. Dastlab, 1566-1567 yillarda Xiva xoni Hojimxon nomidan Rossiyaga podsho Ivan IV huzuriga elchi bo‘lib borgan Beliyusufni rus podshosi qabul qilmaydi. H. Ziyoyev monografiyasida mazkur elchilik xivalik elchilar qatorida sanab o‘tiladi, mazmuniga oid ma’lumotlar keltirilmaydi [7]. M. Moiseyev mazkur elchini rus podshosi qabul qilmasdan o‘zining bir vakiliga uchrashuv tayin qilganligini, bunga sabab qilib esa uning kelishidan oldinroq Xivaga yo‘l olgan elchisi Oksen Ivanovning mollari talanganligi ko‘rsatiladi. Rus podshosi Ivan IVning Xojimxonga yozgan maktubida karvon mollarini qaytarganidan so‘ng xonlik elchilarini avvalgi darajada o‘zi vabul qilishini va do‘stlik munosabatlari davom ettirilishi ma’lum qilingan, deb qayd etiladi [8]. Keyingi holatlarda esa, elchilar poytaxt shaharlarga kiritilmasdan, chegara hududlardan qaytarib yuboriladi. 1647 - yilda Xiva elchisi Amin Bahodir bilan sodir bo‘lib. H. Ziyoyev elchi 24 - iyunda Astraxanga kelganligini, biroq yaxshi kutib olinmaganligini talangan karvonlar yuzasidan deya ko‘rsatib, o‘zaro munosabatlar biroz sovuqlashgan holat deya baho beradi. Muallif elchining o‘zi bilan rus podshosiga taqdim qilish uchun olib kelgan mollari: 2 ta zotli ot, 3 ta qalpoq, 2 ta egar, 5 ta qoplon terisi va belbog‘lar Astraxan hokimi tomonidan olib qolinib, elchining Moskvaga borishiga izn berilmaydi va ortga qaytarib yuborilganligiga oid ma’lumotlarni keltiradi [9]. 1745-1746 yillarda elchi Hoji Muhammad Tursunov ham mazkur holatga tushadi. XIX asr boshlarida German elchining Astraxandan Orenburgga undan Xivaga qaytganligini ta’kidlaydi [10]. X. G‘ulomov monografiyasida elchi Xiva xoni G‘oyibxon tomonidan yuborilganligi ta’kidlanib [11], V. Kostetskiy, A. Otamurodova va O. Abduraximovlar esa rus hukumati mazkur elchini qabul qilmasdan ortga qaytarib yuborganligiga sabab qilib, Xiva xonligini Nodirshoh davlatidan mustaqil ekanligiga shubha bilan qaraganligida, deb qayd etadilar [12]. Boshqa bir holatda esa Rossiya xonlikni o‘ziga teng davlat sifatida ko‘rmaganligi seziladi. Jumladan, 1751 - yilda elchi Nurullaboy Qutlug‘ Mamatov Astraxanga kelganda general-gubernatorga xonning rus imperatoriga yo‘llagan maktubini berishga majbur bo‘ladi. Gubernatorga taqdim qilgan yorliqda Xiva xoni ikki davlat o‘rtasidagi elchilik munosabatlari vositalarsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirilishini so‘ragan (bu yerda elchilarning bir necha bor Orenburg va Astraxandan ortga qaytarib yuborilganligiga urg‘u berilgan). Shunga qaramay elchi Astraxan gubernatori yorlig‘i bilan ortga qaytishga majbur bo‘ladi. Tez orada imperator ko‘rsatmasi bilan kansler Bestujev-Ryumin imzosi bilan Xiva xoni nomiga maktub yo‘llanadi. Unga ko‘ra, “Xiva xonidan shuni so‘ralsinki, Rossiya karvonlari Xivaga borganlarida ularning erkinligi va

xavfsizligi to‘la ta’minlansin...Xiva xoni hazratlari tomonidan elchilar Orenburgga yuborilishi va bu joyning general-gubernatori bilan do‘stlik aloqalarini olib borishlik maqsadga muvofiqdir, chunki imperator oliy hazratlari chegara va savdo ishlarini olib borish vakolatini gubernatorga bergan”, degan mazmunga oid ma’lumot nusxalari H. Ziyoyev monografiyasida keltiriladi [13]. Xiva xoni tomonidan Rossiyaning xatti-harakatini bilish maqsadida tashkil etilgan 1826-1827 yillardagi 14 kishilik tarkibdagi Vais Berdiniyozov elchiligi ham Orenburgdan ortga qaytadi. X. G‘ulomov monografiyasi, S. Kinyapina, M. Bliyev va V. Degoyev hammuallifligidagi tadqiqotlarida [14] Xiva xoni kapitan Berg boshchiligidagi 2 000 kishilik rus harbiy ekspeditsiyasining Sialkovskiy ekspeditsiyasi qasdini olish uchun keldi deya gumon qilib, o‘z elchisini Orenburgga yuborganligi, Essen (Orenburg gen.-gub.), Gens (Orenburg chegara komissiyasi boshlig‘i) va Ovodov (Orenburg chegara ishlari boshlig‘i) elchiga kapitan Berg ekspeditsiyasi davomida yetkazilgan 548 600 rubl zararni xonlik qoplab berishi talabini qo‘yganligi, elchi esa unga bu masala muhokamasida unda hech qanday vakolat yo‘qligini bildirib ortga qaytganligiga oid ma’lumotni qayd etadilar [15]. V. Kostetskiy ham mazkur ma’lumotni keltirib, keyinroq podsho hukumati xonlikka bo‘lgan moddiy zararni qoplash talabidan voz kechganligini ta’kidlaydi [16]. Rossiyaning xonlikka hujumi oldidan 1871-1872 yillarda Ernazar otaliq va Muhammad Amin Eshon boshchiligidagi elchiligi ham natijasiz yakun topib elchilar Orenburgdan ortga qaytariladi. Hammualliflar O. Qo‘shjonov va N. Polvonov, A. Otamurodova va O. Abduraximov hamda I. Yusupovlarning tadqiqotlarida chegara masalasida tinchlik so‘rab borgan mazkur elchiliklar xonlikdagi barcha rus asirlari ozod etilgach muzokaralar o‘tkazilishi xabari bilan qaytganliklari qayd etiladi [17].

Xulosa va takliflar. Elchiliklardagi bu kabi holat davr nuqtayi nazaridan qaralganda, siyosiy hayot bilan bog‘liq bo‘lib, XVIII asrdan boshlab Pyotrning “Sharqqa yurish” rejasi asosida keyingi davrlarda xonlik bilan munosabatlarda bosqinchilik xarakteri muhim rol o‘ynadi. Tarixiy tadqiqotlarda mazkur masala bitta tadqiqot doirasida ochiqlanmasdan qolib, mavzu doirasidagi ma’lumotlar yaxlit holatda uchramaydi. Agar e’tibor berilsa, Xiva xonligi Rossiyaning O‘rta Osiyoga nisbatan yuritgan tashqi siyosatida oldingi o‘rinlarda turgan bo‘lib, hududni egallash va shu orqali boshqa Osiyo davlatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri eshik ochish asosiy maqsad qilinib, bu borada turli usullar: elchilarni ortga qaytarib yuborish, iqtisodiy-savdo sanksiyalaridan foydalaniladi.

Xiva xonligi va Rossiya diplomatik aloqalariga oid yaxlit tadqiqot olib borish O‘zbekiston tarixi sahifalarini mavzu doirasida yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR

1. Памятники Дипломатических сношений древней России с державами иностранными… Ч. 1. СПб., 1831. С. IV.
2. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последние трехсотлетие. Петроград, 1915. 233 с. С. 6.; Зорин В.А. Основыд ипломатической службы. – Москва, 1977. 367 с. Агеева О.Г. Дипломатический церемониал императорской России XVIII век. М., 2012. 891 с. Шарапов С. История дипломатии. http://nbisu.moy.su/dir/ ssylki internet/istorija_gosudarstva _rossiivsemirnajaistorijadiplomatii/14-1-0-267. Ниязматов М. Поиск консенсуса: Российско-Хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. С.Петербург: Петербургское Востоковедение, 2010. 496 с.
3. Ўша адабиёт. Б. 26. Аллаева Н.А. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. Тошкент: Akademnashr, 2019. Б. 305.
4. Abdurasulov U., Paolo Sartori. At the Coronation! A Khivan Ambassador Makes It to Moscow (1762).//Journal of Central Asian History - 1 (2022). P. 177.
5. Костецкий В.А. Россияне в Узбекистане/ Авт.- сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. Ташкент: Нихол, 2008. С. 38. Otamurodova A., Abduraximov O. Xiva elchilari. Toshkent: Tafakkur qanoti. 2016. B. 86.
6. Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. Хорезм в истории государственности Узбекистана. Ташкент, 2013. С. 221.
7. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми — XIX аср). 1 жилд. Тошкент: Таълим нашриёти, 2014. Б. 53.
8. Моисеев М.В. Дипломатические контакты с ханствами Средней Азии при Иване Грозном.//Коммуникативная культура: история и современность. Новосибирск, 2019. С. 221.
9. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми — XIX аср). 1 жилд. Тошкент: Таълим нашриёти, 2014. Б. 63.
10. Герман. Исторический взгляд на сношения России с Хивинскою областью.//Вестник Европы. Ноябр и декабрь, 1822. С. 148.
11. Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века. Тошкент, 2005. С. 226.
12. Костецкий В.А. Россияне в Узбекистане/ Авт.- сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. Ташкент: Нихол, 2008. С. 37. Otamurodova A., Abduraximov O. Xiva elchilari. Toshkent: Tafakkur qanoti. 2016. B. 81.
13. Зияев Х. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. Тошкент, 1973. Б. 25.
14. Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века. Тошкент, 2005. С. 242-243. Киняпина Н.С., Блиев М.М., Дегоев В.В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (вторая половина XVIII-80-е годы XIX в.). М.: изд-во Моск.ун-та, 1984. С. 229-230.
15. Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века. Тошкент, 2005. С. 243.
16. Костецкий В.А. Россияне в Узбекистане/ Авт.- сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. Ташкент: Нихол, 2008. С. 42.
17. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтнмоий-сиёсий жараёнлар ва қаракатлар (XIX яср иккинчи ярми - XX аср бнринчи чораги). Тошкент, 2007. Б. 40.; Otamurodova A., Abduraximov O. Xiva elchilari. Toshkent: Tafakkur qanoti. 2016. B. 216-217.; Юсупов И. Хоразм воҳасида алоқа тизими тарихидан (1873-2018 йй.) Тарих фанлари бўй. ном. дисс...Тошкент, 2020. Б. 31.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 27:94(575.1+470)“19”

Sunnatillo HAMRAYEV,
O‘zR FA Tarix instituti Tarixshunoslik va manbashunoslik markazi tayanch doktoranti
E-mail: hamroyev.s@mail.ru

O‘zMU professori, tarix f.d. (DSc.) D. O‘roqov taqrizi asosida

VIEWS ON BUKHARO-RUSSIAN RELATIONS IN RUSSIAN SOURCES

Annotation

This article analyzes the interpretation of embassy relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire in Russian-language sources. The coverage of the situation during diplomatic negotiations in these sources was studied. Also, the views of the authors are focused on reflecting the political sentiments of the Russian Empire in relation to the Emirate of Bukhara. Moreover, they assessed the attitude of the Emirate of Bukhara towards the Russian Empire from their point of view. This article analyzes the source data based on the problematic approach of historiography.

Key words: Emirate of Bukhara, Russian Empire, ambassadorial relations, Budrin, P.I. Demaison, Ya.V. Vitkevich, N.P. Ignatiev, L.F. Kostenko, source.

ВЗГЛЯДЫ НА БУХАРО-РОССИЙСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В РОССИЙСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация

В данной статье анализируется трактовка посольских отношений между Бухарским эмиратом и Российской империей в русскоязычных источниках. Изучено освещение ситуации во время дипломатических переговоров в этих источниках. Также взгляды авторов сосредоточены на отражении политических настроений Российской империи по отношению к Бухарскому эмирату. Более того, они оценил отношение Бухарского эмирата к Российской империи со своей точки зрения. В данной статье анализируются данные источников на основе проблемного подхода историографии.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская империя, посольские отношения, Будрин, П.И. Демезон, Я.В. Виткевич, Н.П. Игнатьев, Л.Ф. Костенко, источник.

RUS MANBALARIDA BUXORO – ROSSIYA MUNOSABATLARIGA OID QARASHLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasida olib borilgan elchilik munosabatlarining rus manbalarida talqin etilishi tahlil qilingan. Manbalarda diplomatik muzokaralar davomidagi vaziyatning yoritilishi tadqiq etilgan. Shuningdek, mualliflarning qarashlarida Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga nisbatan siyosiy kayfiyatini aks etishiga e’tibor qaratilgan. Qolaversa, Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga nisbatan munosabatini o‘z nuqtayi nazaridan baholagan. Ushbu maqolada manbalarning ma’lumotlari tarixshunoslikning muammoviy yondashuvi asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, elchilik munosabatlari, Budrin, P.I. Demezon, Y.V. Vitkevich, N.P. Ignatyev, L.F. Kostenko, manba.

Kirish. Rossiya imperiyasidan Buxoro amirligiga o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga oid rus manbalari o‘z ichiga elchi, elchilik tarkibida bo‘lgan turli soha mutaxassislari, harbiy xizmatchilar va sayyohlar asarlarini oladi. Ularda ikki davlatning o‘zaro munosabatlariga nisbatan mualliflar qarashlari aks etgan. Ushbu asarlar elchilik hisobotlari, elchilar va harbiy xizmatchilar tomonidan yozilgan yoki ulardan yozib olingan qaydlar, xotiralar shaklida nashr qilingan.

Bir qator tadqiqotchilar Buxoro-Rossiya diplomatik munosabatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lgan Rossiya elchi va vakillari asarlarining manba sifatidagi ahamiyatini umumiy tarzda ko‘rsatib bergan. Jumladan, XX asrning 20-90-yillarida taniqli tarixchi olimlar V.V. Bartold[1], M. Solovyov[2], O.V. Maslova[3], N.A. Xalfin[4], B.V. Lunin[5], D.Y. Arapov[6], va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Rus manbalari Buxoro–Rossiya diplomatik munosabatlari hamda Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatni o‘rganishda muhim ma’lumotlar taqdim etadi. Ularni umumlashtirib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- Markaziy Osiyo xonliklarining siyosiy ahvoli, XVIII asr oxiri – XIX asr o‘rtalaridagi o‘zaro munosabatlari va ularning Rossiya imperiyasiga nisbatan siyosiy qarashlari haqida muhim ma’lumotlar taqdim etishi;

- Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlari doirasida qamrab olingan masalalarni o‘zida aks ettirishi;

- Markaziy Osiyoda ingliz-rus raqobatchiligi yuzasidan tafsilotlarga egaligi;

- ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning o‘zaro savdoga ta’siri, hamda savdogarlarning xavfsizligi masalalarida ikki davlatning yondashuvlari;

- ushbu manbalarda bir yoqlama qarash ustuvorlik qilishi va Rossiya imperiyasining ustunlik pozitsiyasi tarafidan yozilganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Bundan tashqari Buxoro amirligining tabiiy geografik joylashuvi, uning ma’muriy va siyosiy boshqaruvi, shaharning binolari, qo‘shin holati, ichki va tashqi savdosi, davlatning iqtisodiy salohiyati, g‘aznasi va boshqa bir qator muhim ma’lumotlar taqdim qiluvchi manba sifatida ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur ishda rus manbalarida Rossiya–Buxoro diplomatik munosabatlari davomida mualliflarning Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga nisbatan “siyosiy kafiyati” xususidagi qarashlari tarixshunoslikning muammoviy yondashuvi asosida tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Rus manbalarida Buxoro amirligi bilan munosabatlar masalasining yoritilishida ko‘p ta’kidlangan xususiyatlardan biri – bu

Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga nisbatan “kayfiyatini” aniqlash va uni tahlil qilish hisoblanadi. Xususan, bu masalada Budrin[7], P.I. Demezon va Y.V. Vitkevich[8], N.P. Ignatyev[9], N.G. Zalesov[10], A. Tatarinov[11] hamda Buxoroning Rossiya protektoratiga aylangandan keyingi davrda L.F. Kostenko[12], I.L. Yavorskiy[13] V.V. Krestovskiy[14] asarlarida shunday ma’lumotlarni ko‘rish mumkin.

1820 - yildagi A.F. Negri missiyasi tarkibida bo‘lgan ruhoniy Budrin ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar haqida yozib, Buxoro amirining rus elchilarini yaxshi kutib olgan bo‘lishiga qaramasdan jiddiy to‘siqlarga duch kelganligi bayon qiladi. Jumladan, Budrin A.F. Negrining deyarli barcha so‘rovlari xususan, Buxorodagi rus asirlarini ozod qilish masalasidagi so‘rovi rad etilganligini yozadi[15]. Qolaversa, Budrin yozgan kundaligida Buxoroda muzokaralar o‘tkazish borasida missiya duch kelgan qiyinchiliklar ya’ni, Buxoro amiri tomonidan elchining uchrashish bo‘yicha bir necha bor taklifi rad qilinganligi, asosiy masalalar muhokama qilinmasdan elchiga fevral oxirida 10 kun davomida shaharni tark etishi to‘g‘risida buyruq bo‘lganligini[16] qayd etadi. Shuningdek, Budrinning so‘zlarida elchilarga ta’minot uchun juda kam miqdorda pul ajratilganligi va doimiy kuzatuvga bo‘lganligi ham ma’lum bo‘ladi[17]. Ushbu ma’lumotlardan A.F. Negri missiyasi Buxoroda bo‘lgan paytda amirlik hukumati ushbu elchilikka va umuman Rossiya imperiyasiga nisbatan yaxshi kayfiyatda bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin.

Buxoro amirligiga kelib, o‘z safari haqida batafsil hisobot yozgan yana bir sharqshunos Petr Ivanovich Demezon[18] hisoblanadi. U 1833-1834 yillarda Orenburg harbiy gubernatori V.A. Perovskiy topshirig‘i bilan Buxoroga Ja’far ismli tatar mullasi qiyofasida kelgan[19]. P.I. Demezonga Orenburg harbiy gubernatori V.A. Perovskiyning maktubini Buxoro amiri Bosh vaziri, ya’ni Qushbegining shaxsan o‘ziga topshirish vazifasi yuklatilgan. Shu maktub orqali Rossiyalik Mirzo Ja’far Buxoro amirining Bosh vaziri bilan uchrashish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu bilan P.I. Demezon tarixga Buxoro xonligiga kelib o‘z qaydnomalarini qoldirgan birinchi yevropalik sifatida qoladi[20]. P.I. Demezon qaydlarida Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning umumiy xususiyatlarining mazmuniga to‘xtalib o‘tiladi. Xususan, Buxoro hukumatining Rossiya imperiyasiga nisbatan munosabati haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Buxoroliklar aslida Xivaliklardan kam bo‘lmagan darajada Rossiyani yoqtirmasalarda o‘z manfaatlari yo‘lida buni yashirishga urinadilar. Buni hukumatlarimiz o‘rtasidagi bir qarashda do‘stona xususiyatga ega bo‘lgan munosabatlarni saqlab qolish uchun qiladilar”[21]. Shuningdek, Rossiya imperiyasining qozoq juzlari ustidan hukmronligining oshib borishiga Buxoro amirligining munosabati haqida quyidagicha ma’lumot taqdim etadi: “Ammo bir tarafdan o‘z mutaassibliklari sababli rus hukumatiga nafrat bilan qaraydilar, boshqa tarafdan esa – Rossiyaning qirg‘izlar (qozoqlar – S.H.) ustidan hukmronligi oshib borayotganidan hadiksirab turadilar, chunki ular bu yerdagi daromadli savdodan mahrum bo‘lishdan qo‘rqadi va xalq hayoti uchun zarur ishlab chiqarish mahsulotlarini yetkazib beradilar. Buxoroliklar Rossiya va jon jahdi bilan har qanday qaramlikka qarshi bo‘lgan qirg‘izlarni urishtirib qo‘yishga harakat qilar edi”[22]. Ushbu holat P.I. Demezon nigohida Buxoroning o‘zaro savdo munosabatlari hamda mintaqadagi siyosiy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarini namoyon etadi. Zero, XIX asrning 30-yillarida Buxoro amirligi O‘rta Osiyodagi qo‘shnilari Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan raqobatlashish jarayonida o‘ziga mintaqa tashqarisidan hamkor izlashga majbur edi. Shu bilan bir vaqtda Rossiya timsolida paydo bo‘lgan hamkorning agressiv janubiy siyosati Buxoro amirligi hukmron doiralarini ehtiyotkorlikka chorlar edi.

P.I. Demezondan bir yil keyin Buxoroda bo‘lgan harbiy xizmatchi Y.V. Vitkevich qushbegining unga nisbatan munosabati haqida quyidagi fikrlarni yozib o‘tadi. “Menga bir necha bor josusligim haqidagi o‘z gumonlarini aytib o‘tishdi, Qushbegi keyinroq menga hammasini kuzatish va o‘rganish uchun kelganligimni, shundan so‘ng esa, meni ortimdan ruslar qo‘shini kelishi haqida gapirdi. Men undan mulohaza qilishni so‘radim, men hech narsani xufyona kuzatganim yo‘q, chunki hammasini bilaman, agar nimanidir xohlasam o‘zimizda yashaydigan buxoroliklardan bilaman, shuningdek, oldinroq bu yerda 500 kishilik qo‘shin bilan kelgan elchilik (1820 - yilda A. Negri missiyasi nazarda tutilmoqda – S.H.) o‘sha paytda nima hohlasa hammani ko‘rishganligini aytib o‘tdim”[23]. Y.V. Vitkevichning ushbu so‘zlaridan, o‘zining josus ekanligi va Rossiya imperiyasining asl maqsadlari haqida Buxoro hukumatida farazlar borligini ko‘rish mumkin. YA’ni, Buxoro amirligi diplomatik munosabatlarning ikkinchi tarafi sifatida Rossiya imperiyasining to‘laqonli do‘stona munosabatlariga ishonmasligini bildiradi.

Rossiya imperiyasidan yuborilgan va 1858 - yilda Xiva xonligi va Buxoro amirligida bo‘lgan N.P. Ignatyev Buxoro amiri bilan muzokaralar oldin vaziyatga quyidagicha baho beradi. “Buxoro amiri mish-mishlarga ko‘ra o‘z elchisining Sankt-Peterburgda yomon qabul qilingani uning bir nechta iltimoslari bajarilmaganligidan shuningdek, ushbu missiyaning dastlab Xivaga yuborilishi afzal ko‘ringani, undan keyin Buxoroga jo‘natilganidan norozi bo‘lgan. Xiva xonligidagi missiyamiz va flotiliyamiz haqida keng tarqalgan xabar amirga haddan tashqari oshirib yuborilgan holda yetib keldi. Shunday qilib, biz Buxoroda muvaffaqiyatli natija kutishimiz mumkin emas. Men paytdan foydalanib Amu daryosi vodiysiga borish imkoniyatini yo‘qotmaslik uchun u yerdan o‘taman. Amir bizni bundan ham ko‘proq xafa qilgan deb hisoblamasligi uchun menga berilgan topshiriqni bajarishga harakat qilaman, lekin muzokaralarda muvaffaqiyatga ishonmayman. Men Amir bizni Buxoroda kelgusi bahorgacha ushlab turishidan qo‘rqaman”[24]. N.P. Ignatevning elchilik faoliyati muvaffaqiyatli yakunlangan va uning ushbu fikrlari Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektoratiga aylagandan keyin nashr qilingan. Mazkur holat yuqoridagi ma’lumotlar orqali uning o‘z davlati oldidagi xizmatlari qadrini oshirishda foydalanganligi to‘g‘risidagi fikrini uyg‘otadi. Ammo, fakt shuki, N.P. Ignatyev qo‘lida Amudaryoda kema qatnovi yuzasidan geografik imkoniyatlari haqida ma’lumotlar bo‘lishiga qaramasdan ushbu yo‘ldan kelgan va muzokaralarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi xususida xavotirlarini yashirmagan.

N.P. Ignatyev Rossiya imperiyasining O‘zbek xonliklarining o‘zaro monasabatlaridagi vaziyatdan kelib chiqib Buxoro amirligi bilan keyingi aloqalarida qanday yo‘l tutishi to‘g‘risida qarashini bayon qiladi. Jumladan, “Buxoro amiri siz uchun ishonchli ittifoqchi bo‘la olmasligiga ishonch hosil qilsak, unda uning Qo‘qon bilan urushiga qatnashishga asosimiz yo‘q” deb ta’kidlaydi[25]. Ushbu qarash orqali Buxoro-Qo‘qon urishida Rossiya imperiyasining pozitsiyasini ko‘rish mumkin. Umuman olganda Rossiya imperiyasi uchun doim O‘zbek xonliklarining o‘zaro murosasizligidan manfaatdor edi va shuning uchun ham diplomatik munosabatlar davomida ular o‘rtasida ziddiyatlarni kuchaytiradigan siyosat olib borgan.

Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi 1868 - yildagi sulhdan keyin Turkiston general-gubernatori tomonidan Buxoroga elchilar va vakillar yuborilgan. Shunday elchilardan 1869-1870 - yillarda Toshkent va Sankt-Peterburgda bo‘lgan Buxoro elchiligiga javoban Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman 1870 - yil 1 - aprelda Buxoroga rus missiyasini jo‘natdi[26]. Missiya boshlig‘i etib

mahalliy aholining umumiy diqqat e’tiborini fe’l-atvorini bilgan va ular bilan muomala qila olish qobiliyatiga ega S.I. Nosovich tayinlandi.

Rossiya harbiy arbobi, Bosh shtab general-mayyori, diplomat, harbiy sharqshunos, Markaziy Osiyo yurishlari ishtirokchisi Lev Feofilovich Kostenko (1841-1891) o‘zining “Puteshestviye v’ Buxaru Russkoy missii v’ 1870 godu”[27] asarida missiyaning tashkil qilinishi, a’zolari, maqsadi haqida ma’lumotlar beradi. Unda missiyaning asosiy maqsadi Turkiston general-gubernatorining Buxoro amiriga do‘stlik bayonotini yetkazish va Buxoro bilan siyosiy hamda savdo aloqalarini mustahkamlash ekanligi ta’kidlangan[28].

Kostenkoning ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, “Oldimizdagi qiyin vazifalar oxiriga yetmasidan, Buxoroga Kobuldan afg‘on elchiligi kelganligi, ular ichida hatto ingliz komissari borligi haqida gap tarqaldi. Buxoro hukumati qabulida bo‘lganimizda va elchilikning keyingi jarayonlaridagi turli sharoitlarda, xususan, agarda muzokaralar davomida noqulay vaziyat kelib chiqsa missiya a’zolari shaxsiy xavfsizligini taminlash chora-tadbirlarini qilishi borasidagi bir qator huquqlar berildi”[29]. Bundan ko‘rinadiki, missiya tashkil qilingan vaqtda ham Rossiya imperiyasi hukumatida va Turkiston general-gubernatorida Buxoro amirliginipg Rossiya bilan munosabatlarida amirlik hukumatiga nisbatan ishionchsizlik bo‘lgan. Ammo, elchilar buxoroda yaxshi kutib olingan. Sovg‘alar almashilgan, elchilarning Rossiya va Buxoro o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash to‘g‘risidagi murojaati yaxshi qabul qilingan[30]. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, bu borada asarlardagi qarashlarning tarixiy davr va siyosiy holatdan kelib chiqib turlicha bo‘lganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektoratiga aylangandan keyingi davrga oid esdaliklarda ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona aloqalar xarakteri asosiy xususiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, rus manbalarida Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga nisbatan munosabatini ehtiyotkorlik va hadiksirashdan iboratligini namoyon etadi. Qolaversa, elchilik missiyalarining qat’iy kuzatuvda bo‘lganligi va muzokaralarda ko‘tarilgan ko‘plab masalalar aksariyat hollarda rad etilganligi ta’kidlanadi. Shunindek, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi protektoratiga aylangandan keyin do‘stona munosabatlar e’tirof etilgan. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, sulh shartnomasidan keyin yuborilgan dastlabki elchilar ishtirokchilari tomonidan yozilgan asarlarda Rossiya imperiyasining ehtiyotkorlik va favqulodda vaziyatlarga tayyor turishi kerakligi qayd etilgan.

Mazkur manbalarni tanqidiy hamda boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlili va undagi ma’lumotlarni ilmiy muomalaga olib kirilishi xonliklar tarixi davriga oid bir qator ilmiy muammolarni hal etilishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu manbalarni o‘zbek tiliga tarjimasini amalga oshirib uni ilmiy muomalaga kiritish o‘zbek manbashunosligining dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bilan bir qatorda ushbu manbalarning tarixshunoslik tahlilini amalga oshirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. История изучения Востока в Европе и в Рос сии. Спб., 1911, 282 стр. 2-е изд. 1925.
2. Соловьев М.М. Экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участии натуралиста А.Лемана.–Москва - Ленинград: Наука, 1936.
3. Маслова О.В. Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. Материалы к истории изучения Средней Азии, ч. I-IV.1725 – 1856. Ташкент, 1955-1971.
4. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (Первая половина XIXв.). Москва, 1974.
5. Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов: Историографический очерк. – Ташкент, 1979.; Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках (известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX в.). Ташкент, 1988.
6. Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. Москва. 1981.
7. Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записка очевидца) // Туркестанский сборник. Т. 239. – СПб., 1880.
8. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). // под ред. Халфин Н.А. М., Наука. 1983.
9. Игнатьев Н.П. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. СПб., 1897
10. Залесов Н. Посольство в Хиву и Бухару полковника Игнатьева в 1858 г. // Русский вестник. -1871. -Т.91. -№2, 3.
11. Татариновъ А. Семимьсячный пленъ въ Бухарии., Санкт-Петрбургъ., Москва., 1867.
12. Костенко Л.Ф. Путешествие въ Бухару Русской мисси въ 1870 году. С.-Петербург., 1871. – 108 б.
13. Яворсков И.Л. (шуни кундалиги асосида II томли) Путешествие Рускаго посольства по Афганистану и Бухарскому ханству въ 1878 – 1879 гг. Томъ II. Санкт-Петербург., 1883.
14. Крестовский В.В. Въ гостяхъ у эмира Бухарскаго. С.-Петербургъ, 1887.
15. Будрин. Русские в Бухаре 1820 году. (Записки очевидца) // Справочная книжка Оренбургского края на 1871 год. 18-21 бетлар.
16. Будрин. Русские в Бухаре 1820 году. (Записки очевидца) // Справочная книжка Оренбургского края на 1871 год. 18-21 бетлар.
17. Будрин. Русские в Бухаре 1820 году. (Записки очевидца) // Справочная книжка Оренбургского края на 1871 год. 18-21 бетлар.
18. https://ru.wikipedia.org/wiki/Демезон,_Пётр_Иванович; Н.А.Халфин. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). М., Наука. 1983. 148 бет; XIX асрнинг 30-йилларида Россия-Бухоро дипломатик муносабатларини ўрганишда П.И. Демезон ва Я.В. Виткевич қайдларининг аҳамияти. // ЎзМУ хабарлари № 1/2. Тошкент., 2021. 48-53-бетлар.
19. https://ru.wikipedia.org/wiki/Демезон,_Пётр_Иванович
20. Кононов А.Н. Библиографический словарь отечественных тюркологов. Дооктябрьский период. М., 1989. 156-бет.
21. Халфин Н.А. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). М., Наука. 1983. 21-бет.
22. Халфин Н.А. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). М., Наука. 1983. 21-бет.
23. Халфин Н.А. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). М., Наука. 1983. 110-бет.
24. Игнатев Н.П. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году флигель-адютанта полковника Н.Игнатьева. С.Петербургъ. 1897. 184 бет.
25. Залесов Н. Посольство в Хиву и Бухару полковника Игнатьева в 1858 г. // Русский вестник. 1871. Т.91. №2, 3. 461 бет.
26. Костенко Л.Ф. Путешествие въ Бухару Русской миссии в 1870 году. С.-Петербург. 1871. 5-бет.
27. Костенко Л.Ф. Путешествие въ Бухару Русской миссии в 1870 году. С.-Петербург. 1871. 108 бет.
28. Костенко Л.Ф. Путешествие въ Бухару Русской миссии в 1870 году. С.-Петербург. 1871. 6-бет.
29. Костенко Л.Ф. Путешествие въ Бухару Русской миссии в 1870 году. С.-Петербург. 1871. 6-7-бетлар.
30. Костенко Л.Ф. Путешествие въ Бухару Русской миссии в 1870 году. С.-Петербург. 1871. 53 бет.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:94-055.2(575.171)

Sanobar SHODMONOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,tarix fanlari doktori
Nodirabegim NAZARQULOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
E-mail: osiyouzturk@gmail.com

O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori O.Radjabov taqrizi asosida

PHOTOGRAPHS IN AN ANTHROPOLOGICAL RESEARCH ANALYSIS

Annotation

The 21st century is the century of high computer technologies. With the development of modern technologies, as in all fields of science, new sources and methods of research and research have been formed in the science of history. Digital technologies that facilitate the learning of visual materials, as well as the process of teaching, are increasingly developing. In science, digital resources are a collection of visual materials of all kinds that can be stored, transported, and easily distributed by means of digital technologies - in the case of visual anthropology. With the use of digital technologies, it will be possible to dramatically increase the amount of information to be covered during research, to facilitate the use of an additional viewing method to the reading and understanding method of information acquisition and transmission.

Key words*:* Visual source, man-made image, painting, art historiography, caricature.

ФОТОГРАФИИ В АНАЛИЗЕ АНТРОПОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

XXI век – век высоких компьютерных технологий. С развитием современных технологий, как и во всех областях науки, в исторической науке сформировались новые источники и методы проведения исследований и исследований. Все большее развитие получают цифровые технологии, облегчающие изучение наглядных материалов, а также процесс обучения. В науке цифровые ресурсы — это совокупность визуальных материалов всех видов, которые можно хранить, транспортировать и легко распространять посредством цифровых технологий — в случае визуальной антропологии. С использованием цифровых технологий можно будет резко увеличить объем информации, охватываемой в ходе исследования, облегчить использование дополнительного метода просмотра к методу чтения и понимания получения и передачи информации.

Ключевые слова: Изобразительный источник, рукотворный образ, живопись, искусствоведение, карикатура.

FOTOSURATLAR ANTROPOLOGIK TADQIQOT TAHLILIDA

Annotatsiya

XXI asr – yuqori komputer texnologiyalari asri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan, barcha fan sohalarida bo‘lganidek, tarix fanida ham tadqiqot va izlanishlar olib borishning yangi manbalari va metodlari shakllandi. Vizual materiallarni o‘rganish, shuningdek, o‘rgatish jarayonini osonlashtiradigan raqamli texnologiyalar tobora rivojlanib bormoqda. Fanda raqamli manbalar – bu, raqamli texnologiyalar vositasida saqlanadigan, tashiladigan va oson tarqatilish imkonini beradigan barcha turdagi – vizual antropologiya misolida vizual materiallar to‘plami tushuniladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish yordamida tadqiqotlar davomida qamrab olinadigan ma’lumot hajmini keskin ko‘paytirish, axborot olish va uzatishning o‘qib-tushunish usuliga qo‘shimcha ko‘rib-kuzatish usulidan ham foydalanish asosida osonlashtirish mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Vizual manba, texnogen tasvir, rasm, san’at tarixshunosligi, karikatura.

Kirish. Vizual antropologiya – vizual materiallar asosida tarixiy voqea-hodisalarni o’rganishga asoslangan bo’lib, bunda fotosuratlar, videomateriallar asosiy tadqiqot predmeti sifatida olinadi. Vizual materiallarning fotosuratlar va rasmlar kabi ikki turi ijtimoiy va madaniy antropologiyaning paydo bo’lishida ahamiyatli rol o’ynaydi. Fan rivojlanib, o’z standartlari, metod va texnikalarini shakllantirib borgani sari, vizual materiallarga bo’lgan munosabat ham o’zgarib ularni o’rganish metodlari ham rivojlanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Vizual antropologiyada vizual material atamasiga ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi, san’at tarixshunosligi hamda san’at antropologiyasiga ko’proq o’xshash bo’lib, odam harakatini o‘zida aks ettirgan har qanday vizual predmetlarni qamrab oladi. Ularga misol qilib, ibtidoiy davrda yaratilgan g‘or rasmlari, yog‘ochga ishlangan tasvirlar, litografiyalar, bo‘yoqda ishlangan suratlar va umuman, ilk Afrika, arab, Xitoy, Yevropa, hind, yapon, mo‘g‘ul va boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan tasviriy manbalarni kiritish mumkin. Ammo, bu sanab o‘tilgan manbalar, asosan, arxeologlar va san’at tarixshunoslarining o‘rganish ob’ekti hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuvga ko’ra, vizual antropologiyada vizual materiallar istisno tarzida texnogen tasvirlar bilan cheklanishi kerak. Texnogen tasvirlar – insonning bevosita aralashuvisiz, kamera va har qanday tasvirga olish vositasi yordamida hosil qilingan tasvirdir. Unda aks ettirilgan ob’ektlarning xatti-harakati yoki holatiga tasvirga oluvchi aralasha olmaydi, shu boisdan ham, ular uchinchi shaxs tomonidan ob’ektiv material sifatida olinishi mumkin. Texnogen tasvirlar yaxshi himoyalanganda cheksiz muddatgacha tadqiqot manbasi bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini ob’ektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi.

Shuningdek, maqoladagi ma’lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.



1-rasm. Kamera-obskura chizmasi

Tahlil va natijalar. Fotografiyaning kashf etilishida asosiy rol o‘ynagan fransuzlar Neps va Dager, ingliz Talbot kabilarning kashfiyotiga qadar yorug‘lik, nur yordamida tasvir yaratish sohasida izlanish, tajribalar bo‘lgan. Masalan, mashhur rassom Leonardo da Vinchi kamera-obskura degan asbob chizmasini yaratgan. Kamera-obskura tuynugi orqali o‘tadigan quyosh nurlari ekranda muayyan tasvir hosil qilgan. Kamera mexanizmidan hozirda ham foydalanilmoqda. Kamera-obskuraning tuzilishi quyidagicha: katta qutining bir tomoni teshilib, ikkinchi tomoniga linza o‘rnatiladi.

Orqadagi ob’ekt unda o‘z aksini topadi. Suratchi ikki o‘lchamli formatda mazkur oyna ustiga bir parcha qog‘oz yoki kalkani joylashtirgan va ushbu usul yordamida rasmning umumiy proporsiyasiga ega bo‘lgan. XIX asrda sayyohlar o‘zlari ko‘rgan narsalarni bir umrga muhrlab qolishni istardilar. Mazkur qurilma ularning ushbu orzularini amalga oshirishga imkoniyat yaratdi [1].

Fotosuratlarning antropologik ilmiy muomalaga kirishi tarixchilar yoki sotsiologlarning emas, balki fotojurnalistlar faoliyati natijasi bo‘ldi. 1861 – 1865 yillarda AQShda bo‘lib o‘tgan fuqarolar urushi yillarida jang maydonlaridan reportajlar tayyorlagan Metyu Bredi, XIX asr oxirlarida Nyu York gazetasi sahifalari uchun suratga olish bilan shug‘ullangan Jeykob Riz, hamda Buyuk depressiya davrini fotosuratlarda tasvirlagan Dorte Lanj kabilarning faoliyati bu sohadagi muhim ishlardir.

So‘nggi vaqtlarda jahonda davriy matbuotning alohida olingan bir janrini tadqiqot manbasi sifatida o‘rgangan ilmiy ishlar yaratildi, jumladan, bosh maqolalar [2] yoki fotoreportajlar [3] tadqiqot ob’ekti sifatida olindi.

Gazeta materiallaridan foydalanish uning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Gazeta janrlari tuzilmasida ikkita element ajratilgan: faktik materialning o‘zi va unga mualliflik sharhi. Tadqiqot ishida gazeta va jurnallar materiallarining sub’ektiv qismi, faktlar talqini, ularning sharhi ham tadqiqotchi uchun ahamiyatli deb e’tirof etilgan. Hatto voqea va yangiliklar ro‘yxatida ham yangiliklarni tanlash hamda ular bayonining ketma-ketligida sub’ektiv omil ishtirok etadi. Shu jihatdan qaraganda, maqola mazmunining faktligi masalasi undan qidirilayotgan aniq-tarixiy bilish vazifasiga ham bog‘liq. Bunda fotohujjatlarni aniq-tahliliy manbaviy tanqid [4] qilish asosida birma-bir o‘rganish zarurati kamroq seziladi.

F.Shamayevaning tadqiqot ishida kinofotohujjatlar, qachonki ular bunday turdagi yagona material bo‘lsa, boshqa manbada yoritilgan u yoki bu voqeani yoritishni o‘z mazmuni bilan kengaytirib va mufassallashtirib bersa, haqiqiy tarixiy fakt va voqealarning qayd etuvchisi sifatida tarixiy manbalar rolini o‘ynay olishi, biroq har qanday holatda ular boshqa manbalardan ajratilgan holda ko‘rib chiqilmasligi, buning sababi, ular mazmunni uzatish, yaratilishi va vujudga kelishi usullaridagi o‘ziga xosliklari bilan boshqa manbalardan farq qilishi haqida xulosa berilgan [5].

XX asrda fotomateriallar axborot manbai sifatida ayniqsa jamiyat ijtimoiy hayotiga chuqur kirib keldi. Mamlakatda qanday muhim voqea sodir bo‘lmasin, albatta fotoplenkada qayd etiladigan bo‘la bordi [6].

Fotografiyaning vizual antropologiyadagi mustaqil rolini o’rganish Jon va Malkolm Kolliyerlarning “Vizual antropologiya: fotografiya tadqiqot metodi sifatida” [7] nomli klassik kitobida diqqat markaziga olinib, antropogiyada markaziy pog‘onaga qo‘yilgan edi. Yuqorida nomi keltirilgan kitobni 1986-yilda qayta ishlab, to‘ldirib nashr qilishgan ham edi[8]

Gazeta va jurnallardagi fotosuratlar bilan ishlashda badastur, rejali ichki va tashqi tahlil muhim ahamiyatga ega. Tahlil uchun bu tur materiallarni to‘plashda quyidagi masalalarga e’tibor berish lozim:

1. Gazeta-jurnal inventarini aniq qilib jadval shaklida tuzib olish kerak.

- Yo‘qolgan sonlarini aniqlash, boshqa kutubxonalardan topish, yo‘qolgan va topilganlarni belgilash lozim.

- Uning saqlanganlik darajasini aniqlash, foydalanib bo‘lmaydigan sahifalarini 2-nusxa mavjud bo‘lsa, undan olib foydalanish.

- Har bir sonning sahifalar miqdorini, avvalgi-keyingi sonlarga, kun va sanalariga qarab tartib raqamlari to‘g‘ri qo‘yilganligini tekshirish, raqamlar chalkashgan holatlarni aniqlash.

- gazeta-jurnal rasmlarini manbasi aniq ko‘rsatilgan holda izohlab yozish yoki rasmga tushirib to‘plash.

2. Gazeta-jurnal fotosuratlarini vaqt hamda voqealar doirasida, shuningdek, sohaviy (mavzuiy) jihatdan tizimlashtirib o‘rganish orqali tadqiqotga oid turli umumlashtirish va xulosalarga ega bo‘lish mumkin.

Davriy matbuot suratlarining asosiy mazmun va yo‘nalishlari aniqlanib, mazmun, janr va boshqa yo‘nalishlariga ko‘ra muayyan turlari aniqlanib ajratilgach, ularning miqdorini aniqlash, qiyoslash o‘tkaziladi. So‘ng biror davriy matbuot nashri suratlarining yillar kesimidagi mazmun yo‘nalishlari va miqdori orasidagi nisbat asosida muayyan xulosalar, umumlashtirishlar qilish mumkin.

3. Suratlarning yaratilish sabablari va maqsadlarini, qanday g‘oyaga, qanday voqea-hodisa sharhi, talqini yoki targ‘ibotiga xizmat qilganligini aniqlash, fotosurat bilan bog‘liq voqealar, hodisalar va jarayonlarni o‘rganib, suratlar xizmat qilgan targ‘ibot mohiyatini, yo‘nalishini tahlil qilish.

4. Tasviriy, fotografik jihatdan, jurnalistik jihatdan gazeta suratlarining janrlarini o‘rganish va aniqlash.

5. Gazeta-jurnal suratlarining miqdoriy, sifatiy va davriylik, terim kampaniyalari davri, hukumat tomonidan qo‘yib borilgan dolzarb vazifalar bilan bog‘liq ravishdagi davriylik jihatlarini, rassom, fotograf, fotomuxbir kabi mualliflarni o‘rganish.

6. Gazeta suratlarining miqdor, mavzu, janr, sifat, mualliflik, targ‘ibot, axborot xususiyatlari haqida xulosalar chiqarish.

2-rasm. Amerikalik aktrisa Bessi Lav (Bessie Love, 1898-1986) fotoportreti, 1920-yillar.

7. Gazeta suratlari bilan bog‘liq voqelik hodisalarini, masalalarni, adabiyotlar va arxiv materiallari bilan solishtirish, to‘ldirish.

8. Rasmlar va fotosuratlarda axborot-targ‘ibot mazmun-mohiyatini o‘quvchiga yetkazish, singdirish usullarini aniqlash va tahlil qilish.

Davriy matbuotda fotografiya, karikatura, rasm kabi tasviriy manbalar keng o‘rin olgan [9]. Tasviriy manbalarning tarixiy, portret, harbiy, maishiy, manzara, qush va hayvonlar tasviri (anamalistik) hamda natyurmort kabi janrlari mavjud

[10] Grafika va fotografiya san’ati davriy matbuot sahifalarida keng qo‘llaniladi. Rasmda asosiy obrazlar, personajlarning portretlari, voqealar, sodir bo‘lgan manzaralar ko‘proq voqea bilan birga beriladi [11].

Fotoxabarlarda ijtimoiy hayotning ijobiy va salbiy jihatlari aks ettirilishi mumkin. Uning sharhlanmagan, izohli va kengaytirilgan turlari uchraydi [12]. Kengaytirilgan fotoxabar fotoreportajga o‘xshash, chunki ikkala janrda ham bir necha tasvirlardan foydalaniladi. Fotoxabar mazmunida birgina fakt, fotoreportajda voqea, fotoocherkda hodisa yotadi[13]. Sharh janri esa ko‘pqirrali, hayotni aks ettirishda turli vositalardan foydalanadi [14]

Fotoportret insonni tasvirlashning bir shakli bo‘lib, bunda shaxsning tashqi ko‘rinishi, his-tuyg‘ulari, jamiyatda tutgan o‘rni va boshqa xususiyatlar unda yorqin namoyon bo‘ladi. Fotoportret orqali inson qalbi va tabiati hamda xarakteri ochib beriladi. Aksariyat mutaxassislar uni ikki turga: yakka va guruhli portretga ajratishadi. Ayrim manbalarda portretlarning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi: klassik fotoportret; konseptual fotoportret; imidjli fotoportret; romantik fotoportret; lorporativ fotoportret; “Fashion” fotoportret; reportaj fotoportret; keng ko‘lamli fotoportret; janrli fotoportret. Fotoportretning qaysi turidan foydalanish matbuot nashri tipologiyasiga ham bog‘liq [15].

Xulosa. Fotografiyalar o’zining muqom o’zgarmasdan turishi hamda harakatdagi tasvirga nisbatan oldinroq paydo bo’lgani, shuningdek, videotasvirga olish vositalaridan ko’ra kamroq xotira hamda ko’proq kishida tasvirga olish imkoniyatini berishi bilan bir qator ustunliklarga ega. Yangi davrda tarixning “kundalik turmush tarixi”ni o’rganishda ko’p tarqalgan material sifatida olinishi ham shu bilan belgilanadi. Bu insoniyatning kundalik turmush tarzi Instagram, Facebook, Tinder, Pinterest kabi tarmoqlarda millionlab fotosuratlarida aks ettirilganligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Paul Liffman, Americas, Sociocultural Overviews: Mexico. in International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences (Second Edition), 2015.
2. Раздина Н. В. Газета За индустриализацию как источник для изучения промышленной политики советского государства в 1930-1940 гг. (опыт контент-анализа редакционных статей). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – М., 2016.; Арнаутов Н. Б. Образ врага народа в системе советской социальной мобилизации: идеолого-пропагандистский аспект (декабрь 1934 г. - ноябрь 1938 г.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Томск, 2010.
3. Крашенинникова М.А. Отечественный фоторепортаж периода перестройки (на примере изданий Советский союз, Огонек, Советская Россия в 1985-1991 гг.). Автореф. дисс. ... канд. филолог. наук. – М., 2017; Макаров А. Н. Информационно-пропагандистское сопровождение индустриализации 1929-1941 гг. средствами советского фоторепортажа (на материалах Магнитогорска). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Челябинск, 2013. – 32 с.
4. Shamayeva F.M. Kinofotofonodokumenti kak istochniki KPSS (na materialax Uzbekistana 1917-1937 gg.). Avtoref. dis... – S. 16. Birinchi navbatda bu faktik tanqid bo‘lib, u manbaning to‘liqligi va ishonchliligini uni boshqa manbalar bilan solishtirish, manba faktlarini boshqa manbalardan olingan faktlar bilan tekshirish yo‘li bilan aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.
5. Шамаева Ф.М. Кинофотофонодокументы как источники КПСС (на материалах Узбекистана 1917-1937 гг.): Автореф. дис... канд. ист. наук. – Ташкент, 1975. – С. 25.
6. Шамаева Ф.М. Кинофотофонодокументы как источники КПСС (на материалах Узбекистана 1917-1937 гг.). Автореф. дис... канд. ист. наук. – Ташкент, 1975. – С. 5.
7. John Collier Jr. and Malcolm Collier. *Visual Anthropology: Photography as a Research Method*, 1967.
8. https://archive.org/details/visualanthropolo0000unse/page/n1/mode/2up
9. Русина Ю.А. Источниковедение новейшей истории России. Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во Уральского унив., 2015. – С. 157.
10. Oripov B.N. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo`llanma 5-nashri. – Toshkent: ILM ZIYO, 2016. – B.6.
11. Oripov B.N. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo`llanma 5-nashri. – Toshkent: ILM ZIYO, 2016. – B.19.
12. Qosimova N., Karimov A., Fayzullayeva X. Fotojurnalistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2017. – B.56-57.
13. Qosimova N., Toshpo‘latova N., Shofayziyeva N., Muratova N. Bosma OAV tahririyatlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2008. – b.54-55.
14. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – b. 223.
15. Qosimova N., Karimov A., Fayzullayeva X. Fotojurnalistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2017. – b. 58-59.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/9]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 520.1

Anvarjon ERQO‘ZIYEV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.n
E-mail: anvarjon_ercouziyev@mail.ru
Zohidjon ABDULLAYEV,
Namangan davlat universiteti talabasi
E-mail: Abdullayevzohidjon2@gmail.com

NamDU dotsenti, t.f.n Z.Madrahimov taqrizi asosida

MUVOROUNNAHR OLIMI SULTONI MUHAMMAD TARAG‘AY

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi, Temuriylar sulolasi yirik vakili Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyati haqida to‘xtalib, u haqidagi O‘rta Osiyolik va chet el mutafakkirlarining bildirgan fikrlari va dunyo ilm-faniga qo‘shgan hissasi haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Tarag‘ay, Davlatshoh Samarqandiy, Sultoniya, Shoxruh Mirzo, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Kuragon, Majolis un-nafois, Zij.

SULTAN MUWAROUNNAHR SCIENTISTS MUHAMMAD TARAG‘AY

Annotation

This article focuses on the life and work of Mirzo Ulug‘bek , a great thinker and statesman, a great representative of the Timurid dynasty, and gives brief information about the opinions of Central Asian and foreign thinkers about him and his contribution to world science.

Key words: Muhammad Taragai, Davlatshah Samarkandi, Sultania, Shahrukh Mirza, Ghiyasiddin Jamshid Koshi, Kuragon, Majolis un-nafois, Zij.

СУЛТАН МУВАРУННАХР УЧЕНЫЕ МУХАММАД ТАРАГАЙ

Аннотация

Данная статья посвящена жизни и творчеству Мирзо Улугбека, великого мыслителя и государственного деятеля, великого представителя династии Тимуридов, и дает краткую информацию о мнениях среднеазиатских и зарубежных мыслителей о нем и его вкладе в мировую науку.

Ключевые слова: Мухаммад Тарагай, Давлатшах Самарканди, Султания, Шахрукх Мирза, Гиясиддин Джамшид Коши, Курагон, Маджолис ун-нафойс, Зидж

Ulug‘bek… adolatli, qudratli va muruvvatli shoh-olim bo‘lgan edi. U olimlikning yuqori darajasiga erishdi hamda narsalarning mohiyatini chuqur anglay oldi… geometriyada u Yevklid, astronomiyada Ptolemey kabi edi.

Davlatshoh Samarqandiy

Kirish. Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay) – Buyuk olim, astronom, matematik, yirik davlat arbobidir. Har sohadan keng ilm olgan Ulug’bek O’rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo’shdi, davlat ishlaridan tashqari tarix, she’riyat, matematika fanlariga katta e’tibor berdi. Mirzo Ulug’bek hijriy 796-yili Jumodil avval oyining 19 da yakshanba (milodiy 1394-yili 22-mart) kuni Iroqi - Ajamning Sultoniya shahrida dunyoga keladi. Shu davr namoyondasi Fasih Xavofiyning ma’lumot berishicha, xuddi shu kuni bir mash’um voqea ham ro’y beradi – Amir Temurning ikkinchi og’li, Ulug’beknig amakisi Umarshayx Bag’dod yaqinidagi Xarmatu qal’asini qamal qilish paytida o’ldiriladi. Bundan tashqari xuddi shu yili avgustida Shohruh Mirzoning ikkinchi o’g’li, Ulug’bekning ukasi Ibrohim Sulton ham tug’iladi. Ulug’bekning onasi Gavharshod og’o chig’atoy amirlaridan G’iyosiddin Tarxonning qizi edi. Ulug’bek tug’ilgan paytda sohibqiron Amir Temur Iroqning shimolidagi Mordin qal’asi qamal qilish bilan ovvora edi. Shu vaqtda Sohibqironning Sultoniyadagi qarorgohida Ulug‘bek tug‘iladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal’asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi[1]. Amir Temurga nabirasi tug’ilganligi haqidagi xushxabar yetib borgach, sohibqiron Armaniston va Ozarbayjonga keladi. Shohruhning birinchi o’g’liga Muhammad Tarag’ay deb ism qo’yishadi. Keyinchalik unga “buyuk bek”, ya’ni “Ulug’bek” degan taxallus beriladi. Qabul qilingan tartibga ko’ra, Temurning barcha nabiralari saroyda tarbiyalanar edi. Ulug’bek ham Temurning xotini Saroy Mulkxonimning tarbiyasiga beriladi. 1404-yili 10 yoshli Ulug’bekni Muhammad sultonning qizi O’g’aybekaga uylantirishadi. Shundan so’ng u ham Saroy Mulkxonim nazorati ostida bo‘ladi[2]. Ulug’bekning ilk bolalik yillari Saroy Mulkxonimning ko’z ostida Qorabog’da kechadi. Temur davrigacha Arron deb atalgan bu bog’ “besh yillik” yurishlardan so’ng shu nomni oladi. Amir Temur 1394-yil may oyidayoq Ulug’bekni onasi bilan birga shu yerga jo’natgan edi. Ulug’bek 10 yoshidan keyin Samarqandda yashaydi. Amir Temur saroyida Shohruh Mirzo va uning o’g’li Mirzo Ulug’bekning nufuzi baland bo’lgan. Buni tasdiqlovchi ma’lumotlar ham mavjud bo’lib, xususan, Fasih Xavofiy Temurning barcha o’g’il va nabiralarini faqat “amirzoda” deyilsa, Shohruhni “Buyuk xoqon” va “Bahodir” deb ham ataydi va Sherozda uning nomi bilan tanga zarb etilganini eslatadi. Uning o’n bir yashar o’g’lini esa “Mahdumzoda Ulug’bek Guragon” deb ulug’laydi. Sharafiddin Ali Yazdiy ham Shohruh va uning o’g’li

Ulug’bekni boshqa amirzodalarga nisbatan yuqori qo’yadi. Demak, bundan ko’rinadiki, Temurning o’zi Pirmuhammadni valiahdlikka tayinlagan bo’lishiga qaramay, Turon va Eronning XV asr birinchi yarmidagi tarixida Shohruh va Ulug’bekning siyosiy mavqei yuqori bo’lgan[3]. 1409-yil dekabrda Shohruhda Hirotga qaytishidan oldin Samarqandning hokimi etib tayinlaydi. 17 yoshidan homiysidan holi ravishda Amudaryodan to Sig’noqqa va Ashparagacha bo’lgan yerlarni yagona amiri bo’lib oladi. Otasi ketishidan oldin u birinchi marta hokim sifatida otasiga ziyofat beradi va katta hadyalar in’om etadi. Shundan keyin to 1447-yilgacha, ya’ni 36 yil davomida u Movarounnahrning yagona sultoni bo’lib qoladi. Zamondosh ulamolar va muarrixlar Ulug’bekni “Buyuk sulton, shahanshoh va xalifa“ deb ulug’lasalar ham u padariga hurmat yuzasidan xutbalarga va o’zi zarb etgan pullarga oliy hokim sifatida Shohruhning nomini eslatadi. Ulug‘bek Shoxrux tirikligida uning huzuriga Hirotga faqat mehmon sifatida borardi. Shohrux esa butun Temur merosining buyuk amiri sanalardi. Shoxrux ham otasi Temur kabi ko'zi ochiqligida vasiyatnoma yozib aniq valiahdni tayinlamagan edi. Ulug‘bek otasi bilan uchrashgan kezlarida meros to’g’risida so'z ochmasdi balki u to'ng'ich o'g'il bo'lgani uchun bu masala xususida ko’ngli to’q bo'lgandir, chunki u valiahdlik da‘vo qilishga haqlik edi[4]. Ulug’bek bobosi kabi, chingiz avlodiga kuyov bo’lganligi uchun o’z nomiga Kuragon (kuyov) qo’shimchasini qo’shadi. Bunga sabab shuki uning birinchi xotinidan qaynotasi Muhammad sulton ona tarafidan O’zbekxondan kelib chiqqan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Ulug’bekning xodimi G’iyosiddin Jamshid Koshiy 1417-yili Samarqanddan Koshondagi otasiga yozgan maktubida Ulug’bekning bilimdonligi va faoliyatini quyidagicha tasvirlaydi:”Allohga va ne’matlariga ko’p shukurlar bo’lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori va islom podshohi donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob yuzasidan aytayotganim yo’q. Haqiqat shuki u kishi Qur’oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufassirlarning har bir oyat haqidagi so’zlarini aqlida saqlaydilar va yoddan biladilar. Arab tilining nahv va sarfini yaxshi biladilar va arabcha juda yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar. Qisqa qilib aytmokchimanki, u kishim bu fan sohasida g'oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar: «Tazkira» va «Tuhfa»dan shu qadar zo'r dars o'tadilarki ularga hech qanday qo’shimcha qilishning hojati qolmaydi. Xoja Ismatulla Buxoriy o’z xotiralarida, Ulug’bek Kuragon hukmronligi davrida hokimlarni madh etishni tark etdi. Nomi tilga olingan sulton undan she‘r aytishni o’tinib so’rardi. Zaruratdan ul hazrat madhida bir necha qasida yozdi... Ammo olim, odil, g’olib va himmatli Ulug‘bek kuragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida olim fozillar martabasi yuqori darajada cho'qqiga ko'tarildi. Mirzo Ulug‘bek handasa (geometriya) ilmida Ptolemey erdi. Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shulki, islomiyat davrida, balki [Iskandar Zulqarnayn vaqtini shu vaqtgacha Ulug‘bek kuragondek olim va davlat saltanat taxtida ultirmagan. U riyoziyot (matematika) ilmini shu darajada egallagan erdiki, zamonaning olimlari ,chunonchi, ulamolar va hakimlar Faxri Kozizoda Rumiy hamda Giyosiddin Jamshid bilan birgalikda yulduzlar ilmiga rasad bog’ladi.Lekin, zamonaning bu ikki ulug‘ olimi natija oxiriga yetmay turib vafot etdilar va sulton Ulug’bek bor himmatini bu ishni oxiriga yetkashishga sarfladi. “Ziji Sultoniyni kashf etib, uni ismi birlan ziynatladi. Bugun bu zij hakimlar nazdida mo’tabar va amaldadur. Ulug’bek Samarqandda bir oliy madrasa bino etdikim, bezagi, afzalligi va ulug’vorligi jihatidan unga o’xshashi yetti iqlimda yo’qdur. So’ngi kunlarda ul oliy madrasada yuzdan ortiq talaba o’quv, istiqomat qilmoqda…

Mirxond ham o’z asarlarida Ulug’bekni xotirlab quyidagilarni eslaydi: “Mirzo Ulug'bekning xotiriga [ko'ngliga] hoqoni sazidning muloqoti ishtiyoqi afzun [ziyoda] bo'lib, Movarounnahr diyoridin Xuroson bilodi mamlakati sari yuzlandi. Chun ul janobning vusuli [yetib kelish] xabari mutavotir oylanib [tarkalib], humoyun mavkabi [baxtli oti] Hirot hududiga vasil oylandi [ya‘ni etib keldi], iffat iktido (iffat sohibasi] Gavhashod va mirzo Boysung’ur, va mirzo Muhammad Juki bahodir boshliq Xuroson o'lkasining a‘yonu umarosi va ashrofu ulamosi ul janobning istiqboliga chiqib, ta‘zimu takrim [izzat] sharoitin taqdimga etkurdilar.” Alisher Navoiy o’zining “Majolis un-nafois” asarida Ulug’bek shaxsiyati haqida to’xtalib, u haqda: Ulug'bek Mirzo donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag'oyat ko’p erdi. Yetti qiroat bila Qur‘oni majid yodida erdi. Hay‘at va riyoziyni xub bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog'ladi va holo aning ziji oroda shoedur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmga mayl qilur[5].-

Tadqiqot metodologiyasi. Ulug‘bek davriga yaqin bo'lgan qimmatli asarlardan biri Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlaus-sadayn" solnomasidir. Bu asar Samarqandda 1468-1471 yillarda yozilgan. O'z davrida Abdurazzoq ishlab turgan observatoriyaga tashrif buyurgan. Biz u tufayligina observatoriya binosi baland va doiraviy shaklda bo'lganligi, uning ichida doirali osmon qubbasi, 7 harakatdagi yulduzlar tasvirlangan ajoyib rasm va chizmalar bo'lganligini bilamiz. “Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin mirzo Ulug’bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G’iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko'hak tepaligida Obi Rahmat arig'ini bo'yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi”[6].]Ulug’bekning vafotidan so’ng, Samarqand olimlari asta-sekin butun O’rta va Yaqin sharqqa bo’ylab tarqalib ketadi. Ular borgan yerlarida ilm-fan yutuqlarini yetkazadilar. Shulardan biri, Ali Qushchi 1473-yilda Istanbulga borib, u yerda rasadxona qurdiradi. Shu tariqa Samarqandlik olimlarning ilm-fan sohasida muvaffaqiyatlari, Ulug’bek “Ziji” va boshqa yutuqlar Turkiyada keng yoyilib, Turkiyadan Yevropaga tarqaladi. Hozirgi kundagi ma’lumotlarga ko‘ra “Zij”ning YUOga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O‘rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki matematik asar bunchalik ommaviy va keng ma’lum bo‘lmagan. “Zij” musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o‘rganilgan va sharhlangan. Uni sharhlagan olimlardan quyidagilarning nomlarini eslatish mumkin: Shamsiddin Muhammad ibni Abul Fath as-So‘fiy al-Misriy (vaf. tax. 1495), Abulqodir ibni Ro‘yoniy Lahijiy (vaf. 1519), Miram Chalabiy (vaf. 1525), Abdulali Birjandiy (vaf. 1525), G‘iyosiddin Sheroziy (vaf. 1542)[7].

Tahlil va natijalar. Mirzo Ulug'bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari sohasida qalam tebratgan olim. «Tarix-i arba‘ ulus» esa, u yaratgan asarlar orasida alohida o'rin tutadi. Avvalambor shuni aytish kerakki, «Tarix-i arba ulus» Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yaratilgan bu asar uni mohir tarixchi ekanligini isbotlaydi. Asar 1425 - yili yozib tamomlangan bo’lib, undan ko’plab tarixchilar o’z asarlarini yozishda bosh manbalardan biri sifatida foydalanganlar.

Shunday qilib, Ulug’bek davrida Movorounnahr va Xuroson hududidagi ijtimoiy taraqqiyot yuksak madaniy va ilmiy ko’tarilishga olib keldi. Bu ko’tarilishni hozirgi fanda (Jirmunskiy, Braginskiy, Los) O’rta Osiyo – Xuruson va Eron uyg’onishi – Renessansi deb ataydilar. Ayrim mualliflar (masalan Konrad) uni Musulmon renessansining so’ngi davri va umuminson renessansining bir qismi deb ataydilar. Qanday atalishidan qat’iy nazar, bu ilmiy madaniy ko’tarilish O’rta Osiyo ikki daryo oralig’i bilan bog’liq bo’lib, u ham bo’lsa o’z ibtidosini Ulug’bekning XV asr boshidagi Samarqanddagi

ilmiy faoliyatidan oladi. Bundan salkam olti asr muqaddam azim shahar - Samarqand etagida Ulug‘bek va uning safdoshlari tomonidan ishga tushirilgan rasadxonadan Koinot qa'riga tashlangan nazar faqat Sharqdagina emas, balki jahon fani, madaniyatining "ochilmagan qo‘rig‘i"ni ochish - Koinotni o‘rganishga qo‘yilgan buyuk bir qadam bo‘ldi. Shu ilk qadam sabab bo‘lib Yevropada birin-ketin yirik, yaxshi jihozlangan rasadxonalar ishga tusha boshladi. Polshada Olam tuzilishining geliotsentrik nazariyasi (N. Kopernik tomonidan), Milanda (Italiya) Koinotning cheksizligi va unda Quyosh sistemasi - oddiy bir yulduzning yo‘ldoshlari bilan tashkil etgan sistemasi ekanligini g‘oyasi (Jordano Bruno tomonidan), Germaniyada osmon jismlarining harakat qonunlarini ifodalovchi osmon mexanikasi (I. Kepler tomonidan), Angliyada osmon jismlarining massalarini hisoblash usuli(I. Niyuton tomonidan) kabi muhim kashfiyotlar daryosining vujudga kelishida Samarqand astronomlari "ko‘zini ochgan buloq" dastlabki irmoq bo‘lib Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o‘rganish bo‘yicha Ulug‘bek maktabi qo‘ygan poydevor – nazariy astronomiya deyiluvchi maxsus fanning shakllanishida o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi.

Xulosa va takliflar. Mirzo Ulug’bek hukmdorlik davri va uning ilmiy faoliyati juda keng bo’lib, u haqda birgina maqola yoki kitob orqali to’liq ma’lumot berib bo’lmaydi. U haqida hatto ko’plab asarlar yozilgan bo’lishiga qaramay ular ham Mirzo Ulug’bek hayotini va faoliyati to’liq yoritilmagan. Ushbu maqolada ham shu kabi u haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan. Bugungi kunda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar siymosi va ularning ilmiy faoliyati keng miqyosda o’rganilmoqda. Ko’plab alloma va mutafakkirlarning yubileylari nishonlanmoqda. Shu kabi Mirzo Ulug’bekning hayoti va ilmiy faoliyati haqida ko’plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. 1994-yil 19-martda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1994- yilni “Mirzo Ulug‘bek” yili deb e’lon qilish to‘g‘risida” farmon chiqardi. Iyun oyida Istambulda Ulug‘bekning 600 yilligi hamda Kandil rasadxonasining 125 yilligiga bag‘ishlab Turkiyada va islom olamida fan va texnologiya bo‘yicha Xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Simpozium ishida O‘zbekiston olimlari ham ishtirok etdi[8]. Mirzo Ulug‘bekning yuqori ma’naviy va sezilarli merosi dunyoning yetakchi o‘quv muassasalarida va ilmiy markazlarida o‘rganib kelinadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan, O‘zbekiston Milliy universiteti ushbu atoqli olim sharafiga nomlanganligi respublikaning bugungi yuqori ilmiy-ma’naviy qudratini tasdiqlaydi. Bugungi kunda ham Mirzo Ulug’bek hayoti, ilmiy faoliyatini o’rganish o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Yurtimizda va xalqaro doiralarda Mirzo Ulug’bek va u kabi yetuk allomalarimizning nomlari, ular qoldirgan ilmiy me’ros hali hamon anjumanlar minbarlarida jaranglamoqda. Biz yoshlar Mirzo Ulug’bek faoliyati va uning boy tajribasini o’rganib, uni o’z hayotimizga to’g’ri tatbiq etmog’imiz darkor.

ADABIYOTLAR

1. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/04/13/1234567890-1396909
2. Абдурахмонов А. Улугбек Академияси - Т.: Комуслар бош таҳририяти, 1994.Б-4
3. Ахмедов А. Улугбек Мухаммад Тарагай,-Т.:O’zbekiston,2011.Б-5
4. Аҳмедов А. Улуғбек (ҳаёти ва фаолияти) -Т.:ФАН 1991.Б-36
5. Аҳмедов Б., Уватов У., Каримов Ғ.ва бошқ. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида(Рисола), -Т.: Ўқитувчи, 1996.Б-5
6. Абу Тохир Ходжа. Самария. Пер. В. Л. Вяткина, Самарканд. 1899. С. 170.
7. https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/mirzo-Ulug‘bek -1394-1449/
8. https://islomkarimov.uz/uz/page/ijtimoiy-hayot-1994-yil